SHARQ TARIXI, SIYOSATI VA HUQUQI JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ ЖУРНАЛ ИСТОРИИ, ПОЛИТИКИ И ПРАВА

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

ISSN 2181-2780

2024

“SHARQ TARIXI, SIYOSATI VA HUQUQI JURNALI”
(ISSN: 2181-2780)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish agentligining **1479**-sonli Guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

OAK Rayosatining (8.05.2024-y., №354/5) qarori asosida **“Sharq tarixi, siyosati va huquqi” / Oriental Journal of History, Politics and Law / “Восточный журнал истории, политики и права”** jurnali quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha

- **07.00.00 – TARIX FANLARI**
- **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**
- **23.00.00 – SIYOSIY FANLAR**
- **22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI**
- **24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI**
- **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal sayti: https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

Mazkur ilmiy jurnal yiliga 6-marta **o‘zbek, ingliz, rus tillarida** e’lon qilinadi.

Jurnal quyidagi bazalarga o‘z maqolalarini yuklab boradi:

- ✅ **slib.uz**
- ✅ **Google Scholar.com**
- ✅ **Cyberleninka.ru**
- ✅ **Cite-factor.com**
- ✅ **Researchbib.com**
- ✅ **CrossRef DOI**

“Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali”/ “Oriental Journal of History, Politics and Law”/ “Восточный журнал истории, политики и права”

ISSN : 2181-2780 SJIF 2022: 5.777

BOSH MUHARRIR: Raxbar Murtazayeva – tarix fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Ravshan Xomitov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Kamola Saipova	*tarix fanlari doktori, dotsent*
Abror Adilov	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Sayyora Atadjanova	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Avaz Yermetov	*tarix fanlari doktori, professor*
Hayot Qodirov	*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Dilorom Inoyatova	*tarix fanlari doktori, professor*
Farhod Adilov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Bobur Odilov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Kahramon Tursunov	*siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Ravshan Siddiqov	*tarix fanlar nomzodi, dotsent*
Dilnavoz Shavqidinova	*siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*
Asrar Qayumov	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Saidakbar Muxammadaminov	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Hamidillo Lutfillayev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Jasur Tog‘ayev	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
Azamat Kaliyev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Jaloliddin Annayev	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Akbar Bobobekov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*
Jumagul Abduraxmanova	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
Ismoiljon Xo‘jaxanov	*tarix fanlar nomzodi, dotsent*
Nodir Karimov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

EDITOR-IN-CHIEF: Dr. Prof. Rahbarxon Kh. Murtazaeva – Doctor of Historical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD:

Dr Ravshan Khomitov	*PhD in Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Kamola Saipova	*Doctor of Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Abror Adilov	*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Sayyora Atadjanova	*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*
Avaz Yermetov	*Doctor of Historical Sciences, Professor*
Dr. Khayot Kadirov	*Doctor of Pedagogy Sciences, Associate Professor*
Dr Dilorom Inoyatova	*Doctor of Historical Sciences, Professor*
Dr.Farkhod Adilov	*PhD in Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Bobir Odilov	*PhD in Historical Sciences, Associate Professor*
Dr. Kahramon Tursunov	*PhD in Political Sciences, Associate Professor*
Dr Ravshan Siddikov	*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*
Dr. Dilnavoz Shavkidinova	*PhD in Political Science, Associate Professor*
Dr Asrar Kayumov	*Associate professor, candidate of Historical Sciences*
Dr Saidakbar Mukhammadaminov	*Candidate of Historical Sciences, Senior Researcher*
Dr Hamidillo Lutfillaev	*PhD in Historical Sciences*

Dr Jasur Togaev	*PhD in Historical Sciences*
Dr Azamat Kaliev	*PhD in political sciences*
Dr Jaloliddin Annaev	*PhD in Historical Sciences, Associate professor*
Dr Akbar Bababekov	*PhD in Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Jumagul Abduraxmanova	*Candidate of Historical Sciences, Associate Professor*
Dr Ismoiljon Khojakhanov	*Candidate of Historical Sciences, Senior Researcher*
Dr Nodir Karimov	*PhD in Historical Sciences, Associate Professor*

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: Рахбар Муртазаева — доктор исторических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Равшан Хомитов	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Камола Саипова	*доктор исторических наук, доцент*
Аброр Адилов	*кандидат исторических наук, доцент*
Сайёра Атаджанова	*кандидат исторических наук, доцент*
Аваз Ерметов	*доктор исторических наук, профессор*
Хаёт Кодиров	*доктор философии по педагогическим наукам, доцент*
Дилором Иноятова	*доктор исторических наук, профессор*
Фарход Адилов	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Бобур Одилов	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Кахрамон Турсунов	*доктор философии по политическим наукам, доцент*
Равшан Сиддиқов	*кандидат исторических наук, доцент*
Дилнавоз Шавкидинова	*доктор философии по политическим наукам, доцент*
Асрар Каюмов	*кандидат исторических наук, доцент*
Саидакбар Мухаммадаминов	*кандидат исторических наук, доцент*
Хамидилло Лутфиллаев	*кандидат исторических наук, доцент*
Жасур Тогаев	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Азамат Калиев	*кандидат исторических наук, доцент*
Жалолиддин Аннаев	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Акбар Бобобеков	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Жумагул Абдурахманова	*кандидат исторических наук, доцент*
Исмоилжон Хужаханов	*доктор философии по историческим наукам, доцент*
Нодир Каримов	*доктор философии по историческим наукам, доцент*

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI		
Guzal Muminova	DUTOR IJROCHILIGINING XORAZM VOHASIGA DOIR TARIXIY VA AMALIY JARAYONLARI TARAQQIYOTI	**1-7**
Maxzuna Sobirova	ABDURAHMON IBN XALDUN QALAMIGA MANSUB ASARLARGA TARIXCHI OLIMLARNING MUNOSABATI	**8-13**
Zafar Shamsiddinov	MO‘G‘ULLARGA QARAMLIK DAVRIDA TURON ME’MORCHILIGI	**14-20**
Dilshod To‘xtasinov, Ulug‘bek Raxmonov	UCHTEPA BULOQMOZOR MAJMUASI: UCHTEPA-2 YODGORLIGINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI	**21-27**
Ахмедшина Ф. А.	ГЕНДЕРНЫЙ АСПЕКТ ПРОГРАММЫ ЮНИСЕФ ПОЗИТИВНОГО РОДИТЕЛЬСТВА «1000 И ОДИН ДЕНЬ»	**28-35**
Дилафруза Шамшетдинова	К ВОПРОСУ ПЕРЕУСТРОЙСТВА КАРАКАЛПАКСКИХ АУЛОВ В СОВРЕМЕННЫЕ ТИПОВЫЕ ПОСЕЛКИ (ПО МАТЕРИАЛАМ ЦГА РК)	**36-42**
Kalligul Tangirbergenova	DEVELOPMENT OF COMMERCIAL COTTON AND ALLFALFA CULTIVATION IN KARAKALPAKIA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH - BEGINNING OF THE 20TH CENTURIES	**43-49**
Миржалолхон Асатуллаев	САМАРКАНДСКАЯ УЕЗДНО-ГОРОДСКАЯ ИНСПЕКЦИЯ НАРОДНОГО КОМИТЕТА ПРОСВЕЩЕНИЯ. ОТЧЕТ О СОСТОЯНИИ РАБОТЫ ШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ЗА 1923 ГОД	**50-55**
Wang Guilian	TOURISM COOPERATION BETWEEN CHINA AND UZBEKISTAN FROM THE PERSPECTIVE OF THE SILK ROAD	**212-223**
Saidrasul Khusanov	A LOOK AT THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF THE BIG FERGANA CANAL	**224-230**
Анваржон Алиев	ҲУЖЖАТЛАШТИРИЛГАН АХБОРОТНИНГ ИШОНЧЛИЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	**231-238**
09.00.00 – FALSAFA FANLARI		
Kamola Akramova	ECOTOURISM AS A CATALYST FOR CULTURAL HERITAGE CONSERVATION IN THE PAMIR MOUNTAINS	**56-62**
Otabek Bakirov	FUQAROLIK JAMIYATI – DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI	**63-68**
Шавкат Гуламов	ПОНЯТИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ЕГО СУЩНОСТЬ	**69-76**
Behruz T. G‘afurov	O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHGA DOIR OLIB BORILAYOTGAN G‘OYAVIY-MAFKURAVIY VA IJTIMOIY-MADANIY ISLOHOTLARNING USTUVOR JIHATLARI	**77-85**
Farux Nabiyev	FALSAFA VA MATEMATIKA FANLARI ALOQALARI YORDAMIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH	**86-92**
Ilyos Isaqov	OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNING YANGI OILAGA IJTIMOIY MOSLASHUVI VA INTEGRATSIYASI	**93-99**

Ravshan Xomitov nashrga tayyorladi , e-mail: s.science@internet.ru, (99)6929148 *© “SupportScience”, 2024*

Sherzodbek Sharobiddinov	YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA VORISLIK MASALASINI HAL ETISHNING AHAMIYATI	**100-106**
Naima Zaynobidinova	RIVOJLANGAN DAVLATLARNING JAMIYAT BARQAROR RIVOJLANISHIGA DOIR TARAQQIYOT MODELLARI	**107-114**
Akmaljon Tursunpo'latov	TIBBIY MADANIYAT TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)	**115-122**
Adolat Xo'jayeva	AYOLLAR HUQUQBUZARLIGI TUSHUNCHASI YEVROPA OLIMLARI TADQIQOTLARIDA	**123-129**
Sherzodbek Burkhonov	DETERMINING THE INTERACTION BETWEEN FREEDOM AND LIMITATION IN MARTIN HEIDEGGER'S EXISTENTIAL ODYSSEY	**130-139**
	23.00.00 – SIYOSIY FANLAR	
Javlon Iymanov	O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHDA MARKAZIY OSIYO OMILI	**140-160**
Abdulrashid Anvarov	O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI DAVLAT MODERNIZATSIYASINING ASOSIY OMILI SIFATIDA	**161-168**
	22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI	
Abbas Gulmuradov	APPLICATION OF A PROGRAM-TARGET APPROACH AND MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM	**169-173**
Sultonova D. E.	SOCIAL ACTIVITY OF STUDENT YOUTH	**205-211**
	12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
Nigora Xushboqova	JAMIYATDA HUQUQIY BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARINING ISHTIROKI	**174-180**
Shoxrux Mirxalikov, Laziz B. Omonov	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQINING PREDMETI VA JINOIY JAVOBGARLIK ISHTIROKI VA ASOSLARI	**181-187**
Xushboqova N.G.	PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISH VA HAL QILISH	**188-194**
Одилбек Ўринов	УЙ-ЖОЙДАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЎҒИРЛИКНИ ОЛДИНИ ВА ФОШ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЧЕТ ЭЛ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ	**195-204**

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-01 07.00.00 – TARIX FANLARI Pages: 1-7

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



THE DEVELOPMENT OF THE HISTORICAL AND PRACTICAL PROCESSES OF DUTOR'S PERFORMANCE ON THE KHOREZM OASIS

Guzal Igamovna Muminova
senior lecturer
Uzbek National Music Art Institute named after Yunus Rajabi
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: heritage, art, instrument, national music, Khorezm, history, spirituality, dutar, skill, melody, Juft saz, Goltuq saz.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: In Uzbek musical culture, Khorezm musical performance, among other local styles, is distinguished primarily by its extremely bright tone and special dynamism. This article also reflects the distinctive local customs and traditions of ancient Khorezm, one of the major cultural and musical centers of the peoples of Central Asia.

In particular, we are talking about the historical and practical processes of using the musical instrument dutor, as well as about which people have so far presented their skills of playing this instrument to the people, contributed to the development of musical culture and creative activity.

DUTOR IJROCHILIGINING XORAZM VOHASIGA DOIR TARIXIY VA AMALIY JARAYONLARI TARAQQIYOTI

Guzal Igamovna Muminova
katta o‘qituvchi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: meros, san’at, cholg‘u, milliy musiqa, Xorazm, tarix, ma’naviyat, dutor, mahorat, kuy, Juft soz, Go‘ltuq soz.

Annotatsiya: O‘zbek musiqa madaniyatida Xorazm musiqiy ijrochiligi, o‘zga lokal uslublar orasida, avvalo, o‘zining o‘ta yorqin tusi va alohida jo‘shqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan ko‘hna Xorazmning o‘ziga xos mahalliy udum va an’analari musiqa janrida ham o‘z aksini topgan.

Xususan, dutor cholg‘usining tarixiy va amaliy jarayonlariga, shuningdek, hozirgi davrgacha qanday shaxslar bu cholg‘uda o‘z mahoratini xalqqa taqdim etganligi, musiqiy madaniyat va ijodiy faoliyat rivojiga hissasini qo‘shganligi haqida so‘z yuritilgan.

РАЗВИТИЕ ИСТОРИКО-ПРАКТИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА ДУТОРА НА ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

Гузаль Игамовна Муминова
старший преподаватель
Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: наследие, искусство, инструмент, национальная музыка, Хорезм, история, духовность, дутар, мастерство, мелодия, Жуфт саз, Голтук саз.

Аннотация: В узбекской музыкальной культуре Хорезмское музыкальное исполнительство, среди других локальных стилей, отличается, прежде всего, своим чрезвычайно ярким тоном и особой динамичностью. В данной статье отражены и самобытные местные обычаи и традиции древнего Хорезма, одного из крупных культурно-музыкальных очагов народов Центральной Азии.

В частности, речь идет об исторических и практических процессах использования музыкального инструмента дутор, а также о том, какие люди до настоящего времени представили народу свои навыки игры на этом инструменте, способствовали развитию музыкальной культуры и творческой деятельности.

KIRISH

O‘zbek musiqa madaniyatida Xorazm musiqiy ijrochiligi, o‘zga lokal uslublar orasida, avvalo, o‘zining o‘ta yorqin tusi va alohida jo‘shqinligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Xorazm diyori ham qadimiy va, shu bilan birgalikda, o‘rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Ko‘hna Xorazmning o‘ziga xos mahalliy udum va an’analari barcha turmush jabhalarida o‘z aksini topganligini ham e’tirof etish lozim.

Bunday o‘zgacha xislatlar, asosan, shu zamin musiqasining janr tarkibida, jumladan, suvora, maqom yo‘llari, dostonchilik, xalfachilik, raqs kuylarida kuzatiladi. Shuningdek, bu musiqaning kuy-ohanglari hamda usullari tabiatida mavjud bo‘lgan musiqiy cholg‘ulari – ijrochilikda sezilarli darajada o‘z aksini topadi.

Jumladan, Xorazmda qadimdan mavjud bo‘lgan bir qator olatlar (cholg‘ular)dan ***dutor*** o‘zining xalqchilligi va mukammalligi bilan xalq orasida katta obro‘ va e’tiborga ega bo‘lgan. Deyarli aytim yo‘llari shu cholg‘u jo‘rligida ijro etilgan.

Shu bois dutor cholg‘usining tarixiy va amaliy jarayonlariga, shuningdek, hozirgi davrgacha qanday shaxslar bu cholg‘uda o‘z mahoratini xalqqa taqdim etganligi, musiqiy madaniyat va ijodiy faoliyat rivojiga hissasini qo‘shganligi haqida to‘xtalib o‘tsak. Shu bilan bir qatorda, o‘tgan ustozlarning bugungi davrda ijod qilib kelayotgan izdoshlari haqida ham so‘z yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Tarixiy manbalarga va arxeologik topilmalarga tayangan holda, dutorning qadimiyligidan darak beruvchi dalillar Qo‘yqirilganqal’a (meloddan oldingi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg‘ularning, keyinchalik dutor, do‘mbra va qomuz shaklida takomillashganligini ko‘rsatish mumkin. Natijada, ushbu cholg‘ular asosan o‘zanlar, oshiqlar va baxshilarning jo‘rnavoz cholg‘usi sifatida qo‘llanilgan.

VIII-IX asrlarda suyakka ishlov berish san’ati keng rivojlangan. Xorazmshohlar davriga kelib ushbu hunar yanada rivoj topib, suyak kesuvchi va unga ishlov beruvchi ustaxonalar vujudga kelgan. U yerda (Urganch shahrida) pichoq, qilich, qamchilarning dastalariga va asosan cholg‘ularning dastalari, pardalari va kosaxonalariga suyakdan kesib hamda kuydirib bezalgan naqshlar bilan chiroyli ishlov berilgan.

Ikki torli cholg‘ular ayrim sharq xalqlarida turlicha nomlangan. Masalan, **“XII asrga kelib dutor, do‘mbra ozarbayjonlarda “Juft soz” yoki “Go‘ltuq soz” deb nomlangan cholg‘u sifatida shakllangan.”[1]**

Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan Mavlono Zaynulobidin al-Husaynining A.Navoiyga bag‘ishlangan “Musiqiy ilm va amaliyot qonuni” risolasida aytilishicha: **“...o‘sha zamonda kvarta intervali oralig‘ida sozlanuvchi, 11 pardaga ega bo‘lgan dutor tavsiflanadi. Pardalar arab alifbosi harflari bilan belgilangan.”[2]**

Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasida dutor cholg‘usining tuzilishi haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan: **“Dutor chalish tanbur chalishg‘a qaraganda yengil bo‘lgani uchun bu cholg‘u xalq orasida tanburga ko‘ra ko‘brak chalinadir. Buning dastasi 7.0-7.5 detsimetrgacha bo‘lib, kosasi 2.0x4.5 gachadir. Pardasi ba’zi o‘runlarda o‘n uch, ba’zi o‘runlarda o‘n to‘rttadir.”[3]**

Shu navbatda, dutor ijrochilik uslubi haqida so‘z yuritsak. Dutorning xarragi past bo‘lganligi sabab ayrim dutorchilar chalgan paytda o‘ng qo‘lini dutor qopqog‘iga tekkizib dutor ohangining shirasini qochiradilar. O‘tgan asrda yashab ijod etgan Samarqandlik mashhur hofiz va dutorchi Hoji Abdulaziz Abdurasulov qo‘lini qopqoqga urmay chalish uslubi bilan elga manzur bo‘lgan.

Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlardan biz aynan Xorazm dutori boshqa xalqlarga mansub dutorlardan, xususan, mahalliy xududlarda yasaladigan dutorlardan ham – hajmi, torlari va ijro uslubi bilan farqli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xorazm dutori kosaxonasining hajmi nisbatan kichikligi, dastasi biroz ingichka va kaltaroqligi bilan Farg‘ona vodiysi va Toshkentda rasm-rusum bo‘lgan an’anaviy dutordan farq qiladi.

Mahalliy-an’anaviy dutor ijrochiligining kasbiy, jumladan sof cholg‘u yoki maqomlarga mos chalish uslubi ham muayyan o‘xshashlik bo‘lganligi bilan bir qatorda o‘zaro bir muncha farqli tomonlari ham mavjud.

Xorazm dutori haqida batafsilroq gapiradigan bo‘lsak, bu cholg‘u qanday ijro etilgan, kimlar tomonidan, qanday uslubda va sharoitlarda ijro qilingan kabi savollar biroz mulohazaga tortadi.

B.Matyoqubovning “Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari” kitobida yozilishicha: **“Xorazm dostonchiligida ikki xil dutor qo‘llanib, ularning birisi kalta dastali (uzunligi 970-1040mm), ikkinchisi uzun dastali (bo‘yi 1300mm va undan ortiq) dutorlardir” – deyilgan.[4]**

Ma’lumki, dutor cholg‘usi asosan tut yoki o‘rik daraxti yog‘ochidan yasaladi. Bu yog‘och bo‘laklari qadimdan “soz” deb atalgan. Bu sozlar bir necha yillar davomida toblangan, ya’ni, ular avvaliga qazilgan quduq devorlariga o‘rnatilgan. Keyinchalik quduq buzilib bu sozlarni uzoq yillar mobaynida soya joyda quritishgan.

Ayrim manbalarda tandir qurilgan vaqtida sozlar eng tagiga o‘rnatilib quritilgan degan ma’lumotlar ham uchraydi. Ana shundan keyin bu sozlar cholg‘u yasash uchun tayyor deb hisoblanar edi. Chunki bu jarayondan o‘tgan sozlardan yasalgan cholg‘u ham issiqqa, ham sovuqqa, yomg‘irlarga ham bardosh bera olardi.

Xorazmda dutor cholg‘usining ijrochilik uslubi o‘ziga xos bo‘lib, o‘ng qo‘l zarblari bir tekis rez usulidagi uzluksiz-davomiy ijrosi bilan boshqa vohalarga mansub ijrochilik uslubdan ajralib turadi. Shuningdek, ayrim hollarda va maxsus dutor cholg‘usi uchun bo‘lgan muayyan kuylarda har bir kuchli hissasini bo‘rttirib, o‘ng qo‘lning to‘rt barmog‘i va asosan jimjilog‘ini qopqoqqa tekkizib – tirnab, o‘rib chertish asosiy ijro xususiyatlaridan hisoblanadi.

Ammo ijodiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosaga ham kelishimiz mumkin. Xorazm dutor ijrochilik maktabiga xos bu zarbda o‘ng qo‘l aplikaturasini yoshi ulug‘ ustozlar ijrolarida kuzatsak, o‘ng qo‘l barmoklari orasida ko‘rsatkich va jimjiloq barmoqlar nisbatan oldinroq chiqib turadi. Rez qilib aylantirilganda bu holat yuzaga keladi, ya’ni (∧-pastga, ∨-tepaga zarb): jimjiloq(∧) ko‘rsatkich(∧) bosh barmoq(∧) bosh barmoq(∨) ko‘rsatkich(∨). Be ***rez*** uzluksizlikni ta’minlaydi va yumshiqriq eshiriladi, shu bilan birgalikda jimjiloq va/yoki ko‘rsatkich barmoq bilan tirnash ijrochining mahoratiga va asarga mos kerakli tovush sadosini chiqarishga bog‘liq. Aynan Shuxrat Razzoqov bilan ijodiy suhbatimizda: “Men ko‘rsatkich barmoq bilan tirnayman” [5.] - dedi.

Ijro uslublarida bu holatdan tashqari yana bir zarb ko‘rinishini tasvirlab o‘tishni joiz deb bildik. O‘ng qo‘lning 4ta barmoq oralarini biroz ochib birin-ketinlik bilan pastga zarb urish – bu ***arpedjio*** deyiladi. Va aynan bu zarb dutor ijrochiligida hozirgi kunda odatiy tusga aylandi. Bu esa biroz muammoli vaziyatdir. Xuddi fortepiano cholg‘usida har bir akkord arpedjio qilib ijro etilmaganidek, dutor cholg‘usida ham arpedjio zarbining o‘z o‘rni bor albatta. Xorazm dutor ijrochilik maktabi namoyandasi Shuxrat Razzoqov arpedjio zarbini 4chi va 3chi (4-barmoqqa nisbatan biroz ichkariga bukilgan) barmoqlar bilan pastga urib ijro qilishlari guvohi bo‘lamiz. Dutorning o‘ng qo‘l zarblari Xorazmda “Dast” deyiladi. Zarblar o‘z ichida kuy va usul bo‘laklarini murakkab va eng jozibali jihatlarini birlashtirgan.

Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo‘r bo‘luvchi doira ham usulni dutor zarblaridan o‘rganar ekan. Nomalarning kuy tuzilishi keng va tezkor rivojlanganligidan baxshi dutorning ijro imkoniyatlaridan to‘la foydalangan.

Garchi musiqashunoslar dostonchilarni birinchi navbatda qo‘shiqchi baxshi, undan keyin esa cholg‘uchi sozanda deb hisoblashsada, oshiq va baxshilar cholg‘uda ijro qilish mahoratiga katta e’tibor qaratishgan.

Mulla Bekjon Rahimxon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobida yozilishicha: **“Dutor sozining rivojlanishi va inqirozini ikki davrga bo‘lish mumkin: Birinchi davr Ko‘hna Urganch shahrining obod zamonlaridirki, bu zamonlarda dutor anchagina rivoj topdi. Bu davrda yetishib chiqqan dutorchilardan mashhur Yusufbekni ko‘rsatishimiz mumkin. [6]**

Bunday deyilishining boisi shuki, Yusufbekni Xorazmdagi avvalgi musiqashunoslardan deb hisoblashadi. Chunki u xalq orasida soz bilan bog‘liq suhbatlar, munozaralar o‘tkazib turar edi. Ustozning o‘zi soz ilmida o‘ta mahoratli bo‘lgan va majlislar o‘tkazganda Ko‘hna Urganchning sozanda va go‘yandalari u yerda kun davomida soz va suhbatdan bahramand bo‘lishgan. Yusufbek esa ularga dutor chalib berar ekan. Dutor nag‘malari shu tariqa xalq orasida tarqalgan.

Ikkinchi davr Sayid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon zamonlariga to‘g‘ri kelib, bu davrda dutorga e’tibor kuchaygan va bir qancha mutaxassis dutorchilar yetishib chiqqan: **“Xivalik Avaz Juma, Xo‘ja Nazar Kurt ismli dutorchilar o‘z zamonasining mumtozi bo‘lib yetishdilar. Mazkur Xo‘ja Nazar Kurtdan Hazorasplik Pahlavon Boy va Hazoraspning Miton mavzesidan Bobojon Miton kabi shaxslar dutorchilikni o‘rganadilar. Bobojon Mitondan Usmonjon va Yoqub Dorchilar mashq oladilar.”[7].** Ismlari aytilgan sozandalar o‘z ijrolari bilan xalq ichida dutor cholg‘usiga bo‘lgan mehrni yanada ziyoda qiladilar.

Yangi bir dutor nag‘malari asoschisi, xalqqa dutorni yanada tanitgan baxshi sozanda – Siyav baxshidir. Bu rivojlanish davrida, ya’ni dutor nafaqat baxshilarning jo‘r bo‘luvchi cholg‘usi, balki ko‘pchilik aholining eng sevimli cholg‘usi bo‘lganligi sabab, dutor uchun maxsus kuylar turkumi

va maqomlar yaratildi. Bu maqomlar xozirgi davrgacha yetib kelib, ***“Dutor maqomlari”*** deb yuritilib kelmoqda.

Shu bois, uzoq tarixiy silsila davomida dutor ijrochiligining har bir qatlami o‘ziga xos an’analar bilan boyib bordi. Ayniqsa, ijodiyot bilan bog‘liq mumtoz namunasi soz ustalari amaliyotida yanada takomillashib, rivojlanib xozirgi davrgacha yetib keldi.

Har bir majlis yo tadbir xalq sozanda-yu bastakorlar tomonidan yaratilgan yangi-yangi asarlar bilan jozibali edi. Bu asarlarning qaysidir biridan ilhomlangan mutrib, o‘zi ham shu kabi asar yaratishga intilar edi. Buni xalq sozandalarining ijodiyotidagi ***o‘xshatma ijodiyot*** deymiz, yoki ijodyotning ***nazira*** uslubi.

Bu ijodiyot mumtoz musiqaning shakllanishida juda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki, har bir turkumli asar mazmun jihatidan, shakl jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi va davom etuvchi bo‘lishini taqozo etadi. Har bir ijodkor buni asosiy vazifa qilib belgilaydi.

Shu bois zamonlar o‘tib yig‘ilgan musiqa merosimizga nazar solsak, bir g‘oyaga asoslangan nechta-nechta alohida asarlar bunyodga kelganligini guvohi bo‘lamiz. Bu asarlar o‘z zamonasining yetuk musiqashunoslari tomonidan tartiblashtirilganda va tasniflashtirilganda qanchadan qancha turkumlar bunyodga kelishi muqarrardir.

Bajarilgan ishlarga murojaat etar ekanmiz, biz o‘tmishda alohida “Dutor maqomlari” deyishimizga arzigulik turkumli musiqiy namunalar yaratilganligini guvohi bo‘lamiz. Buni biz Xorazm xalqini o‘tmish hayoti dutor ohanglarida o‘z aksini topgan zabardast meros sifatida qabul qilishimiz lozim.

Xorazm musiqasi haqida yozilgan tarixiy manbalarlar orasida tanbur chizig‘iga asoslangan “Xorazm maqomlari” kitobi yozma, monumental va amaliy manba sifatida buyukdir. “Xorazm maqomlari” kitobi tarkibida “Dutor maqomlari” uchraydi.

Bu kitob orqali va xozirgi zamonamizda tabulatura tizimini o‘rganib, undagi kuylarni zamonaviy nota ko‘rinishiga o‘tkazayotgan va bu ishga ilmiy-amaliy yondashib qo‘l urgan xorazmlik maqomshunos Rustam Boltaev (PhD, Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universitetining katta o‘qituvchisi)dir. Bu ish, o‘z o‘rnida, tadqiqot masalasidir.

XX asrda Xorazm dutor yo‘llarining amaliy ijro uslubi rivojiga Nurmamat Boltaev, Yusuf Jabbor, Sharif Botir, Otajon Qo‘shmon, Sulton Gulak (Sobirov)lar benazir hissalarini qo‘shishgan. Ammo bu ijro yo‘llar shu kunga qadar faqat magnit tasmalarda saqlanib kelgan.

Aynan bu masala bo‘yicha qo‘yilgan birinchi qadam G.Muminovaning loyixasi asosida, “Shveytsariya hamkorlik va rivojlanish agentligi” bilan hamkorlik Granti natijasida 2006 yil R.Boltaev muallifligida “Dutor maqomlari” kitobi chop etildi. Zamonaviy nota ko‘rinishidagi asarlar o‘quv dasturlariga kiritilib, amaliy tatbiq etilmoqda.

XULOSA

Xorazm dutor ijrochilik an’analarini chuqurroq o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish xozirgi zamonamizning dolzarb masalasidir. Ana shu masalani yanada to‘liqroq yoritish maqsadida qilinayotgan har bir ishimiz yosh ijrochilarni ma’naviy – axloqiy jixatdan yetuk va yuksak darajadagi aqliy salohiyat egasi qilib tarbiyalashda va ilmiy izlanishlarida qo‘l keladi.

Har bir vohaga xos ijrochilik yo‘llarimiz esa yuksak ma’naviyatimizdan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Xorazm, 1999. – 17 b.
2. Rasultoyev J.K. O‘zbek dutor ijrochiligi. Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 6 b.
3. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent: Fan, 1993. – 28-29 b.
4. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochiligining zarxat sahifalari. Xorazm, 1999. – 18 b.
5. Razzoqov Sh. Shaxsiy suhbat, 3.03.2016.
6. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. - 32 b.
7. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. - 33 b.

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

THE REACTION OF HISTORIANS TO THE WORKS OF ABDURAKHMAN IBN KHALDUN

Makhzuna I. Sobirova
PhD's student
International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: History, philosopher, islam, society, state.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: In this article, the opinions and views of local and foreign scientists who conducted research on the works of Abdurahman ibn Khaldun were studied, and the views of scientists were summarized and analyzed.

ABDURAHMON IBN XALDUN QALAMIGA MANSUB ASARLARGA TARIXCHI OLIMLARNING MUNOSABATI

Maxzuna I. Sobirova
Tayanch doktorant
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tarix, faylasuf, islom, jamiyat, davlat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurahmon ibn Xaldun qalamiga mansub asarlar ustida tadqiqot olib borgan mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari va qarashlari o'rganilgan va olimlar nuqtayi nazarlari umumlashtirilib, tahlil qilingan.

РЕАКЦИЯ ИСТОРИКОВ НА ТРУДЫ АБДУРАХМАНА ИБН ХАЛДУНА

Махзуна И. Собирова
Докторант
Международная исламская академия Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: История, философ, ислам, общество, государство.

Аннотация: В данной статье изучены мнения и взгляды отечественных и зарубежных учёных, проводивших исследования творчества Абдурахмана ибн

Халдуна, а также обобщены и проанализированы взгляды учёных.

KIRISH

Tarix haqida fikr yuritish insoniyatning ilk davrlaridan boshlab, bugungi kungacha davom etadigan uzoq jarayonni qamrab oladi. Mifologik davrning rivoyatlarga asoslangan tarix bayoni bilan boshlanib, antik davrda tarixshunoslik shaklida davom etgan bu jarayon Ibn Xaldun (vaf. 1406) bilan ilmiy-falsafiy faoliyat sifatida o‘ziga xos intellektual sohaga aylandi. Ibn Xaldun tarix ilmi va falsafasiga oid qarashlarini, xususan, dunyo tarixiga oid qarashlarini “Kitob’ul-ibar” deb nomlangan asarining “Kirish” bo‘limiga kiritgan. Ibn Xaldunning bu asari tarixiy tafakkur nuqtayi nazariga asoslanganva shu mazmunda o‘z davriga qadar namunasi bo‘lmagan usul (umron) ilmini kiritdi va uni konseptual va uslubiy jihatdan asoslab berdi. U tarixni, insonni, jamiyatni va jamiyatdagi jarayon va institutlarni falsafiy usul bilan, yaxlit yondashuv bilan tadqiq qildi. Tadqiqotchilar uni tarixning birinchi faylasufi, tafakkur tarixida ilk sotsiolog sifatida tan olishgan.

ASOSIY QISM

Abdurahmon ibn Xaldun nafaqat musulmon olamida, balki butun insoniyat tarixida eng muhim va ko‘zga ko‘ringan shaxslardan biri hisoblanadi. Ibn Xaldun haqida xorijda juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Hayoti va faoliyati borasida olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida uning “Muqaddima” va “At-Ta`rif” asarlariga tayanadilar. “Muqaddima” asarini ingliz tiliga tarjima qilgan olim Allen James Fromherz shunday deydi: “Mavjud tarjimayi hollargina Ibn Xaldunning hayoti va ijodi, uning bosib o‘tgan yo‘li haqida bahs-munozara qila oladi.” [1] Ya’ni bundan anglashgiladiki, u haqida yanada tadqiqotlarni ko‘paytirish kerak va bu tadqiqotlar barcha tillarda olib borilishi kerak. Chunki, Ibn Xaldun ijodi juda boy va unsoniyatga uning ujodini ko‘proq yetkazib berish kerak.

Ibn Xaldun shuhrat qozongan davrda islom olamida edi juda mashhur insonlar yashab, ijod qilgan. Shamsaddin Isfahoniy (vaf. 1289), Shamsaddin Samarkandiy (vaf. 1310), Shamsaddin Buxoriy (amir Sulton) (vaf. 1430), ustozi buyuk mantiq olimi Qutbuddin Roziy, Taftazoniy (vaf. 1390), Sayyid Sharif Jurjoniy (vaf. 1413) o‘sha davrning yetakchi ilohiyotchilaridandir.

Shubhasiz, “At-Ta’rif” zamonaviy islomgacha bo‘lgan adabiyotdagi eng batafsil avtobiografiyalardan biri bo‘lib, Fromherz ta’kidlaganidek, Ibn Xaldunning o‘zi haqida bebaho ma’lumotlar beradi. Bu tadqiqotlar uchun asosiy manba hisoblanadi. Biroq, Valter Fischel ta’kidlaganidek, olimlar faqat shu asar bilangina cheklanib qolmasliklari kerakligini, Xaldun bilan bir davrda yashagan olimlar asarlarini tadqiq qilish orqali Xaldun hayoti haqidagi ma’lumotlarni yanada boyitish zaruratini eslatadi.

Ibn Xaldun Tunisda Abu Abdulloh ibn Ibrohim al-Abili (1282-1356) qo‘lida 3 yil falsafa ilmini o‘rgangan. [2] Al-Abili uning o‘sishi va yuksak tarbiya egasi bo‘lishiga katta hissa

qo‘shgan. Ibn Xaldun bir qator hurmatli ustozlar qo‘l ostida Qur’onni o‘rgangan va yod olgan. Shu bilan birga u hadislar, she`rlar yod olishni xush ko‘rgan. Shuningdek, u X asrda yashab o‘tgan arab yozuvchisi Abul Faraj al-Isfahoniyning katta hajmli “Kitob al-ag‘oniy” asarini to‘la yod olgani haqida manbalarda qayd etilgan.

Yana bir ustozi Ibn Abdulloh al-Jayyoniy unga imom Molikning fiqh ilmiga oid “Kitob al-Muvatto” kitobidan ta’lim bergan. Tunisning mashhur qozisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdus-Salom esa yosh Ibn Xaldun bilan qiziqib qoladi va shaxsan unga Molikiylik mazhabida qonunlarni muayyan ishlarga qanday qo‘llash kerakligini ko‘rsatib beradi.

Uning juda ko‘p ustozlari va yaqinlari, xususan, ota-onasi ham vabodan vafot etadilar. Bunday katta yo‘qotishlar, albatta, Ibn Xaldunning qattiq tushkunlikka tushishiga sabab bo‘ldi. Lekin ko‘p o‘tmay u o‘zini qo‘lga olib, ilmga sho‘ng‘ish orqali g‘am-tashvishlarini yengishga harakat qildi. U boshqa ustozlardan ta’lim olishni to‘xtatmadi. Uning eng yaqun do‘sti va ustozi, Granada vaziri lavozimida ishlagan tarixchi Ibn Al-Xatib va andalusiyalik so‘fiy ustozi Mahdi Iso az-Zayyatdan turli ilmlar, ayniqsa, tasavvuf ilmidan saboq oldi. Ibn Xaldun olgan eng muhim saboqlaridan biri ilm va ilmning chegarasi edi. [3] Bu uning o‘zi yozgan asarlarida ham namoyon bo‘lgan.

Ibn Xaldun hayoti va uning asarlarini o‘rganish xorijiy davlatlarda ancha oldin boshlangan. Amerikalik olim Volter J.Fischel Ibn Xaldun hayotiga va ijodiga qiziqa boshlagan va dastlab 1952-yilda Ibn Xaldun va Amir Temurning 1401-yilda Damashq shahridagi uchrashuvi haqida “Ibn Khaldun and Tamerlane: their Historic Meeting in Damascus, 1401 AD” (“Ibn Xaldun va Amir Temur”) nomli kitob yozgan. [4] U bu kitobni Ibn Xaldunning “At-Ta’rif” asari asosida yozadi. Shuningdek, 1967-yilda “Ibn Khaldun in Egypt” (“Ibn Xaldun Misrda”) nomli asar yozgan. Bu kitob islom tarixi, Ibn Xaldun jamiyatdagi o‘rni va uning tarixiy izlanishlari haqida batafsil hikoya qiladi. [5]

Yana bir olim Shmidt Nataniel 1930-yilda Ibn Xaldun hayoti va ijodi haqida “Ibn Khaldun: historian, sociologist and philosopher” nomli kitob yozgan bo‘lib, mazkur asar 1967-yilda Nyu Yorkda qayta nashr etilgan. [6] Mazkur kitobda Ibn Xaldunning tarixchi, faylasuf va sotsiolog sifatidagi qirralari namoyon bo‘ladi.

Ibn Xaldun hayoti va uning asarlarini o‘rganish xorijiy davlatlarda ancha oldin boshlangan va, asosan, uning “Muqaddima” asari turli tillarga tarjima qilinib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlab, Professor Frans Rozental Xaldunning “Muqaddima” asarining 3 jildlik izohli tarjimasini chop etishga muvaffaq bo‘lgan. [7]

Turk olimi Umut Hassan ham “Ibn Xaldun metodi va siyosiy nazariyasi” asarida Ibn Haldunning davlat va jamiyat haqida yozgan g‘oyalarini yoritgan. U o‘z tadqiqotida Professor Frans Rozentalning asarlaridan foydalangan va shu asosida bir nechta xulosalar bergan. Umit

Hasan o‘z asari muqaddimasida Ibn Xaldunning “Muqaddima” asaridagi yuzaga keladigan yondashuv va muammolarni o‘rganib, Ibn Xaldunning o‘ziga xosligini himoya qiluvchi Rozentalning fikrlarini yetkazadi: “F. Rozental Ibn Xaldunni asl tadqiqotchi sifatida ko‘radi. Ibn Xaldunning ijtimoiy hodisalarga realistik qarashi empirik va kuzatish usullari orqali amalga oshirilgan. E.Rozental Ibn Xaldun o‘z ta’limotida islom ilmlari bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o‘rganib, davlat boshqaruvining umumiy tamoyillarini ochib beradigan darajaga yetganini va aslida islom tamoyillarini o‘z nazariyasining umumiy doirasiga joylashtirganini ta’kidlaydi. Muqaddima empirik yondashuvlar va mushohadalarga asoslanib, uni "Sivilizatsiya yig'indisi" deb ta'riflaydi. Bunday qarashga qaramay, Ibn Xaldunning an’anaviy ta’lim olganligi uning voqealarga real yondashishiga to‘sqinlik qilmadi” [8]

Ibn Xaldunning aqliy bilimlari haqidagi yana bir fikr Muhsin Mahdiyga tegishlidir. U Ibn Xaldunning tarix falsafasiga to‘xtalib, uning maqsadini “Ibn Xaldun yondashuvining individual maqsadi va falsafiy ildizlarini aniqlash” deb belgilagan asari muqaddimasida Ibn Xaldun Ibn Rushd ta’sirida mutafakkir bo‘lganligini bayon etadi. Ibn Xaldun shariatni ham, falsafani ham xavf ostida ko‘rganini va ikkalasini ham qutqarishni maqsad qilganligini bildirgan. Mahdiyga ko‘ra, Ibn Xaldun tarixning jamiyat va siyosat bilan aloqasini sezgan va falsafa tamoyillariga asoslangan ijtimoiy fanlar bu masalaga o‘z ahamiyatlarini qaratishi zarurligini bildirgan. Mahdiyning fikricha, Ibn Xaldun yunon falsafasining izdoshidir. [9]

Yana bir marokashlik olim Muhammad Obid al-Jabriy Ibn Xaldun asarlarini va aynan “Muqaddima” asarini boshqa muqaddimalardan ajratib, bu farqni quyidagicha izohlaydi: “... Boshqalar odatda, mavjud fanning istiqbolini mustahkamlash uchun yozilgan; Ibn Xaldunning muqaddimasi yangi ilm-fanni yaratish uchun yozilgan.” [10] Chunki, Jabriyning “Yangi ilm yaratish uchun yozilgan” degan gapidan Ibn Xaldunning Ibn Rushd orqali aristotelchi mutafakkir ekanligi xulosa qilinmaydi, aksincha, Jabriyning bu gapidan faqat Ibn Xaldun asl mutafakkir degan xulosaga kelish mumkin.

2002-yilda Dortmut kollejida Ibn Khaldun haqida bakalavr dissertatsiyasini yozgan olim Allen James Fromherz 2010-yilda Xaldun hayoti va ijodi haqida “Ibn Khaldun, life and times” asarini yozadi. [11] Aynan shu asarda Xaldun hayotining xronologiyasini tuzib chiqqan.

Yana bir muhim manba “The Maghrib in the Mashriq” to‘plamiga kiritilgan Takao Itoning “Writing the biography of Ibn Khaldun” nomli maqolasi bo‘lib, bu maqolada muallif Ibn Xaldun hayotini o‘rganishda nafaqat, Xaldunning asarlaridan foydalanadi, balki o‘z davrigacha yaratilgan tarjimayi hollardan va Xaldun bilan zamondosh bo‘lgan Ibn Xatibning asarlaridan foydalangan holda uning avtobiografiyasini yozishga harakat qilgan. [12]

Lavrencening “Ibn Khaldun and Islamic Ideology” nomli asarida ham O‘rta Sharq va islom ilmlari, sotsiologiya va antropologiya, ijtimoiy ilmlar, din va jamiyat borasida fikr-mulohazalar bildirilib, Ibn Xaldunning o‘z davri ilm-faniga ta`siri haqida atroflicha ma`lumot berilgan. [13]

Xaldun ijodini o‘rgangan yana bir olim Vaseem el-Rayes o‘zining “The book of allusions: a new translation of the title to ibn Khaldun’s Kitab al-Ibar” [14] nomli maqolasida Ibn Xaldunning yozish uslubi va ta’limotining mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Maqola “Kitob al-Ibar”ning umumiy tuzilishi va asosiy mazmuni haqida ma’lumot berishdan boshlanadi va so‘ngra bularning sarlavhada qanday mahorat bilan tasvirlanganligini ko‘rsatib beradi. Bu yerda olim bahs yuritar ekan, yozuv uslubiga e’tibor berish Ibn Xaldun ta’limotining teranligini ochib berish uchun zarur bo‘lgan muhim talqin vositasidir deya fikr bildiradi. Ushbu yangi tarjima va tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Kitob al-Ibar” tarixga nisbatan teran nigoh bilan qarashga intilganligi bir qatorda Ibn Xaldunning siyosat borasidagi o‘zigacha yozilgan tarixga nisbatan tanqidiy nazar bilan qarab, bildirilgan fikrlarga qarshi chiqishga harakat qilgan va har bir gapini dalillar asosida asarida ifodalashga intilgan.

Yurtimizdagi olimlar ko‘proq Xaldunni sotsiolog sifatida tadqiq qilishgan. Sababi, uning “Muqaddima” asarida ijtimoiy hayot va insonning shaxs bo‘lib yetishish kamoloti, axloqiy masalalar juda keng ko‘lamli yortililgan. Mazkur asar juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Shu kunga qadar o‘zbek tilida Ibn Xaldun haqida nisbatan kam sonli tadqiqot ishlari mavjud. Ulardan biri Sulaymonov Jasur Baxtiyorovichning “Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi axloqiy-aksiologik asoslarning germenevtik tadqiqi” mavzusida dissertatsiya ishi yoqlangan. Tadqiqot “Muqaddima” asari asosida yozilgan. Ibn Xaldun jamiyat haqida fundamental fikrlarini davom ettiradi. Mutafakkirning fikricha, taassub jamiyat hayotining asosi, ya’ni poydevoridir. “Taassub”, “asabiyya” atamalari arab tilidan kelib chiqqan. “Taassub” so‘zi, “taassaba” V bob fe’lining masdar shaklidan bo‘lib, tarjimasi «Vatan, millatga bo‘lgan otashin muhabbat, fanatizm» demakdir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida, Abdurahmon ibn Xaldunning asarlari, uning tarjimayi holi ko‘plab xorijiy tadqiqotchilarning asosiy obyekti va predmeti bo‘lib xizmat qilib kelgan. Lekin yurtimizda olimning ilmiy merosi nisbatan kam tadqiq qilingan va uning, ayniqsa, “Tarixi ibn Xaldun” asari keng o‘rganilishi zarurati bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Sababi, bu asarda nafaqat islom tarixi, balki, butun insoniyat tarixi qamrab olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allen James Fromherz. Ibn Khaldun, life and times. works. - Edinburgh, Scotland: Edinburgh University Press Ltd, 2010. – B.39

2. Nassif Nassar. Le Maitre d'Ibn Khaldun: Al-Abili. – Paris, France: Stadia Islamica journal, Brill, 1964 N.20. -103-114 (14 pages)

3. Ibn Xaldun. At-Tarif Ibn Xaldun. – Livan: Dorul-kitab nashriyot uyi, 1979. – B.20

4. Volter J.Fischel. Ibn Khaldun and Tamerlane: their Historic Meeting in Damascus, 1401 AD - California, USA: University of California Press Berkeley and Los Angeles, 1967. – 151 b.

5. Volter J.Fischel. Ibn Khaldun in Egypt. - California, USA: University of California Press Berkeley and Los Angeles, 1967. – 324 b.

6. Schmidt Nathaniel. Ibn Khaldun: historian, sociologist and philodopher. – Nyew York, USA: AMS Press, 1967. -67 b.

7. Frans Rozental. The Muqaddimah. – New Jersey, USA: Princeton University Press, 1958. – 681 b

8. Umit Hassan. Ibn Haldun metodu ve Siyaset Teorisi. – Istanbul: Dogu Bati Yatinlari, 2010. – B.234

9. Muhsin Mahdi. Ibn Khaldun`s philosophy of history. USA, Chicago: Univ.of Chicago Press, 1971. – 325 p

10. Muhammed Abid al- Jabri. Felsefî Mirasımız ve Biz. Istanbul, 2000, s. 308.

11. Allen James Fromherz. Ibn Khaldun, life and times. works. - Edinburgh, Scotland: Edinburgh University Press Ltd, 2010. – 191 b

12. Takao Ito. Writing the biography of Ibn Khaldun. Berlin, Germany: "The Maghrib in the Mashriq" Knowledge, travel and Identify, volume 40, CPI books GmbH, Leck, 2021. – B.513-535

13. Lavrence. Ibn Khaldun and Islamic ideology. Brill, 1984, 136 b

14. Vaseem el-Rayes. The book of allusions: a new translation of the title to ibn Khaldun's Kitab al-Ibar // Religious studies and theology journal, Equinox Publishing Ltd. – Sheffield, England, 2013. -163-184-b

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-03 07.00.00 – TARIX FANLARI Pages: 14-20

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



TURANIAN ARCHITECTURE DURING THE PERIOD OF THE MONGOLS

Zafar Shamsiddinov
junior research associate
Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turan, Mongols, Chaghatai khanate, architecture, creation.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: The article describes the state of the architecture of Turan in the XIII–XIV centuries and the changes that occurred in this area, in particular, the continuation of traditional architecture as a result of the adoption of Islam by the khans of the Chigatoy ulus, and also took into account the fact that the negative consequences of the invasion did not prevent the Turanians from striving for creativity.

MO‘G‘ULLARGA QARAMLIK DAVRIDA TURON ME’MORCHILIGI

Zafar Shamsiddinov
kichik ilmiy xodim
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Turon, mo‘g‘ullar, Chig‘atoy ulusi, me’morchilik, bunyodkorlik.

Annotatsiya: Maqolada XIII–XIV asrlarda Turonda me’morchilik holati hamda bu sohada yuz bergan o‘zgarishlar, xususan Chig‘toy ulusi xonlarining Islom dinini qabul qilishi natijasida an’anaviy me’morchilik davom etganligi, bosqinning salbiy oqibati turonliklarning bunyodkorlikka intilishini to‘xtata olmagani ko‘rib chiqildi.

ТУРАНСКАЯ АРХИТЕКТУРА В ПЕРИОД МОНГОЛОВ

Зафар Шамсиддинов
младший научный сотрудник
Институт истории Академии наук Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туран, монголы, Чагатайский улус, архитектура, созидание.

Аннотация: В статье описывается состояние архитектуры Турана в XIII–XIV веках и изменения, произошедшие в этой области, в частности, продолжение традиционной архитектуры в результате принятия ислама ханами Чигатойского улуса, а также учитывался тот факт, что негативные последствия вторжения не помешали туранцам стремиться к творчеству.

KIRISH

XIII–XIV asrning o‘rtalarida Turon me’morchilik va hunarmandchiligida asta-sekin qayta tiklash jarayoni boshlandi, biroq Elxoniylar Eronidagi kabi keng miqyosli emas edi. Me’morchilikda shohona ambitsiyalar mavjud emas va bu davrda mahobatli binolar kuzatilmaydi. Bu o‘ziga xos Temuriylardan avvalgi uslub davri bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi unchalik yorqin va qudratli bo‘lmagan, biroq ma’lum darajada me’morchilik va san’atning temuriylar uslubining shakllanishiga zamin hozirlagan.

Vaqt o‘tishi bilan, Turon hududida o‘rnashgan ba’zi mo‘g‘ul xonlari, sharoit bosimi ostida, Islomni qabul qila boshlashdi, biroq ular deyarli shaharsozlik rivojlanishiga va masjidu madraslar qurilishiga hissa qo‘shmadilar.

ASOSIY QISM

Mo‘g‘ullarga qaramlik davriga oid Turonda yozilgan yozma manbalar deyarli yo‘qdir. Yozma manbalarning ozligi, bu davr me’morchiligini yoritishda asosan arxeologik hamda keyingi davr mualliflari tomonidan yozilgan yozma manbalar va zamonaviy tadqiqotchilarning ishlarini keltirish mumkin. Xususan ushbu maqolani yoritishda Ibn Battuta “Sayyohatnoma”si [1], keyingi davr muallifi Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” [2] hamda tadqiqotchilardan Bobojon G‘afurov [3], O‘mirqul Qarayev [4], Lobar Asrorova [5], xorijliklardan Bernard O‘Keynlarning [6] ilmiy tadqiqotlar e’lon qilganlar.

Chig‘atoy ulusi davriga oid me’moriy inshootlar ozchilikni tashkil etadi. Buni ularning ko‘chmanchilik an’anasiga sodiq qolishga bo‘lgan urinishlari orqali ifodalash mumkin. Bu holat Oltin O‘rdada ham kuzatiladi[6:277-287]. O‘troq aholi asosan Turonning g‘arbida, jumladan Urganch, Buxoro va Samarqand shaharlarida bo‘lib, ularning ko‘pchiligi musulmonlar edi. Bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy obidalarning aksariyati o‘sha yerlarda joylashganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

XIII asr o‘rtalarida, xususan, XIV asrda sodir bo‘lgan qurilish faoliyatining kengayishi Turon shahar hayoti hamda iqtisodiyotning nisbatan o‘sganligini ko‘rsatadi[3:466]. Qurilish xarajati diniy ulamolar va zodagonlar, hatto mo‘g‘ullarning hukmron tabaqasining alohida

vakillari tomonidan moliyalashtirilgan. Biroq quruvchilar mahalliy ustalar edi. Turon me'morlari va turli amaliy san'at ustalari o'z ishlanmalarini rivojlantirganlar.

Bu davrga oid me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan, ular asosan maqbaralardan iborat. Biroq, XIII–XIV asrlardagi qurilish faqat ushbu turdagi binolar bo'lgan deb ham bo'lmaydi. Yozma manbalardan ma'lumki, madrasa va ko'shklar ham qurilgan. XIII asr o'rtalarida Buxoroda ikkita yirik madrasa, xususan mo'g'ul xoni Kebekxon Nasaf yaqinida masjid ham qurdirgan ma'lum. Qo'hna Urganchdagi balandligi 62 metrli minora XIII asr arxitekturasining noyob yodgorligi hisoblanadi, yana bir shunga o'xshash minora XX asrda boshlarida qulagan. Bu ikki minora masjidning bir qismi sanalgan. Bu davrning saqlanib qolgan eng qadimiy binosi shayx ul-olam Sayfiddin Boxarziy maqbarasi hisoblanadi. U XIV asrda to'liq ta'mirlangan, keyinchalik maqbaraning qadimiy binosi yonida mayda naqsh va sirkor koshinlar bilan bezatilgan ziyoratxona va kichik xilxona qurilgan. Maqbaraning eng oxirida ta'mirlangan qismi ziyoratgohning kirish qismi hisoblanadi. Bu qadimiy yodgorlik sodda tarzda me'morchilikning rustika (*lotincha, rusticus oddiy, dag'al qilib terilgan devor turi*) uslubida qurilgan[5:23], biroq muhtasham bino hisoblanadi. Maqbaraning o'zida kichikroq gumbaz, ziyoratxona esa, kattaroq gumbaz bilan yopilgan. 1333-yilda Ibn Batuta bu yerga kelib, uni o'z "Sayohatnoma"sida xotirlaydi[1:66]. Shayxning Buxoro yaqinida joylashgan bizgacha yetib kelgan maqbarasida xonaqoh yo'q[3:470].

Shuningdek Buxoro shahrida bunyod etilgan Bayonqulixon maqbarasi ayni shu davrga xos yodgorliklardan bo'lib, Sayfiddin Boxarziy qabri yaqinida qurilgan. Maqbara binosi mayda naqsh va sirkor koshinlar bilan bezalgan ziyoratxona va kichik xilxonadan iborat. Bayonqulixonning qabr toshi londonlik kolleksioner qo'lida saqlanadi. Sayfiddin Boxarziy maqbarasi ham shu davr yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Yodgorlikni barpo etishda me'morchilikning rustika uslubi qo'llanilgan. XIII asr oxiri – XIV asr boshlariga kelib, Xorazm shaharlari ham qayta tiklana boshlagan. Ayni shu davrga kelib, bu yerda Shayx Muxtor Valiy maqbarasi qurilgan. 1287-yilda tasavvufning yirik namoyandasi Shayx Muxtor Valiy vafot etgan va shundan keyin bu maqbara qurilishi boshlangan. Qabr ustiga gumbazli daxma qurilib, keyinchalik hujrali xonaqoh bilan kengaytirilgan. Maqbara turli o'lchamdagi g'ishtlardan qurilgan bo'lib, yog'och o'ymakorligi bilan nafis bezatilgan to'rt eshik bugungi kungacha saqlanib qolgan[5:23].

Keyingi davr manbalarida Turonning sharqiy qismidagi qurilishlar haqida alohida ma'lumotlar bor. XIV–XVI asrlarda Ashpar, Taroz, Alabur, Otbosh hamda Issiqko'l shahrida turli qal'alar, Olmaliq yaqinidagi Tug'luq Temur maqbarasi, Talas vodiysida Tikturmas, Manas gumbazi va boshqalar qurilgan. Mo'g'uliston xoni Muhammadxon (1408–1416) tomonidan ham qurilgan. Bu haqda Muhammad Haydar mirzo shunday yozadi: "Muhammadxon Chotirko'lning shimoliy qirg'og'ida toshdan rabot qurdirdi... O'sha rabotning olti eshigi, balandligi yigirma gaz (*1 gaz 105 santimetrni tashkil etadi*) bo'lgan. Darvozasidan kirsangiz, o'ng tomonida o'ttiz gazga

yaqin yo‘lak... Uning g‘arbiy chekkasida (rabot) o‘n besh gazli masjid qurilgan. Har tomondan yigirmadan ortiq eshiklar bor. Bu inshootlarning hammasi butunlay toshdan (qurilgan)”[4:148].

Chig‘atoy ulusining poytaxtlaridan bo‘lgan Olmaliqdagi koshindan ishlangan Tug‘luq Temurning maqbarasi chindan ham o‘ziga xos jozibaga ega. Tug‘luq Temur maqbarasi faqat ark va gumbazlardan qilinganligi bilan Buxoro va undan g‘arbdagi maqbaralarga o‘xshaydi. Shuni ta’kidlash joizki, Buxorodagi Bayonqulixon maqbarasidan farqli o‘laroq, Tug‘luq Temur maqbarasi islom me’morchiligi tarixchilari tomonidan deyarli e’tiborga olinmay qolmoqda. Tug‘luq Temur maqbarasi hozirgi Xitoyning Shinjon Uyg‘ur provitsiyasining shimoliy qismi Ili daryosi vodiysining yuqori qismida, Qozog‘iston bilan chegaradosh Huochen shahrida joylashgan. Bu yerlar qadimda Olmaliq shahri deb atalib, Chig‘atoyxon davrida yozgi qarorgoh (yayloq) vazifasini o‘tagan, keyinchalik Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi poytaxtiga aylangan. O‘sha shaharda joylashgan maqbara aftidan 1363-yilda Chig‘atoyxonning so‘nggi avlodi Tug‘luq Temurxon (1359–1363) vafotidan keyin qurilgan[6:278].

Maqbara to‘g‘risida tarixiy manbalarda ham so‘z borganligini aytish kerak. Xususan qurilgan yili Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidi” asarida 760/1358–1359-yilda asli iroqlik usta Sha’rbof (*Iroq tomonlarda to‘quvchini shunday atashganligini Muhammad Haydar mirzo o‘z asarida ta’kidlagan*) tomonidan bunyod etilganligi aytib o‘tilgan[2:508]. Biroq bu jumla hozirda saqlanib qolmagan[6:280]. Shuni ta’kidlash joiz maqbara uchun Muhammad Haydar mirzo forscha “borgoh” atamasini qo‘llagan. Bu atama sud (yarg‘u), sud o‘tkaziladigan chodir ma’nosini anglatgan.

G‘ishtdan qurilgan maqbaraning eni o‘n bir metr, bo‘yi o‘n olti metrga yaqin bo‘lib, kirish qismida monumental ark joylashgan. Maqbaraning o‘rtasidan shiftgacha o‘n to‘rt metrni tashkil qilib, tashqi ko‘rinishi oq suvoqli g‘ishtli gumbazdan ishlangan. Ichkarida Tug‘luq Temur va uning farzandlari qabri alohida-alohida qilib ajratib chiqilgan.

Oqlangan devorlardan tashqari, asosan, ko‘k va oq koshinlar ham ishlatilgan. Peshtog‘i yashil, ko‘k, binafsha jigarrang, qora va oq ranglardan tashkil topgan o‘zaro bog‘langan yulduzlar va gulsimon naqshlari koshinlar bilan bezalgan. Arkasida ko‘k va oq koshinlar bilan kufiy xatida “Alloh” so‘zi bitilgan. Yog‘och eshik atrofidagi bejirim qilib ishlangan koshinlar hozirda ham saqlangan bo‘lib, pastki qismi ham xuddi shunday jimjimador qilib bezatilgan. Biroq ichki qismi bezatilmagan.

Bino rejasida asosiy markaziy gumbazosti xonasidan tashqari bir qancha kichik qo‘shimcha xonachalar ko‘zda tutilgan. Pastki qismida to‘rtta yuqori qavat, ya’ni kirish eshigi qarshisida qo‘shimcha yana uchta xonacha bor. Bu xonalardan tashqari so‘fiylarning ibodati uchun mo‘ljallangan chillaxona ham barpo etilgan. Ular marhum Tug‘luq Temurga atab duoi fotihalar ado keltirganlar[6:281].

Maqbara yonida o‘ziga o‘xshash, biroq kichikroq bino bo‘lib, oddiygina g‘ishtli karniz bilan bezatilgan. Bu yordamchi binoda Tug‘luq Temur qizining qabri borligi aytiladi[6:283].

Binoning xattotlik namunasi XIV asr Chig‘atoy me’morchiligi xattotligiga xos bo‘lsa-da, u g‘ayrioddiy xususiyatga ega, ya’ni أ “alif” pastki qismining chap tomonidagi egrilik tufayli ل “lom” yoki boshqa keyingi harfga qo‘shilib ketadi. Buning boshqa misollarini, yana Shohi Zinda qoshidagi Qusam ibn Abbos ziyoratgohi hamda Bayonqulixon maqbarasida ko‘rish mumkin. Yana bir o‘ziga xos jihati “dol”ning kichraytirgan shakli bo‘lib, bu o‘xshashlik oz bo‘lsa-da, 1361-yilga oid Shohi Zindadagi Qutlug‘ og‘a maqbarasida ham uchraydi[6:286].

Turonning sharqiy qismlarida manbalarda keltirilishicha, yana ko‘plab me’moriy obidalar bo‘lgan. Bularga misol qilib 711/1311–1312-yilga taalluqli Imom Muhammad faqih Bolosog‘uniyning maqbarasi, Mavlono Sirojiddin Abu Ya’qub Yusuf Sakkokiyning daxmasi sanab o‘tish joiz[2:508-509].

Yuqoridagilardan tashqari Najmiddin Kubro, To‘rabekxonim, Muhammad Bashar maqbaralari XIV asrning nodir me’moriy yodgorliklari sirasiga kiradi. Bu davrda maqbarlar bilan birga masjid, madrasa va saroylar ham qurilgan. Qo‘hna Urganchda qurilgan qo‘sh minorali masjidning bir minorasi saqlanib qolgan.

XIV asrning 60-yillari, Turon hududlarida mo‘g‘ullar hukmronligining oxirgi yillarida Samarqandda bir necha yirik me’moriy inshootlar qad ko‘taradi. Ulardan biri 1360–1361-yillarda qurilgan Qutlug‘ Oqo maqbarasidir. O‘ziga xos uslubda qurilgan ushbu yodgorlik ba’zi manbalarda Amir Temurning xotinlaridan biri Qutlug‘ Oqo nomi bilan bog‘lashadi.

Peshtoqdagi yozuv parchalarida maqbara qurilgan vaqti 762/1361-yil deb ko‘rsatilgan. Bu yozulardan shuni anglash mumkinki, inshoot aslzodalar uchun qurilgan. Daxmada yosh bolaning qabri ham bor. Maqbaraning peshtoqi va ichkarisining ziynati o‘ymakor sirli koshin bilan ishlangan bo‘lib, uni ham Hoji Ahmad maqbarasining me’mori qurgan.

Bundan tashqari XIV asrning 30-yillariga kelib, Qusam ibn Abbos majmuasining ziyratxona qismi qaytadan quriladi. Asli XI asrga oid bo‘lgan binoning gumbazi yangidan qurilib sirli koshin bilan qoplangan. Devoriy gumbaz qo‘yilgan sakkiz ustunli qismining janubi-g‘arbiy tomonidan islimiy naqshda hijriy “753” (*milodiy 1352-yil*) sanasi jimjimador qilib yozib qo‘yilgan.

XIV asrga oid ko‘plab, ya’ni Shohizinda majmuasidagi bir qancha maqbaralar (Qussam ibn Abbos maqbarasi yonidagi ziyoratgoh, 1360-yilgi maqbara, Xoja Ahmad maqbarasi va boshqalar), Najmiddin va To‘rabekxonim maqbaralari bor. Panjakentdagi Muhammad Bashoro maqbarasi, Xo‘janddagi hozir vayron bo‘lgan Duvaxon (Tuvanbek) maqbarasi va boshqalar shular jumlasidandir. Aksariyat maqbaralar tashqi ko‘rinishi hamda me’morchiligi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi: nisbatan ko‘p bo‘lgan guruhi bir gumbazli, ikkinchi guruhi esa Sayfiddin Boxarziy maqbarasi kabi ikki gumbazli, ziyoratgohdan iborat maqbaralardir. Bu davrda gumbazsimon

peshtoq asosida bir qancha yangi loyihada maqbaralar qurilib, qo‘sh va hatto uch qavatli maqbaralar qurilganligi ko‘zga tashlanadi.

Chig‘atoy xonadoni vakillaridan Kebekxon Qarshi yaqinida “Kebekxon maqbarasi” nomi bilan tanilgan maqbara qurdirgan. Bu maqbara bugungi kungacha saqlanib qolmagan.

Bu davrning me’moriy bezaklari juda murakkab va rang-barang bo‘lib, amaliy kasblarning yanada rivojlanganidan dalolat beradi. Gil va sirlangan koshindagi gul tasvirlari binolarni bezashda keng qo‘llanilgan. Ba’zan pishiq g‘ishtga o‘yilgan naqshlar ko‘k yoki osmon rangli yaltiroq ranglar bilan qoplangan, boshqa hollarda faqat yozuv ko‘zga tashlanadi, ikkinchi darajali ichki naqshlar esa o‘ymakorlik uslubida ishlangan g‘ishtlarning ostiga qoldirilgan. Binolarni bezashda sirlangan koshinlar juda ko‘p ishlatilgan. Ba’zan ular sirlangan yuzani oltin yoki rangli tasvirlar bilan bezashgan. Devorlari oddiy, ammo oqlangan tarzda, teng oraliqlarda vertikal ravishda o‘rnatilgan sirlangan g‘ishtlar bilan bezatilgan. Devorlarning suvalgan yuzasi ba’zan juda chiroyli naqshlar bilan qoplangan. Binoni bezashning an’anaviy usuli saqlanib qolgan. Masalan, XI–XII asrlarga oid o‘ymakorliklarni (sirli koshinsiz) XIV asr me’morlik amaliyotida ham uchraydi.

Eng murakkab o‘simliksimon hamda geometrik (islimiy) tasvirlarning go‘zalligi va rangbarangligi pishiq g‘ishtga ishlangan naqshlar, sirlangan koshinlar va devor rasmlari kishi e’tiborini tortadi. Bu ajoyib namunalarni yaratgan turonlik kulollar yoxud o‘ymakorlarning zukkoligi haqiqatdan ham hayratga sazovordir.

Shuningdek muhtasham me’moriy yodgorliklarda xattotlik san’ati namunalari ham bor bo‘lib, o‘zining avvalgi yuksak saviyasini saqlanib qolganini ham aytib o‘tish joiz. Ularning birida fors tilida shuni yasagan ustaning ismi va sanasi bor: “Amali Usto Abdurrahmon; soli haftsadu bistu yak” (milodiy 1321-yil)[3:470].

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, mo‘g‘ullar bosqini Turon me’morchiligiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bosqinning ilk chog‘larida shahar taraqqiyoti bir muddat to‘xtab qoldi, biroq shunday bo‘lsa-da, ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati va qurilish sohasidagi boy tajribasi natijasi o‘laroq an’anaviy me’morchilik bilan bir qatorda yangicha yondashuvlar asosida me’moriy inshootlarni qurish ishlari asta-sekinlik bilan rivojlana bordi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning ham o‘ziga xos o‘tovlar qurish an’anasi bor edi. Mo‘g‘ullarning o‘troqlikka o‘tishi natijasida Turonda mavjud me’moriy an’analarni qabul qilgan holda yangi-yangi binolar qurish ishlariga bosh-qosh bo‘la boshladilar. XIV asrda Turonda iqtisodiyotning nisbatan o‘sganligi qurilish faoliyatining kengayishiga olib keldi. Buning natijasi o‘laroq qaramlik chog‘idan keyingi temuriylar sulolasi me’morchilik hamda san’atiga qaysidir ma’noda zamin hozirlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Н. Иброҳимов. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. Тошкент. 1993. Б. 66.

2. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Тошкент, Шарқ. 2010. 508-бет.

3. Б.Ғ. Ғафуров. Тоҷикон. Душанбе, Дониш. 2008. С. 466.

4. О.К. Караев. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. Бишкек, Кыргызстан. 1995. С. 151

5. Л.Қ. Асророва. Алоуддин Бухорий «Ҳайрату-л-фуқаҳо» асарининг Ислом манбашунослигида тутган ўрни тарих фан. фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент. 2019. 23-бет.

6. Bernard O’Kane. Chaghatai Architecture and the Tomb of Tughluq Temür at Almaliq. Brill. Muqarnas. Vol. 21. Essays in Honor of J.M. Rogers. 2004. PP. 277-287.

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

UCHTEPA BULOQMOZOR COMPLEX: HISTORICAL TOPOGRAPHY OF UCHTEPA-2 MONUMENT

Dilshod I. Tokhtasinov
PhD's student
Namangan State University
Namangan, Uzbekistan
E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Ulugbek M. Rakhmanov
Lecturer
Namangan State University
Namangan, Uzbekistan
E-mail: bek77777707@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "Uchtepa-2" monument, topography, stratigraphy, Karadarya, Khaylom.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: In this article, the main issue of archaeological research in the monument "Uchtepa-2" is to study the historical topography of ancient monuments and their stratigraphy, and the scope of this topic can be the subject of research. Therefore, the study of the historical topography of the Buloqmazar archaeological monuments and the stratigraphy of the "Uchtepa-2" object, which stood on the coast of Kaynarbulok in the village of Uchtepa, Norin district, Namangan region, was chosen as a separate research topic.

UCHTEPA BULOQMOZOR MAJMUASI: UCHTEPA-2 YODGORLIGINING TARIXIY TOPOGRAFIYASI

Dilshod I. To'xtasinov
Tayanch doktoranti
Namangan davlat universiteti
Namangan, O'zbekiston
E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Ulug'bek M. Raxmonov
o'qituvchi
Namangan davlat universiteti
Namangan, O'zbekiston
E-mail: bek77777707@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Uchtepa-2” yodgorligi, topografiya, stratigrafiya, Qoradaryo, Xaylom.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot ob’yekti sifatida olingan “Uchtepa-2” yodgorligida arxeologik izlanishlarning bosh masalasi avvalombor, antik obidalarning tarixiy topografiyasi va ularning stratigrafiyasini o‘rganish bo‘lib, ushbu mavzuning ko‘lami tadqiqot mavzusi bo‘la oladi. Shu boisdan, Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog‘idagi Qaynarbuloq sohilida qad ko‘targan Buloqmozor arxeologik yodgorliklarining tarixiy topografiyasi va “Uchtepa-2” ob’yekti stratigrafiyasining o‘rganish alohida tadqiqot mavzusi sifatida tanlab olindi.

КОМПЛЕКС УЧТЕПИНСКИЙ БУЛОКМОЗОР: ИСТОРИЧЕСКАЯ ТОПОГРАФИЯ ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2

Дилшод И. Тохтасинов
Докторант
Наманганский государственный университет
Наманган, Узбекистан
E-mail: dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

Улугбек М. Рахманов
преподаватель
Наманганский государственный университет
Наманган, Узбекистан
E-mail: bek77777707@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: памятник «Учтепа-2», топография, стратиграфия, Карадарья, Хайлом.

Аннотация: В данной статье основным вопросом археологических исследований памятника «Учтепа-2» является изучение исторической топографии древних памятников и их стратиграфии, а объем данной темы может быть предметом исследования. Поэтому изучение исторической топографии Булокмазарских археологических памятников и стратиграфии объекта «Учтепа-2», стоявшего на побережье Кайнарбулока в селе Учтепа Норинского района Наманганской области, было выбрано в качестве отдельного исследования. тема.

KIRISH

Uchtepa arxeologik yodgorliklar majmuasi uchta tepaliklardan iborat. Ularning birinchisi qo‘shaloq Qaynarbuloq sohilida joylashgan “Uchtepa- 1”, undan 500 metrlar chamasi g‘arbda

joylashgan “Uchtepa-2”, ularga tutash joylashgan uchinchisi Aminjon otaning charbog‘ida qisman saqlanib qolgan pastkam tepachalar bo‘lib, ularga shartli ravishda “Uchtepa-3” nomi berildi.

ASOSIY QISM

Dastlabki izlanishlardan ma’lum bo‘lishicha, “Uchtepa-3” tepaliklari aslida qadimgi shaharning shahristoni va ko‘handiz xarobalari joylashgan maydoni bo‘lib, mahalliy aholining tomorqa hovli-joylariga aylanib ketgan. Bu haqda tomorqa uchastkalarini qurish vaqtida uchrab turadigan arxeologik materiallarning yoyilish geografiyasi ham guvohlik beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Uchtepa-3”dan sharqda, kunchiqar tomonda qad ko‘targan eng baland tepalik – “Uchtepa 2” esa qandaydir hukmdorning mozor-qo‘rg‘oni bo‘lishi mumkin, degan fikrga kelindi. Chunki, uning tepasida hech qanday arxeologik materialga duch kelinmadi.

O‘rtasi hovuzsimon cho‘kkan “Uchtepa-1” esa xukmdorning yozgi rezidensiyasini eslatadi, shuning uchun “Uchtepa-2” ob’yektida arxeologik qazishmalar olib borishga ahd qilindi.

Ushbu qadimgi shahar xarobalarining izlari taxminan 38–40 gektarli maydonni egallagan. Avvalambor, Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklarining joylashish o‘rni bilan tanishgach, qo‘shaloq Qaynarbuloq suv yo‘nalishini kuzatish bilan shug‘ullanildi. Olib borilgan tarixiy topografik kuzatuvlarga ko‘ra, qo‘shaloq Qaynarbuloq suvlari o‘ziga o‘zan yorib, janubi-g‘arbga tomon qir yoqalab oqadi va bir necha kilometrdan so‘ng Qoradaryoga qo‘shilib ketadi. Mana shu masofada qir osti bo‘ylab bir necha buloqlar otilib chiqqan, har bir buloqqa yaqin qir ustida antik va ilk o‘rta asrlar davri dehqonzodalarining qasr hamda ko‘shklari qad ko‘targan. Demak, Xaylom shahrining ushbu tomoni uning janubiy chegarasini tashkil etgan. Uning sharqiy chegarasi esa Uchtepa-Buloqmozor manzilidagi qo‘shaloq Qaynarbuloq sohilida qad ko‘targan “Uchtepa-1” yodgorligi bo‘lib, uning shimol tomonidan qadimda mahalliy ahamiyatga molik savdo karvon yo‘li o‘tgan. Ushbu savdo karvon yo‘li bo‘ylab parallel chuqur va keng kanal o‘tgan. Kanal boshi Qorateri qishlog‘idan boshlanib, unga suv Qoradaryodan olingan. Mahalliy savdo karvon yo‘li bilan parallel qazilgan kanal Xaylomning shimoliy daxalarini oralab, uning g‘arbiy chegarasiga yetganda, shimoli-g‘arbga burilib, qo‘shni Cho‘ja qishlog‘i tomon yo‘naltirilib, qishloq ahlini suv bilan ta’minlagan. Shu boisdan hozirgacha ushbu kanal hozirgacha “Cho‘ja arig‘i” deb ataladi.

Savdo karvon yo‘li kanal bilan parallel Cho‘ja qishlog‘ini oralab, Norin daryosi chop sahilida qadimda tashkil topgan Qurbon ota qabristoniga yetgach (Mozorot yaqinida shu nom ostida antik va o‘rta asrlarga tegishli qadimda qal’a barpo etilgan), Quyi Cho‘ja mahallalarini oralab, Qurbon orolga o‘tib ketgan. Xaylam shahrining g‘arbiy tomoni esa Past mahalla arig‘i bilan chegaralanadi. Demak, ikki daryo (Norin va Qoradaryo) oralig‘ida joylashgan Xaylom shahrining chor atrof chegaralari aniqlanib, ushbu kenglik maydoni to 1940- yillargacha o‘z tarixiy topografiyasi shaklini saqlab qolgan edi.

Mustaqillik yillarida Xaylom shahrining chor atrofi o‘zlashtirilib, endilikda u o‘zining tarixiy qiyofasini yo‘qotdi. Uning hududiy doirasidagi dehqonzoda qasr va qal’alari, ariq hamda zavurlar, kanallar, masjid va madrasalar hamda savdo karvon yo‘llaridan nomu-nishon qolmadi.

Akademik A. Asqarovning kundaliklarida yozilishicha, 1963- yilning bahorida unga Krasnoyarsk GES qurilishi munosabati bilan ustozi, prof. M. P. Gryaznovning taklifiga ko‘ra, Yenisey daryosi suvi ostida qolib ketishi mumkin bo‘lgan Novosyolova ovuli (posyolkasi)da arxeologik otryadga rahbarlik qilish vazifasi yuklatiladi. Uning baxti chopib, o‘rganayotgan mozor-qo‘rg‘onlarning to‘ng‘ichi bronza davri (mil. avvalgi II ming yillik o‘rtalariga tegishli) chorvador qabilalar sardorining qabri bo‘lib chiqadi. Qabr qirrasi bilan tiklangan plita toshlardan qurilgan, umumiy maydoni 5 kvadrat metrni tashkil etgan tosh yashik bo‘lib, uning ustki plita toshi bus-butun, yog‘och tobutda yotgan skeletning chor atrofi sopol idishlardan tashqari oltin va kumushdan yasalgan san’at namunalari bilan to‘la bo‘lgan.

Odatda, bunday qabila sardorlarining qabrlari aksariyat hollarda qadimda mozor o‘g‘rilari tomonidan o‘g‘irlangan bo‘ladi. O‘g‘irlangan qabrning yopinchik plita toshi esa parchalangan bo‘ladi, ammo bunday holat Novosyolovada ko‘zga tashlanmaydi.

Xushyor yosh arxeolog otryad a’zolarining barchasini tushki ovqatga lagerga jo‘natib, qazishma maydonida yolg‘iz o‘zi qoladi. Kirka yordamida yopinchiq plita toshining chekkasidan biroz yuqoriga ko‘targanda, uning ostida, qabr ichida chang bosgan, oltindan ishlangan ashyoviy dalillar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Olim darhol qabr ustiga bir kishilik palatka o‘rnatib, uning chor atrofiga vatmanga katta harflar bilan “Chuma” so‘zini bitib, maxsus kod orqali teg‘ishli joyga xabar yuboradi. “Chuma” yozuvi nafaqat otryad a’zolari, balki har kuni ishdan so‘ng tomoshaga keluvchi quruvchi mahbuslarni ham dahshatga soladi. Yemak keltiruvchi oshpazdan boshqa uch kun davomida “maxsus masullar” kelmaguncha hech kim “Chuma maydoni”ga yaqinlashmaydi.

Nihoyat, qabrdagi boyliq to‘rtta choy yashiklarga joylashtirilib, Sverdlovskiy shahriga A. Asqarov ishtirokida olib ketiladi va topilmalar belgilangan tartibda bir oy davomida davlatga topshiriladi.

“Sovet davri qonunchiligiga ko‘ra, topilmalarning xomashyo sifatida qimmatidan 20 foizi kashfiyotchiga mukofot sifatida berilar edi. O‘shanda 5 ming rubl sohibi bo‘ldim, unga 3ta “Pobeda” markali yengil avtomashina sotib olish mumkin bo‘lgan. Shu boisdan 1963- yilning kuzida foydalanilmay kelingan uch yillik mehnat ta’tiliga chiqib, uni Uchtepada o‘tkazishga qaror qilgan edim” deb xotirlaydi akademik A. Asqarov.

Ta’til vaqtida qishloqdoshlari yordamida Uchtepadagi tepalardan birinchisi, ya’ni “Uchtepa-1”da 2x3 m. maydonda shurf qaziydi. Qazishma jarayonida yodgorlikning quyi madaniy qatlamidan antik davrga oid kulolchilik charxida ishlangan, qizil angobli o‘ta nafis sopol parchalari va bir qancha arxeologik topilmalar chiqa boshlaydi (Rasm....). O‘sha vaqtda moliyaviy

imkoniyatning yo‘qligi va vaqtning tig‘izligidan shurf 2,5 metrlar chamasi chuqurlikkacha qazilib, materikkacha yetkazilmay, arxeologik qazishma ishlari to‘xtatiladi. 2024- yilda to‘rt davlat (O‘zbekiston, Xitoy, Qirg‘iziston va Tojikiston) arxeologlarining Farg‘ona koridorini hamkorlikda o‘rganish uchun olib borgan stratigrafik izlanishlariga ko‘ra, Uchtepa-1 arxeologik yodgorligida madaniy qatlamning qalinligi 2,70 sm ekanligi aniqlandi.

Uchtepa-Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasida to‘laqonli arxeologik izlanishlar olib borish A. Asqarovga shogirdlari bilan birgalikda mustaqillik davrida nasib etdi. Ungacha akademik A. Asqarov uzoq yillar arxeologiya fani yo‘nalishi bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida band bo‘lib, o‘zi tug‘ilib o‘sgan Uchtepa qishlog‘idagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganishga vaqt topa olmaydi.

2017- yilda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hamda mamlakatni boshqaruv tizimida keskin tub o‘zgarishlar yuz berdi, ilm-fanga e’tibor kuchaydi. Arxeologiya fanining shaxsan Respublika Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida sohada yangi tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Uchtepa qishlog‘idagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish ishlari qayta jonlandi. Sohani rivojlantirishda tinib-tinchimas A. Asqarov Respublika innovasion rivojlanish vazirligining 2019-2020- yillar uchun e’lon qilingan tanlovda “Uchtepa arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga ilmiy tayyorlash” mavzusida ilmiy-amaliy loyiha yutib oladi [1. – B. 18].

2018- yildagi yozgi ta’til vaqtida dissertatsiya muallifi ustozi, akademik A. Asqarov boshchiligida Uchtepa arxeologiya yodgorliklari majmuasining o‘rganishga kirishadi. To‘plangan ma’lumotlarga ko‘ra, Uchtepa-Buloqmozor manzilida joylashgan ulkan Qaynarbuloqdan kunbotish tomonida qadimgi shahar xarobalari joylashganligi haqida dastlabki ma’lumotlar olindi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Uchtepa-3” tepaliklari aslida qadimgi shaharning shahristoni va ko‘handiz xarobalari joylashgan maydon bo‘lib, hozirgi kunda mahalliy aholining tomorqa hovli-joylariga aylanib ketgan. Ushbu qadimgi shahar xarobalaridan sharqda, kunchiqar tomonda qad ko‘targan baland tepalik “Uchtepa-2” deb nomlanib, dastlab bu yer mahalliy hukmdorning mozor-qo‘rg‘oni bo‘lishi mumkin, degan fikrga kelindi. Chunki, uning tepasida hech bir arxeologik material uchratilmadi.

A. Asqarovning ta’kidlashicha, odatda, islom dini qabul qilinishidan avvalgi davrlarda ko‘milgan qabrlarda vafot etgan kishi kim bo‘lishidan qat’iy nazar, tiriklik chog‘ida nima bilan shug‘ullangan bo‘lsa, uning qabriga kasbi-koriga tegishli mehnat qurollari, shaxsiy buyumlari, ayollar qabridan zebu-ziynatlar, urug‘doshlari tomonidan keltirilgan sopol idishlarda ovqatlar bilan qo‘shib ko‘mish urf-odat bo‘lgan [2. – C. 172].Agar hukmdor yoki qabila sardori vafot etsa, uning boyligidan bir qismini ham jasadga qo‘shib ko‘mish odati mavjud bo‘lgan. Hukmdorning

qabri oddiy odamlarnikidan farqli o‘laroq, mahobatli baland tepalik qiyofasida bo‘lgan. Hukmdor dafn marosimida uning qo‘l ostidagi jamoa, urug‘, qabila, barcha aholi vakillari qatnashgan.

Ma’lumki, Yevroosiyo dashtlarining Paziriq, Bashadar, Salbik, Arjan kabi mozor-qo‘rg‘onlari ichki tuzilishida aniqlanganidek, hukmdor vafot etsa, diametri 2 metrdan kam bo‘lmagan daraxt tanasidan koloda, ya’ni tobut yasalgan. Uning ichiga xushbo‘y dorivor o‘simliklarning mayda shoxcha va barglari yanchib to‘shalgan. Murda qorni yorilib, uning ichki organlari dorivor o‘simliklar sharbati bilan yuvilib, qorniga sariq sabzi to‘ppasi to‘lg‘izilib tiqilgan, so‘ngra murda bayramona kiyimda, tobutga yotqizilgan [3. – C. 28].

Sibir sharoitida g‘o‘la yog‘ochlar (O‘rta Osiyoda paxsa yoki xom g‘isht)dan maxsus qabr qazilib, uning qoq o‘rtasiga murda yotqizilgan koloda (tobut) joylashtirilgan, xonaning qolgan qismiga unga atalgan ashyoviy artefaktlar joylashtirilgan. Xona tomi esa zich qilib terilgan yog‘och xarilar bilan yopilgan. Xarilardan tashkil topgan qabrxona tomi ustiga qalin qilib daraxt shohlari bosilib, so‘ng uning ustiga qalin qilib, har xil katta-kichiklikdagi toshlar yotqizilib, toshlar uyumidan iborat toshtepalik hosil qilingan. So‘ngra tosh tepalik ustiga qalin qilib tuproq bosilgan, shunday qilib, hukmdor qabri baland tepa qo‘rg‘on sifatida qad ko‘targan [4. – C. 64].

Shu bois, uning ustki tuproq qismida arxeologik ashyoviy dalillar uchramaydi. Agar mozor-qo‘rg‘on boyligi qachonlardir qabr o‘g‘rilari tomonidan o‘g‘irlangan bo‘lsa, mozor-qo‘rg‘onning qoq o‘rta qismi cho‘kkan bo‘ladi. Bu borada Respublika hududida mozor-qo‘rg‘onlarni tadqiq etish jarayonida arxeolog mutaxassislar ko‘plab shunday holatlarga duch kelgan.

Odatda, patriarxal urug‘ jamoasi jamiyatning asosiy kuchiga, ijtimoiy lideriga aylangan kezlarda “hukmdor qabrining oyoq tomoniga eng yosh xotini hamda uning xizmatidagi kanizaklarga zaxar ichirib, o‘ldirib, qo‘shib ko‘miladi. Ayol qabridan uning oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan zebu-ziynatlari, oltindan yasalgan poytun aravasi, kiyimlariga tikib chiqilgan oltin taqinchoklar qo‘shib ko‘milgan”. Bunday malika qo‘rg‘onlarini Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Ko‘ktepa yodgorligida “Sak malikasi” nomi bilan ochib o‘rganilgan mozor-qo‘rg‘onda analogiya sifatida ko‘rish mumkin [5. – C. 108].

“Agar hukmdorga tiriklik chog‘ida bir necha qabila sardorlari tobe bo‘lsa, ularning har biri bittadan otni shohona yasatib, hukmdor qabri joylashgan tepalikning aylanasi bo‘ylab maxsus xonalarga o‘ldirib ko‘mganlar, bu ularning hukmdorga tobeligidan dalolat beradi. Xuddi shunday qabr-qo‘rg‘on A. Asqarovning ilmiy rahbari M. P. Gryaznov tomonidan Xakasiyada ochib o‘rganilgan. U Arjan nomli mozor-qo‘rg‘onini ochganda, hukmdor qabri tepaligi ostidan 72 ta ot qabrlari aniqlangan [6. – C. 16].Yodgorlikda topilgan boylik juda boy artefaktlarga ega bo‘lib, M. P. Gryaznov birgina “Arjan” kitobi uchun davlat laureati mukofotiga sazovar bo‘ladi.

Akademik A. Asqarovning xotiralarida eslangan voqealardan kelib chiqqan holda “Uchtepa-2” ob’yekti ham ana shunday mozor-qo‘rg‘on bo‘lishi mumkin, degan faraz ilgari surildi.

Yuqoridagilarni inobatga olinib, “Uchtepa-2” yodgorligida qazishma ishlari boshlab yuborildi. Biroq, Uchtepa-2 ob’yekti xukmdor mozor-qo‘rg‘oni emas, balki antik va ilk o‘rta asrlarga tegishli zardushtiylik ibodatxonasi bo‘lib chiqdi.

Keyingi vaqtlarda unga shimoliy tomondan tig‘iz qilib hovli-joylar qurilib, chiqindixonaga aylantirib yuborilgan, janubiy-sharqiy tomondan esa zamonaviy qabrlar qo‘yilib, yodgorlikka katta shikast yetkazilgan. Bizgacha saqlangan tepa maydoni taxminan 0,50 ga. Qazishma jarayonida ochilgan me’moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar assortimentiga ko‘ra, A. Asqarov ushbu tepalikni qadimgi shahar aholisining “Quyoshga sig‘inadigan muqaddas ibodatxona”si bo‘lishi kerak, degan fikrni bildirdi. Bu Farg‘ona vodiysida bunday ko‘rinishga ega bo‘lgan ilk bor aniqlanayotgan yodgorlik hisoblanadi.

XULOSA

Arxeologik topilmalar tahliliga ko‘ra, ibodatxonaga mil. avv. 2300–2000 yillar oralig‘ida asos solingan. Arablar bosqini davrida ibodatxona vayron etilib, keyin qayta tiklanmagan. Hozirgi kunda “Uchtepa-2” yodgorligi milodiy VIII asr oxirlaridan shakllana boshlagan va hozirgacha davom etib kelayotgan qishloq qabristoni bilan qo‘shilib ketgan. Hatto, keyingi yillarda uning quyoshga o‘ngay tomonida qabrlar qo‘yilishi davom etgan. Yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlangach, qishloq oqsoqollarining roziligi olinib, bu yerda zamonaviy qabrlar qo‘yilishiga chek qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Асқаров А. Ички ва халқаро туризмнинг “Учтепа Булоқмозор” мажмуси археологик ёдгорликларини ўрганиш ва уларни “Мовий осмон” остидаги музейга айлантириш. Давлат илмий-техника дастурлари доирасида бажарилиши 2019-2020 йилларга мўлжалланган амалий лойиҳа. – Тошкент, 2019.

2. Грязнов М. П. Первый Пазырыкский курган. – Л.: Гос. Эрмитаж, 1950. – С. 92; Ўша муаллиф: Аржан. Царский курган раннескифского времени. – Л., 1980. – С. 64.

3. Горбунова Н. Г. Могльник Хангиз II в Фергане // АСГЭ. Вып. 31. – Санкт-Петербург. 1991. – С. 108–120.

4. Грязнов М. П. Аржан. Царский курган раннескифского времени... – С. 16.

5. Исамиддинов М., Рапен К., Грене Ф. Раскопки на городище Коктепа // АИ-2000. Вып. 1. – Самарқад, 2001. – С. 79–86.

6. Грязнов М. П. Аржан. Царский курган раннескифского времени... – С. 64.

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

GENDER ASPECT OF THE UNICEF POSITIVE PARENTING PROGRAM “1000 AND ONE DAY”

F. A. Akhmedshina
Doctor of Historical Sciences, Professor
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender aspect, UNICEF, positive parenting, gender equality, gender roles, stereotypes, involvement of fathers, support for women, inclusive family environment, equal access to resources.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: The article considers the critical importance of the first 1000 days of a child's life, starting from conception and ending with the second year of life, as a basis for his further physical, cognitive and emotional development. The key factors affecting health and well-being during this period are analyzed, including nutrition, medical care, emotional support and early learning. The long-term consequences of insufficient care and support during this period for human health and socio-economic potential are also considered. The study highlights the need for a comprehensive approach to support mothers and children in the first 1,000 days to ensure an optimal start in life.

UNICEFNING "1000 VA BIR KUN" IJOBIY OTA-ONALAR DASTURINING GENDER ASPEKTI

F. A. Axmedshina
Tarix fanlari doktori, professor
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: gender jihati, UNICEF, ijobiy ota-onalik, gender tengligi, gender rollari, stereotiplar, otalarning ishtiroki, ayollarni qo'llab-quvvatlash, inklyuziv oilaviy muhit, resurslardan teng foydalanish.

Annotatsiya: Maqolada bolaning hayotining birinchi 1000 kunining muhim ahamiyati, kontseptsiyadan boshlab, hayotning ikkinchi yiligacha, uning keyingi jismoniy, kognitiv va hissiy rivojlanishi uchun asos sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu davrda sog'liq va farovonlikka ta'sir qiluvchi asosiy omillar, jumladan ovqatlanish, sog'liqni saqlash, hissiy

qo'llab-quvvatlash va erta o'rganish tahlil qilinadi. Ushbu davrda etarlicha g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlashning inson salomatligi va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga uzoq muddatli ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot hayotning optimal boshlanishini ta'minlash uchun dastlabki 1000 kun ichida onalar va bolalarni qo'llab-quvvatlashga kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

ГЕНДЕРНЫЙ АСПЕКТ ПРОГРАММЫ ЮНИСЕФ ПОЗИТИВНОГО РОДИТЕЛЬСТВА «1000 И ОДИН ДЕНЬ»

Ф. А. Ахмедшина
доктор исторических наук, профессор
Джизакский государственный педагогический университет
Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендерный аспект, ЮНИСЕФ, позитивное родительство, равенство полов, гендерные роли, стереотипы, вовлечение отцов, поддержка женщин, инклюзивная семейная среда, равный доступ к ресурсам.

Аннотация: Статья рассматривает критическую важность первых 1000 дней жизни ребенка, начиная с зачатия и заканчивая вторым годом жизни, как основу для его дальнейшего физического, когнитивного и эмоционального развития. Анализируются ключевые факторы, влияющие на здоровье и благополучие в этот период, включая питание, медицинское обслуживание, эмоциональную поддержку и раннее обучение. Рассматриваются также долгосрочные последствия недостаточной заботы и поддержки в этот период для здоровья и социально-экономического потенциала человека. Исследование подчеркивает необходимость комплексного подхода к поддержке матерей и детей в первые 1000 дней для обеспечения оптимального старта в жизни.

ВВЕДЕНИЕ

ЮНИСЕФ, Детский фонд ООН, ведет активную деятельность по улучшению условий жизни детей по всему миру. Одной из ключевых программ является программа позитивного родительства «1000 и один день», которая фокусируется на поддержке родителей в первые годы жизни их детей. Важной составляющей этой программы является гендерный аспект, направленный на создание равных возможностей для всех детей и поддержку обоих родителей в воспитании.

Гендерный аспект программы ЮНИСЕФ«1000 и один день» включает, в первую очередь, осознание и устранение традиционных гендерных стереотипов, касающихся о

разной роли матерей и отцов в воспитании детей с первых минут их жизни, о том, что забота о детях - исключительно женская обязанность. Программа направлена на поддержку активного участия, как матерей, так и отцов в воспитании детей, созданию благоприятных условий для активного вовлечения отцов в процесс воспитания с целью, создания гендерно-чувствительной среды и поощрения равенства ролей по воспитанию и поэтому должны разделяться равномерно между матерью и отцом, вне зависимости от пола.

Ныне стали популярны понятияе «позитивное» или «осознанное» родительство, которое основывается на исследования последних 20 лет. Благодаря исследованиям Детского фонда ООН ЮНИСЕФ по программе позитивного родительства «1000 и один день» выяснилось, что в течение этого времени мозг младенцев развивается с невиданной скоростью и оказывает глубокое влияние на будущее ребенка - на развитие его мозга, его здоровье, его счастье, его способность учиться в школе, его благополучие и даже на количество денег, которые он может зарабатывать, став взрослым. На этом этапе становления жизни мозг ребенка может формировать более 1 миллиона новых связей каждую секунду - темп, который больше никогда не повторится. Оказалось правильное питание и уход, теплый и нежный контакт родителей или опекунов с ребенком жизненно необходимы для развития мозга ребенка в первые 1000 дней жизни [4].

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

ЮНИСЕФ запустила программу "Воспитание детей в ЮНИСЕФ", объединив ведущих мировых экспертов в области детства, чтобы помочь родителям максимально использовать первые 1000 дней для воспитания здоровых и счастливых детей. Кампания ЮНИСЕФ "Ранние моменты имеют значение" направлена на повышение осведомленности о важности здорового развития мозга в первые годы жизни, увеличение инвестиций правительств и предприятий в программы, политику и услуги по развитию детей раннего возраста, а также на поддержку родителей и лиц, осуществляющих уход, в том, чтобы дать их детям наилучший старт в жизни [8]. ЮНИСЕФ призывает правительства и компании инвестировать в политику, ориентированную на семью, чтобы родители и лица, осуществляющие уход, получали время и поддержку, необходимые им для воспитания счастливых и здоровых детей. Для этого гарантировать, что женщины не подвергаются дискриминации в отношении условий трудоустройства, заработной платы или возможностей карьерного роста по признаку беременности, материнства или семейных обязанностей, представить оплачиваемый отпуск по уходу за ребенком продолжительностью не менее шести месяцев, обеспечить грудное вскармливание на работе с помощью оплачиваемых перерывов для грудного вскармливания на рабочем месте,

поддерживать доступ к недорогому и качественному уходу за детьми, чтобы дети имели доступ к дошкольному образованию и могли развивать навыки, необходимые им для полной реализации своего потенциала [2], а также представить детские гранты для поддержки всех семей с детьми для оказания помощи родителям [8].

Важным направлением в политике ЮНИСЕФ является создание условий для баланса между работой и семьей и перехода от материнского отпуска по беременности и родам к отпуску отцов и матери по уходу за ребенком с целью повышения семейного благополучия. Также важным считается создание более благоприятных условий труда и комнаты для кормления грудью, привлечение внимания к роли отца наряду с матерью в развитии детей с первых дней жизни. Отпуск по уходу за ребенком в той или иной форме был доступен в качестве законного права или государственной программы в течение многих лет. Исследования показали, что отпуск по уходу за ребенком улучшает связи между отцами и детьми, а также помогает уменьшить разрыв в заработной плате, с которым сталкиваются женщины после ухода в декретный отпуск. Согласно исследованию, проведенному в 2020 году, отпуск по уходу за ребенком приводит к улучшению состояния здоровья детей. В отчете Гарварда цитируются исследования, показывающие, что оплачиваемый отпуск по беременности и родам "облегчает грудное вскармливание и снижает риск заражения, младенческой смертности [6].

Изучив политику отпусков в двадцати одной европейской стране, описав продолжительность, оплату и возможность передачи существующих схем отпусков, Кармен Кастро-Гарсия создала индекс равенства отпусков по уходу за ребенком (PLEI), который может предсказать участие каждого родителя в воспитании своих детей в зависимости от их пола и существующей политики в отношении отпуска по уходу за ребенком. Политика, обеспечивающая равный, непередаваемый и хорошо оплачиваемый отпуск для каждого родителя (которого на данный момент нет ни в одной стране), наилучшим образом будет способствовать равному участию мужчин и женщин в уходе за детьми. В 2014 году Европейский парламент пришел к выводу, что, поощряя использование отцами отпуска по уходу за ребенком, правительства могут стремиться содействовать более гендерно равному распределению работы по уходу за ребенком, поддерживать возвращение матерей на рынок труда, выравнивать обстоятельства, при которых женщины и мужчины выходят на рынок труда, и улучшать баланс между работой и личной жизнью в семьях. Исследование, проведенное в Экономическом журнале в 2020 году, показало, что реформы в Исландии, стимулирующие отцов брать отпуск по уходу за ребенком, снизили вероятность развода родителей [6].

Компании начинают предлагать оплачиваемый отпуск по уходу за ребенком видя в этом причину снижение затрат на текучесть кадров, повышение производительности работников. Журнал Working Mother ежегодно публикует список 100 лучших компаний для работающих матерей [6].

Как показывают исследования социологов и экономистов отпуск для отцов улучшает экономическое положение женщин, помогает в борьбе с дискриминацией со стороны работодателей. Норвежское исследование в 90-х показало, что оплачиваемый отпуск и квоты для отцов способствуют тому, что родившие женщины раньше возвращаются на работу и тем самым увеличивают трудовой стаж и заработок. Экономистка Кармен Кастро-Гарсия разработала специальный индекс, который может предсказать участие каждого родителя в воспитании своих детей в зависимости от их пола и существующей политики в отношении декретных отпусков. Согласно её исследованию, лучше всего способствует равному участию мужчин и женщин в уходе за детьми политика, которая обеспечивает: отпуск равный во времени для обоих родителей, хорошо оплачиваемый отпуск, непередаваемый отпуск для каждого родителя. Однако пока ни в одной стране мира нет такого законодательства, которое обеспечивало бы отпуск, подходящий под эти критерии [3].

Как показывает новый глобальный анализ, проведенный ЮНИСЕФ, почти две трети детей годовалого возраста (около 90 миллионов) проживают в странах, в которых закон не предоставляет отцам права отпуска по отцовству, а в 92 государствах, в том числе, в отличающихся высокой рождаемостью, таких как Индия и Нигерия, отсутствует национальная политика, которая обеспечила бы отцам отпуск, необходимый, чтобы проводить время с их новорожденными малышами [9]. Только в 42 странах существует национальная политика, обеспечивающая родителям и лицам, осуществляющим уход, время и ресурсы (шесть месяцев оплачиваемого отпуска по беременности и родам и четыре недели оплачиваемого отпуска по уходу за отцом) для ухода за своими детьми [7].

Исследователи подчеркивают значение доступных услуг по уходу за детьми и семьей могут позволить женщинам вносить значительный вклад в развитие своих семей, экономики и бизнеса, а также стать ключом к сокращению гендерного дисбаланса и поощрению большей совместной ответственности за благополучие семье, как женщин так и мужчин. Перераспределяя работу по дому и предоставляя отцам возможность разделять родительские обязанности, женщины с меньшей вероятностью выпадают из рабочей силы, тем самым сокращая гендерный разрыв в оплате труда, повышая гендерный паритет и экономическую производительность.

В этом важное значение имеет представление отпуска для ухода за ребёнком, во время которого мать или отец могут не работать и ухаживать за младенцем, не теряя своё рабочее место и получать соответствующие выплаты. Если раньше такую возможность могли получить только женщины, то с 70-х годов в скандинавских странах начали вводить отпуска для ухода за ребёнком и мужчинам. В 1974 году Швеция первой в мире предоставила обоим родителям отпуск по уходу за ребенком. Если с 1978 по 1994 год очень немногие отцы воспользовались возможностью брать отпуск по уходу за ребёнком, то уже в 1997 году более 70 процентов отцов воспользовались правом на оплачиваемый отпуск по уходу за ребёнком. В 1995 году, следуя примеру Норвегии, в стране ввели «отцовские квоты» на 30 дней, а с 2024 года этот период достигает уже 90 дней. По статистике, ныне 30% оплачиваемых отпусков по уходу за ребёнком в стране берут именно отцы [3].

Большинство родителей в Швеции предпочитают отдавать своих детей в детский сад и возвращаться к работе после отпуска по уходу за ребенком. Для этого созданы благоприятные условия для родителей с маленькими детьми. Так, в торговых центров и библиотек есть комнаты для кормления младенцев и пеленальные столики в общих ванных комнатах. В библиотеках также предлагаются детские книги на разных языках и часто проводятся такие мероприятия, как рисование, поделки и пение в одиночестве, в большинстве ресторанов предоставляются стульчики для кормления младенцев и малышей ясельного возраста, а во многих туалетах также есть столики для пеленания [1].

Также поступили Исландия, Дания, Норвегия и Финляндия. Чтобы поощрить мужчин принимать более активное участие в уходе за новорождёнными и младенцами были введены особые «отцовские квоты» — дни оплачиваемого отпуска, которые отец не мог передать матери. В Норвегии отцы получили право брать отпуск уходу за ребёнком в 1978 году. А в 1993 году в стране ввели четырёхнедельную квоту на отцовство. Затем её длительность варьировалась от 10 до 16 недель. Если отец не воспользуется квотой в первый год жизни своего ребёнка, то она сгорает. Передать это время матери нельзя. Оба родителя могут быть с ребёнком во время отпуска отца. Кроме квоты, родителям полагается 18 недель оплачиваемого отпуска, которые они могут разделить между собой. В Исландии отпуск по уходу за ребёнком у отцов ввели в 1981 году. Предоставление одинаковых льгот матерям и отцам в связи с отпуском по беременности и отцовству стал важным шагом на пути к гендерному равенству. С 1 января 2021 года в Исландии действует новый закон, согласно которому отпуск по уходу за ребёнком может длиться до 12 месяцев. Каждый родитель получает отпуск на 6 месяцев, только один месяц они могут передать друг другу. Право на отпуск по уходу за ребёнком истекает, когда ребёнку исполняется 24 месяца [5]. В Финляндии по закону отцы могут уходить в оплачиваемый отпуск с 1978 года. После

рождения ребёнка мужчины могут взять отпуск на 54 рабочих дня. Когда у женщины заканчивается отпуск по беременности и родам, оба родители имеют право уйти в отпуск по уходу за ребёнком на 164 дня каждый. С вступлением в силу реформы отпуска по семейным обстоятельствам 1 августа 2022 года прежнее пособие по беременности и родам и пособие по установлению отцовства были заменены на родительское пособие за 320 рабочих дней, которое начинается после отпуска по беременности и родам. Отпуск по уходу за ребенком может взять как мать, так и отец [10]. В Дании двухнедельный отцовский отпуск, который даётся сразу после рождения ребенка, был введён в 1984 году. После рождения ребёнка отец может одновременно с матерью оставаться с ребёнком ещё 30 дней. Потом отец имеет право на 32 недели отпуска по уходу за ребёнком. Он может использовать их за один раз или чередовать с женой, у которой тоже есть 32 недели [3]. В Германии отцы могут получить пособий, достигающих 70–100% от их обычной заработной платы,с продолжительностью отпуска от 12 до 14 месяцев, что способствует более активному участию отцов в воспитании детей, поддерживает более равноправное распределение родительских обязанностей между мужчинами и женщинами, созданию более гармоничных семейных отношений [3a]. Однако, по данным исследования Стокгольмского университета и совместной работе социологов из США и Швеции, отцы всё ещё реже матерей уходят в долгосрочные декреты. Причиной отказа от отпуска по уходу за ребёнком зачастую становятся гендерные стереотипы и негативное отношение на рабочем месте [3]. Исследование, проведенное в Норвегии, показало, что будущие отцы на 11 процентов чаще брали отпуск по уходу за ребенком, если они были свидетелями того, как их коллеги пользовались этим пособием [6].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Многочисленные данные международных авторитетных исследований показывают, что активное участие отцов в декретных отпусках способствует более равноправному распределению родительских обязанностей, возвращению матерей на рынок труда и снижению уровня дискриминации. Несмотря на то, что в большинстве стран ещё не существует полностью равноправных отпусков для родителей, уже наблюдаются положительные изменения в странах, внедривших такие реформы. Политики, направленные на обеспечение равных, непередаваемых и хорошо оплачиваемых отпусков для обоих родителей, являются важными для создания инклюзивной и поддерживающей среды, которая способствует благополучию детей и всех членов семьи.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Баланс между работой и личной жизнью https://sweden.se/work-business/working-in-sweden/work-life-balance

2. 10 способов, с помощью которых компании могут быть более ориентированы на семью https://www.unicef.org/early-childhood-development/10-ways-companies-can-be-more-family-friendly

3. Мужские декреты: как они устроены и почему помогают добиться гендерного равенства https://burninghut.ru/dekretnyj-otpusk-dlya-muzhchin/

4. За Мужской декрет: Европейское баловство или новый тренд? https://dzen.ru/a/ZVeIHuMUY0xTlpeS

5. О ГВ, играх на полу, позитивном родительстве и профилактике ожирения рассказала эксперт ЮНИСЕФ https://toppress.kz/article/o-gv-igrah-na-polu-pozitivnom-roditelstve-i-profilaktike-ozhireniya-rasskazala-ekspert-yunisef

6. Отпуск по беременности и родам в исландии https://work.iceland.is/living/maternity-and-paternity-leave/

7. Отпуск по уходу за ребенком https://en.wikipedia.org/wiki/Parental_leave

8. Перепроектирование рабочего места с учетом потребностей семьи: что могут сделать правительства и предприятия https://www.unicef.org/early-childhood-development/family-friendly-policies

9. Ранние моменты имеют значение https://www.unicef.org/early-moments

10. С первых дней жизни: Выставка фотографий отцов и их новорожденных детей https://www.unicef.org/moldova/ru/press-releases/early-moments-matter-hoto-exhibition-featuring-fathers-and-their-newborns

11. Финляндия - Материнство и отцовство https://ec.europa.eu/social/main.jsp?catId=1109&intPageId=4514&langId=en

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

ON THE ISSUE OF RECONSTRUCTION OF KARAKALPAK VILLAGES INTO MODERN STANDARD VILLAGES (BASED ON MATERIALS FROM THE CENTRAL STATE ADMINISTRATION OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN)

Dilafruza Ismayilovna Shamshetdinova
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz
Nukus, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Karakalpak, village, population, modernization, farmer, new village.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: The article analyzes the key directions of this large-scale program to improve the living conditions of the rural population, modernize rural settlement, as well as improve the overall level and quality of life of the peasantry. Attention is also paid to the description of the internal structure and layout of new rural houses. It is concluded that the implementation of the social infrastructure construction program was a significant step towards modernization and improving the quality of life of the rural population of Karakalpakstan during the period under review.

QORAQALPOQ QISHLOQLARINI ZAMONAVIY NAMUNAVIY QISHLOQLARGA AYLANTIRISH MASALASI TO‘G‘RISIDA (QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY DAVLAT BOSHQARMASI MATERIALLARI ASOSIDA)

Dilafruza Ismayilovna Shamshetdinova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Nukus, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq, qishloq, aholi, modernizatsiya, dehqon, yangi qishloq.

Annotatsiya: Maqolada qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilash, qishloq aholi punktini modernizatsiya qilish, shuningdek, dehqonlarning umumiy hayot darajasi va sifatini yaxshilash bo'yicha ushbu keng ko'lamli dasturning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Yangi qishloq uylarining ichki tuzilishi va tartibini tavsiflashga ham e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy infratuzilmani qurish dasturining amalga oshirilishi ko‘rib

chiqilayotgan davrda Qoraqalpog‘iston qishloq aholisini modernizatsiya qilish va turmush sifatini yaxshilash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi, degan xulosaga keldi.

К ВОПРОСУ ПЕРЕУСТРОЙСТВА КАРАКАЛПАКСКИХ АУЛОВ В СОВРЕМЕННЫЕ ТИПОВЫЕ ПОСЕЛКИ (ПО МАТЕРИАЛАМ ЦГА РК)

Дилафруза Исмайыловна Шамшетдинова
Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза
Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Каракалпак, село, население, модернизация, фермер, новое село.

Аннотация: В статье анализируются ключевые направления этой масштабной программы по улучшению жилищных условий сельского населения, модернизация сельского расселения, а также повышение общего уровня и качества жизни крестьянства. Уделяется внимание также описанию внутреннего устройства и планировки новых сельских домов. Сделан вывод, что реализация программы строительства социальной инфраструктуры стала значимым шагом в направлении модернизации и повышения качества жизни сельского населения Каракалпакстана в рассматриваемый период.

ВВЕДЕНИЕ

Традиционный внешний облик каракалпакских населенных пунктов в 1960-е годы во многом сохранял свои характерные черты. Сельские поселения отличались глинобитными домами, расположившимися на отдалении друг от друга. Центром села, как правило, являлись общественные здания.

Однако постепенно начались процессы переустройства каракалпакских аулов, связанные с образованием колхозов. На примере одного из колхозов – им. Ахунбабаева Чимбайского района, мы можем наблюдать процессы преобразования сельских населенных пунктов. В 1939 году в нем начались работы по новому планированию и застройке сельских поселений. Согласно разработанным проектам земельных и водных органов Чимбайского района, предполагалось организовать озелененные колхозные поселки в центре сельскохозяйственных угодий. В этих поселках вдоль озелененных улиц, окаймленных арыками, рационально располагались общественные, хозяйственные и культурные учреждения, а также усадьбы и приусадебные участки колхозников.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

В первой четверти XX века в Чимбайском районе наиболее распространенными были небольшие глинобитные дома (там), в которых под одной крышей размещались жилое помещение и хлев. Такие дома имели четырехугольную планировку с коридором (дализ), через который осуществлялся вход как в жилую часть, так и в хлев. Сами жилые помещения, находившиеся по обеим сторонам дализа, обычно делились на комнату для гостей (миманхана) и кухню (асхана), где и протекала вся жизнь семьи.

Внутри дворов располагались хозяйственные постройки, амбары и летние кухни. Жилища отличались традиционной планировкой с отдельными помещениями для мужчин и женщин, выполненными из местных природных материалов. Убранство домов включало войлочные ковры, циновки, подушки и сундуки. Вместе с тем, в этот период начинали проявляться и первые признаки модернизации - появление многоквартирных домов, детских садов, клубов, а также внедрение новых строительных технологий и материалов, электрификация и благоустройство населенных пунктов.

In the context of posthumanist discourses, Heidegger's existential focus challenges deterministic views of technology. As humanity navigates the possibilities of transhumanism, his ideas encourage a careful examination of the impact on human freedom and identity. Heidegger's relevance in contemporary thought lies in his ability to stimulate critical thinking and dialogue. While acknowledging the critiques and challenges his philosophy faces, the enduring impact of

his ideas underscores their capacity to inspire contemplation and offer a unique lens through which to interpret and navigate the complexities of the modern world.

CONCLUSION

As we conclude our journey through Heidegger's existential odyssey, we find ourselves standing at the intersection of freedom and finitude, marveling at the profound insights unveiled in the tapestry of his philosophical landscape. Heidegger's exploration of Dasein, authenticity, and the delicate dance between freedom and finitude has not only reshaped the contours of existential philosophy but also resonates with contemporary thought, inviting us to reflect on the essence of our humanity in the 21st century.

Heidegger's foundational concept of Dasein, as the mode of being that is always already situated in the world, has provided a lens through which we've examined the intricate interplay of freedom and finitude. Dasein's existence, characterized by thrownness into a specific context, temporal awareness, and the potential for authentic engagement, forms the existential groundwork upon which the exploration unfolds.

The 21st century, marked by rapid technological advancements, interconnectedness, and environmental concerns, finds a philosophical companion in Heidegger's existential insights. His exploration of authenticity, freedom, and finitude invites us to reflect on the essence of our being, to navigate the complexities of our existence with a conscious awareness of the profound interplay between our freedom and our inevitable limits.

REFERENCES

1. Heidegger, Martin. Being and Time. Translated by John Macquarrie and Edward Robinson. Harper Perennial Modern Classics, 2008. – 589 p.

2. Heidegger, Martin. The Basic Problems of Phenomenology. Translated by Albert Hofstadter. Indiana University Press, 1982. – 241 p.

3. Heidegger, Martin. Being and Truth. Edited by John van Buren. State University of New York Press, 1972. – 206 p.

4. Dreyfus, Hubert L. Being-in-the-World: A Commentary on Heidegger's Being and Time, Division I. MIT Press, 1993. – 375 p.

5. Kisiel, Theodore. The Genesis of Heidegger's Being and Time. State University of New York Press, 1993. - 424 p.

6. Krell, David Farrell. In Search of Being: Heidegger and the Project of Fundamental Ontology. Indiana University Press, 1993. - 312 p.

7. Ogletree, Thomas W. Heidegger and the Possibility of Political Philosophy. Pennsylvania State University Press, 1998. - 264 p.

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-20 23.00.00 – SIYOSIY FANLAR Pages: 140-160

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

THE CENTRAL ASIAN FACTOR IN ENSURING A MORALLY STABLE ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

Javlon Saidrakhmanovich Iymanov
Associate Professor
University of Economics and Pedagogy
Andijan, Uzbekistan
E-mail: Iymanov81@umail.uz

ABOUT ARTICLE

Key words: Spiritual, stability, international cooperation, region, partnership, equality, friendship, positive result.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: This article examines the importance of Central Asia in ensuring spiritual stability in Uzbekistan, historical, spiritual, cultural, social factors of unity of the countries of the region, measures taken to ensure a spiritually stable environment in Uzbekistan.

O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY BARQAROR MUHITNI TA’MINLASHDA MARKAZIY OSIYO OMILI

Javlon Saidraxmonovich Iymanov
Dotsent
University of Economics and Pedagogy
Andijon, O‘zbekiston
E-mail: Iymanov81@umail.uz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ma’naviy, barqaror, xalqaro hamkorlik, mintaqa, sheriklik, teng huquqlilik, do‘stlik, manfaatli natija.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda Markaziy Osiyoning ahamiyati, mintaqa davlatlari birligining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ijtimoiy omillari, O‘zbekistonda ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ ФАКТОР В ОБЕСПЕЧЕНИИ МОРАЛЬНО СТАБИЛЬНОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жавлон Саидрахманович Ийманов
Доцент
University of Economics and Pedagogy
Андижан, Узбекистан

E-mail: Iymanov81@umail.uz

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Духовное, стабильность, международное сотрудничество, регион, партнерство, равенство, дружба, положительный результат.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение Центральной Азии в обеспечении духовной стабильности в Узбекистане, исторические, духовные, культурные, социальные факторы единства стран региона, меры, принимаемые для обеспечения духовно стабильной среды в Узбекистане.

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi shiddatkor dunyo hamjamiyatida Mustaqil O‘zbekiston negizida Yangi O‘zbekistonni barpo etish, bu orqali Markaziy Osiyo mintaqasida azaliy milliy qadriyatlarimiz, boy ma’naviy merosimizni inobatga olgan holda, mintaqada ma’naviy barqaror muhitni shakllantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari dunyo hamjamiyatida o‘ziga xos va mos o‘rinda turgan subyekt sifatida, avvalo yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida barcha sohalardagi aloqalar hamda barqarorlik masalalarida o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o‘zgardi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar mustahkamlandi. Buni Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi [1] farmoni bilan yanada mustahkamladi.

Mamlakatimiz olimlaridan Otamuratov S.S. Globallashuv milliy-ma’naviy xavfsizlik, Nazarov N.A. Markaziy Osiyo polietnik sotsiumida millatlararo munosabatlar takomillashuvi [2], Qaxxorova M., To‘ ychieva H., Jamiyatda ma’naviy-axloqiymuhit va uning asosiy indikatorlari [3], Jo‘ raev S. O‘ zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi [4], Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash muammolari [5], To‘ ychieva S. Markaziy Osiyo mutafakkirlari shaxs ma’naviyatining shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati [6], Rahmatullaev E. Preventiv diplomatiya [7], Xaydaraliev Sh.A. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar va O‘ zbekistonning o‘ rni [8] haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ilmiy maqolada tahlil usullar, sintez, tizimli yondashuv, falsafiy-mantiqiy fikrlash, falsafiy tahlil, guruhlash, ekspert baholash va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan.

Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, [9] – deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 22-dekabr kungi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida. O‘zbekiston xalqining ma’naviyati esa tarixan bir bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlar xalqi bilan chambar-chas bog‘liqdir.

Markaziy Osiyo hududlardagi qardosh xalqlarimizni asrlar davomida do‘stlik, mushtarak ma’naviy qadriyatlar bir-biriga bog‘lab kelgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda vaziyat o‘zgardi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida do‘stona aloqalar mustahkamlandi. Buni Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni [10] bilan yanada mustahkamladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy birligi g‘oyasini ulug‘lash, ilmiy, madaniy-ma’rifiy aloqalarini takomillashtirish, tinchlik va osoyishta hayot yo‘lida do‘stlik, hamjihatlik, hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash borasida ishlar mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. [11] Chunki, mustaqillikning ilk yillarida Markaziy Osiyo davlatlari, xalqlari birlashib, o‘z madaniy qadriyatlariga tayangan holda dunyoning gegemon davlatlari ta’siriga qarshi turishga qodir kuchga aylanishi mumkin edi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Turkiston zamini xususida aytgan quyidagi fikrlari g‘oyatda ahamiyatlidir, “Tasavvur qilingki, ota yurtimiz Turkiston katta bir uy, buyuk bir ro‘zg‘or, buyuk bir oila. Bu oila farzandlari qanchalik yaqin va ahil bo‘lsa, ro‘zg‘or ham shunchalik obod va to‘kin bo‘ladi. Bundan chiqadigan xulosa: Markaziy Osiyo mintaqasida ham iqtisodiy, ham ma’naviy, ham siyosiy jihatdan yagona muhit tashkil qilish – bugungi kunning eng dolzarb masalasidir”. [12] Mintaqa birligi va jipsligi doimiy ravishda xavfsizlikni ta’minlash uchun asosiy e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlardan bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, birlashganda ham o‘zligimizni yo‘qotmasdan harakat qilishimiz lozimligini ko‘rsatadi.

Bu borada, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, Markaziy Osiyo har biri o‘ziga xos tarixiy, etnik-madaniy ildizlarga, diniy va ijtimoiy turmush tarziga, o‘z mentalitetiga ega bo‘lgan mamlakatlar va xalqlar yashaydigan mintaqa ekanini doimo yodda tutish muhim. Ularning har biri vazmin, juda e’tibor bilan, ta’bir joiz bo‘lsa, hurmat-ehtirom bilan yondashishni talab qiladi. [13]

Bundan kelib chiqadiki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatga kirishayotgan har bir davlat, albatta, mintaqadagi beshala davlat mentalitetini o‘rganishi va ularning har biriga alohida munosabatda bo‘lishini talab etadi. Shuningdek, bu davlatlarning barchasi o‘ziga xos davlatchilik tuzumiga ega bo‘lganligi uchun sinchiklab o‘rganish lozim.

Shaxsning milliy davlatchiligiga bo‘lgan pozitiv munosabati hamda fuqarolik mavqeyini idrok etish ham milliy o‘zlikni anglashning komponentlari hisoblanib, tafakkur rivojiga imkon yaratadi. Tafakkurdagi bunday rivojlanish ko‘p millatli jamiyatda millatlararo munosabatlar takomillashuvini ta’minlaydi. Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o‘zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo‘shishi lozim. [14] Shundagina biz mintaqada o‘zimiz xohlagan xavfsiz va ma’naviy barqaror muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasida Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiradigan quyidagi umumiy xususiyatlar keltirilgan:

– Yaxlit ma’naviy va madaniy-tarixiy meros, kishilar e’tiqodi, tili, mentalitetining mushtarakligi;

– Suv arteriyalari, kommunikatsiya, energetika zaxiralarining umumiyligi;

– Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi, aholi turmush sharoitlarining nisbatan bir-biriga yaqinligi;

– Jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy davlatni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy muammolarning o‘xshashligi;

– Mintaqaviy muammolar - Oroldagi ekologik inqiroz, suv va yoqilg‘i-energetika zaxiralaridan oqilona foydalanish, jahon transport, axborot va boshqa kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuv masalalari. [15]

Mazkur omillarning barchasi mintaqaviy xavfsizlikni asosini tashkil etgan mintaqaviy integratsiyaning zaruratini belgilab beradi. Ushbu masala yuzasidan mintaqa davlatlari siyosatida uchta o‘zaro aloqador tendensiya kuzatiladi: **dezintegratsiya, reintegratsiya, integratsiya**.

Dezintegratsiya jarayoni 1991-1996 -yillargacha davom etdi. Bu jarayon o‘zaro yaqinlashuv emas, o‘zaro yiroqlashuvni keltirib chiqardi. Mintaqa davlatlari o‘rtasida aloqalar uzilishi natijasida davlatlarda ishsizlar sonining ko‘payishi, aholi turmush darajasining pasayishi kuzatildi. Ayrim davlatlarning tashqi qarzlari nihoyatda ko‘tarilib ketdi. Yangi mustaqil davlatlarda milliy g‘oya va tashqi siyosat strategiyasining shakllanayotgan bir davrida, mintaqada yagona xavfsizlik tizimining mavjud emasligi oqibatida mintaqaga tutash hududlardagi xavf-xatar va tahdidlarning mintaqaga kirib kelishi kuzatildi. Bu esa mintaqadagi vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda, ayrim tashqi kuchlar qo‘lida ta’sir etish vositasiga aylandi.

Mintaqadagi keyingi bosqich **reintegratsiya** jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, u 1996-2001 - yillarga to‘g‘ri keldi va yangicha ko‘rinish kasb etdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi eski iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari borgan sari kamayib, davlatlarning iqtisodiy hamkorlikni tiklash va rivojlantirishga bo‘lgan obyektiv intilishlari tobora kuchaydi.

Keyingi bosqichda mintaqada strategik muvozanatni saqlash, mintaqaviy muammolarni birgalikda hal etish, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish kabi masalalar mintaqa davlatlarining tashqi siyosatida ustuvor vazifaga aylandi. [16]

Bugungi dunyoning ma’naviy-ruhiy holati shundayki, inson hayotini, yer yuzida tinchlik-totuvlikni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish uchun har kim o‘z holicha emas, birgalikda, bamaslahat ish ko‘rishini zarur. Hozir dunyo miqyosida yuz berayotgan ijobiy hamda salbiy o‘zgarishlar, bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olish, yer osti va yer usti boyliklariga egalik qilish harakatlari kuchayib borayotgan ekan, har bir mamlakatning ichki va tashqi siyosatida umumiy maqsadlarga erishish yo‘lida jipslashish, muammolarni tomonlarning manfaatlariga mos ravishda hal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning asosiy sababi shuki, inson hayoti bilan bog‘liq murakkab muammolar bir mamlakatda, bir mintaqada emas, butun dunyoda umumlashib bormoqda. Iqtisodiy, moliyaviy tanglik, axborot oqimining globallashuvi, savdo-sotiq siyosatidagi kelishmovchiliklar, kapital oqimining tezlashishi, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishi bilan bog‘liq ziddiyatlarni hal qilish uchun ichki va tashqi imkoniyatlardan unumli foydalanishdan boshqa chora yo‘q. Har kim o‘z holicha, faqat o‘zining tor manfaatlarini o‘ylab ish tutadigan, qo‘shni davlatlarda, yaqin-yiroq mamlakatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy voqelikdan bexabar holda yashash endilikda mumkin emas. Faqat birlashsakkina rivojlanishimiz, taraqqiy etishimiz va mintaqadagi muammolarni birgalikda yengishimiz mumkin bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yaxshi qo‘shnichilik, manfaatli hamkorlik borasidagi oqilona siyosati zamirida tarixan birga yashab kelgan xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, uzilgan qadriyatlarimizni bog‘lash, tarixning sinovli pallasida iymon-e’tiqoddan kechmaslik zamirida bugunni, ertani hamda mintaqa kelajagini o‘ylab ish tutishdek buyuk maqsad yotadi. Markaziy Osiyo – asrlar davomida qondosh xalqlar tinch va totuv yashab kelayotgan jahondagi kam sonli mintaqalardan biridir. Bizni mushtarak tarix va madaniyat, yagona muqaddas din, o‘xshash mentalitet, ma’naviy-axloqiy qadriyat va an’analar hamda ajralmas do‘stlik chambarchas bog‘lab turadi. Bularning barchasi xalqlarimiz farovonligi va ravnaqi yo‘lida Markaziy Osiyo davlatlari salohiyatini birlashtirishga qaratilgan o‘zaro manfaatli hamkorligimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. [17]

Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari bu siyosat natijalarini hozirning o‘zida ko‘zlari bilan ko‘rib, shunday kunlarga yetkazganiga shukronalar aytmoqda. Qadim-qadimdan suvi, bozori va

mozori, tili va dini bir xalqlar o‘rtasiga qo‘yilgan sun’iy g‘ovlar, to‘siqlar olib tashlandi. Bir-biridan ajratib qo‘yilgan oilalar birlashdi.

Qolaversa, Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligida o‘tkaziladigan iqtisodiy va gumanitar yo‘nalishdagi tadbirlar donishmand dunyoning bu qutlug‘ mintaqasida yashayotgan xalqlar hayotiga, turmush tarziga g‘oyat ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Hayotning bugungi tezkor shiddati mamlakatlarni, davlat va jamoat arboblari, ilm-fan namoyandalari, ijodkor-ziyolilar, xotin-qizlar, yoshlar vakillarini qo‘lni qo‘lga berib, mushtarak maqsad yo‘lida birlashib, harakat qilishni taqozo etmoqda. Tarixning bu imkoniyatidan samarali foydalanish barchamizning burchimizdir. [18] Shundagina biz oldimizga qo‘ygan maqsadimiz, ya’ni Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida ma’naviy qadriyatlarimizni birlashtirgan bo‘lamiz.

Ma’lumki, Sobiq ittifoq davrida milliy qadriyatlar, qardoshlik, urf-odatlarimiz haqida baralla yozish u yoqda tursin, hatto, do‘st-u birodarlaringga gapirish ham muammo tug‘dirar edi. Chunki, ittifoqning siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida tarixiy taraqqiyotni birgalikda boshidan kechirgan xalqlarni birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘lgan. Aynan shu sababli, 1924 -yilda Turkiston o‘lkasidagi bir tomirga birlashgan xalqni parchalash va bir-biridan ayri holatda tutishni, qisqa qilib aytganda “Bo‘lib tashla hukmronlik qil” tamoyili asosida siyosat yuritilgan. Natijada, bularning birini o‘zbek, birini qozoq, birini tojik, birini qirg‘iz va yana birini turkman deya ularning shaxsiy “men”ini uyg‘otuvchi urug‘lar sochilib, har birini alohida-alohida davlat shaklida boshqarishni, bir xalqni bir-biriga raqobatchi qilib shakllantirdi”. Tarixiy nuqtai nazardan olganda, Markaziy Osiyo davlatni milliylik belgisiga qarab tashkil etish an’analariga ega emas edi. Bu yerda Rossiya tomonidan mustamlaka qilib olinguncha mavjud bo’lgan hamma davlatlar asosan sulolaviy yoki hududiy (Buxoro, Qo’qon, Xiva xonliklari) prinsiplar bo’yicha tashkil etilar edi”. [19]

Natijada, sal kam 70 yillik ayriliq, manmanlikni yengib, bahamjihatlik bilan mustaqil davlatlarimizni, mintaqamizni xavfsizligini ta’minlashimiz uchun bo‘lgan birlashish tushunchamizni shakllantirish uchun ham oradan ko‘p vaqtlar o‘tib ketdi. Ayniqsa, sobiq sovet ittifoqi davrida mintaqa xavfsizligi yoki mintaqa xalqlarining qadriyatlari, urf-odatlari, an’analari haqida gapirishning umuman iloji bo‘lmaganligi sababli, turg‘unlik davrida ulg‘aygan avlodning bu kabi masalalarga e’tibor bermaganligini ham tushunsa bo‘ladi. Biroq, kim bo‘lishidan, qaysi sharoit yoki muhitda ulg‘aygan bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z xalqining obro‘-e’tibori, qadr-qimmati va sha’ni uchun kurashib kelganlarini, mintaqa xalqlarini birlashtirish va rivojlantirish yo‘lida jon bergan ajdodlarimizning sa’y-harakatlarini inobatga olishimiz lozim bo‘ladi. Xususan, Jadidchilik asoschilari namoyondalari, Munavvar qori, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy kabi allomalarimiz shu xalq, shu el dardi bilan yashaganligi, mintaqa rivoji uchun imkon qadar harakat qilganligini ko‘rish mumkin.

“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”. [20]

Tarixdan ma’lumki, mintaqada istiqomat qilgan xalqlarning o‘ziga xos umumbashariy axloqiy qarashlari mavjud bo‘lgan. Jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy va umumbashariy axloqiy qarashlari:

a) mintaqadagi ichki tarixiy-madaniy an’analar, izlanishlar;

b) tashqi tarixiy-madaniy va xalqaro aloqalar;

v) diniy tajribalar, ma’naviy-ruhiy izlanishlardagi inson zotiga xos antologik, filogenetik va etnogenetik xususiyatlar ta’sirida yuzaga kelgan. Ushbu omillar mutafakkirlarning ma’naviy merosiga u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazgani, shubhasiz. Demak, insoniyatning internatsionallashuvi XX asrning kashfiyoti emas, u uzoq tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida shakllangan umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida yuzaga kelgan. Ushbu qadriyatlardan voz kechish yoki ularni mensimaslik ayrim elatlarni tor milliy qobiqda qolishga majbur etgan. Shuning uchun ham ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ilm-u fani yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglashga yordam beruvchi tarixiy-madaniy merosimizni o‘rganish bir-biri bilan mustahkam bog‘liq vazifalardir. [21]

Umumiy ta’kidlaganda, milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Ular rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘lib, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi. Milliy qadriyatlarni kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlardan bilib olsa bo‘ladi.

Mintaqada yashovchi xalqlarning milliy qadriyatlari tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib, takomillashib kelgan. Milliy qadriyatlar millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa mintaqamiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Milliy qadriyatlar tabiatiga ko‘ra, tor doirada to‘xtab qolmaydi, balki ravnaq topib, turmush jarayonida yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarining yutuqlari bilan boyib boradi. Ma’lumki, har bir el, elat, urug‘ yoki xalqning urf-odatlarida o‘ziga xoslik bo‘ladi. O‘ziga xos qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozisi bilan o‘lchash yoki bu masalada

boshqalarning hakam bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg‘usi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko‘z-ko‘z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni hurmat qilishdan boshlanadi. Shuning uchun ham bu borada oxirgi yillar davomida mamlakatimizda millatlararo totuvlikka alohida urg‘u berilishini inobatga olish lozim. [22]

Mintaqaga Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog‘langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ldi, o‘ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – yagona e’tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o‘tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

Xalqimizning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, adabiyoti, san’ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo‘lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o‘z aksini topadi. Mintaqa xalqlarining aksariyati islom diniga e’tiqod qilishini inobatga olsak, mintaqa tarixini, bugunini va kelajagini shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz.

Biroq, mana shunday islomning muqaddas tuyg‘usi qalbimizda joy olganiga qaramasdan, uning aksi o‘laroq “Diniy ekstremizm, terrorizm, shovinizm, separatizm” kabi tushunchalar nafaqat mamlakatimizda, balki butun mintaqada xavfsizlikni ta’minlashga harakat qilish uchun birgalikda, bir yoqadan bosh chiqargan holda amalga oshirishni tarix, bugun va kelajak taqozo etadi. Chunki, xavfsizlik va barqarorlik faqatgina bugunning asosiy masalasi emasligi barchamizga ayondir.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun asosiy xavflardan biri sifatida, aynan diniy ekstremizm va terrorizm ekanligi uchun mintaqa xavfsizligida islom omili o‘zining salmoqli roliga ega. Bu yo‘nalishda mintaqa davlatlari hamkorlikda bir qator sa’y-harakatlarni olib bormoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamda tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga boshqacha tahdidlarga qarshi kurash yuzasidan hamkorlikdagi harakatlar to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi (*2000 yil 21 aprel kuni imzolangan*) ham mintaqa davlatlari tomonidan mazkur xavfga jiddiy e’tibor qaratilganligi va qarshi kurashda birlashganligini ko‘rsatmoqda. [23]

Yuqorida to‘rt davlat rahbarlari tomonidan imzolangan hujjatda terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilikning barcha davlatlar tinchligi va xavfsizligiga tahdid soladigan va inson huquqlari, asosiy erkinliklari va jamiyatning demokratik asoslarini buzishga olib keladigan barcha shakl va ko‘rinishlarda o‘sib borayotgan ko‘lami va tendensiyalari haqida aloqa qilish, fuqarolarning hayoti, huquqlari va qonuniy manfaatlari, o‘z davlatlarining suvereniteti va hududiy yaxlitligiga jinoiy hujumlardan ishonchli himoyani ta’minlash, davlatlar xavfsizligiga putur yetkazishga, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy nifoq, siyosiy va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda qarshi chiqish, Birlashgan Millatlar tashkilotining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va davlatlar o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha maqsad va tamoyillariga sodiqligini tasdiqladilar.

Hozirda O‘zbekiston BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan asosiy 13 ta hujjatini ratifikatsiya qilgan. BMT Xavfsizlik kengashi Aksilterroristik qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi xalqaro hamkorligi yuksak baholanadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida “uch yovuz kuch”, ya’ni “terrorchilik”, “ayirmachilik” (separatizm) va “ekstremizm”ga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. 2004 -yildan beri Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMTning 48-(1993 yil sentabr), 50-(1995 yil oktabr), 55-sessiyalarda (2000 yil sentabr) va BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillikni rivojlantirish maqsadlari” (2010 yil) sammitidagi o‘z nutqlarida e’tiborini Markaziy Osiyoning dolzarb masalalariga urg‘u berdi. I.Karimov tashabbusi bilan BMT tomonidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalarini tinch yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan qator rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Xuddi shu masala yuzasidan Prezident Sh.Mirziyoyev ham 2017 yil 19- sentabr kunida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida o‘z fikrlarini bildirib, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti bo‘lib qolishini ta’kidlaganlar. [24] Shu bilan birga Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yilning 22 iyunida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan birinchi marta qabul qilingan maxsus BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasini e’tirof etmasdan ilojimiz yo‘q.

Shuningdek, O‘zbekiston AQSH, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari kabi qator mamlakatlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Amalga oshirilayotgan bu sa’y-harakatlarning zamirida esa, avvalo, mamlakatimizda va

mintaqamizda xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan urinishlarni ko‘rish mumkin. Qadimdan ota-bobolarimiz aytganidek, “Qo‘shning tinch-sen tinch” iborasi orqali hukumatimiz qo‘shnilarimiz tinchligiga erishish orqali mintaqa xavfsizligini ta’minlashga va mamlakatimiz fuqarolarining osuda osmon ostida bexavotir yashashlariga imkoniyat yaratayotganligi tahsinga sazovordir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning muhit xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy asoslarini qo‘yidagicha talqin qilsa bo‘ladi. Jumladan,

Birinchidan, Mintaqada yashayotgan xalqlarning tarixan bir makon, bir hududda ravnaq topish asosi bo‘lib, unda Turon, Movarounnahr, Turkiston, O‘rta Osiyo va yakunda Markaziy Osiy nomlari bilan rivojlangan tarixiy birlikdir.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘pchiligi e’tiqod qiladigan diniy asos. Bu borada boshqa dinga e’tiqod qiluvchi vakillar bo‘lsa-da, lekin ular kamchilikni tashkil topganligi uchun asosiy e’tibor Islom diniga e’tiqod qiluvchilarning ijtimoiy asoslari inobatga olingan.

Uchinchidan, o‘rganilayotgan mintaqada madaniy, ma’naviy qadriyatlarimiz birligi asosi. Bunda ushbu hududda istiqomat qiluvchi millatlarning madaniy, ma’naviy qadriyatlari, urf-odat, an’analarining bir-biriga juda yaqin ekanligidir.

To‘rtinchidan, Mustaqillikdan keyingi beshala davlatlarning umumiy birdamlikka asoslangan rivojlanish bosqichlari. Aynan mustaqillikdan keyin O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston davlatlari rahbarlarining mustaqillikni saqlab qolish va birgalikda rivojlanishga qaratilgan sa’y-harakatlar hamda bugungi kunda mintaqani har taraflama barqaror rivojlanishiga qaratilgan siyosatni e’tirof etsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Markaziy Osiyo hududida xavfsizlik borasida shakllangan qarashlar va g‘oyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mintaqamiz hududida xavfsizlik xususidagi fikrlarning shakllanish davri uzoq tarixga ega bo‘lib, biz katta ilmiy, siyosiy, madaniy meros va qadriyatlarga ega ekanligimizdan faxrlanamiz. Mazkur meros va qadriyatlarni o‘rganish, chuqur tahlil qilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirib, mintaqa davlatlarining milliy manfaatlar va maqsadlarini to‘g‘ri anglashning, Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy xavfsizligini ta’minlash tizimini samarali shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda jahon tajribasidan foydalangan holda, zamonaviy uslublarni qo‘llash orqali tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning muhit xavfsizlikni ta’minlovchi ijtimoiy asoslarini yanada mustahkam qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning sa’y-harakatlari natijasi sifatida nafaqat mamlakatda, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ma’naviy barqaror bo‘ladigan muhitni shakllantirish masalasi turgan edi. “Hozir bizning jamiyatimiz tarixiy chorrahada turibdi. Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy kamol toptiruvchi o‘z taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishimiz zarur. Bu murakkab va mas’uliyatli palladir. Hozir yashab

turganlarning taqdirigina emas, balki ularning farzandlari, nevaralarining ham taqdiri, kelajak avlodlarning taqdiri ham shunga bog‘liq bo‘ladi.” [25] -degan edi I.A.Karimov.

Olib borilgan to‘g‘ri siyosatning samarasi sifatida bugungidek nurafshon va tinch zamonlarga yorug‘ yuz bilan yetib keldik. Sababi, bugungi kunda O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilgan oqilona va odilona siyosatning mevasi Markaziy Osiyo mintaqasining ma’naviy jihatdan barqaror muhitni shakllantirilishiga asos bo‘ldi. [26]

XXI asr shu bilan xarakterlanadiki, bugungi kunga kelib, insoniyatning jami borlig‘ini belgilaydigan epitsentr iqtisodiyotdan, siyosatdan o‘tib ma’naviyatga borib taqaldi. Chunki aynan ma’naviyat kishilar borlig‘ining barcha parametrlarini belgilaydigan konsensusga aylandi. [27]

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada [28] “**Preventiv diplomatiya**”ni yo‘lga qo‘yish bilan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash mumkinligini ta’kidlagan edilar. Biz qo‘shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, aksincha, hamkorlik qilish yo‘lini izchil davom ettiramiz. Ularning tinch va farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz. [29] Aynan mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat, preventiv diplomatiyaga asoslangandir.

Preventiv diplomatiya - tomonlar o‘rtasida kelishmovchiliklarning kelib chiqishining oldini olishga, mavjud kelishmovchiliklarning ziddiyatga aylanishining oldini olishga hamda mavjud ziddiyat tarqalishini cheklashga qaratilgan diplomatik harakatlar. [30]

Birinchi marta preventiv diplomatiya g‘oyasini BMTning uchinchi Bosh kotibi Dag Yalmar Agne Karl Xammarshyold 1950 -yilda ilgari surgan. Preventiv diplomatiya g‘oyasi paydo bo‘lgandan so‘ng o‘zgaruvchan dunyoning yangi holatlarini hisobga olgan holda rivojlandi. Sovuq urush tugaganidan keyin BMTning yettinchi Bosh kotibi Butros Butros-G‘oliy 1992 -yil 2-iyuldagi ma’ruzasida preventiv diplomatiya tushunchasini shakllantirdi.

Shunday qilib, preventiv diplomatiya g‘oyasi paydo bo‘ldi. BMTning Bosh kotibi, Dag Xammarshyoldning dunyo siyosatidagi tig‘iz kundaligiga qaramasdan, BMT Nizomiga asosan ma’muriy xodimi bo‘lishi barobarida, g‘ayritabiiy yoki haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni taklif qilishini tasavvur qilish qiyin. Xammarshyold o‘z fikrida mojaroni butunlay bartaraf qilish emas, balki uni chegaralagan holda tarqalib ketishining oldini olish hamda boshqa kuchlarning aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida edi. Bu orqali “sovuq urush”ni kengayishining oldini olish, shu bilan birga, gegemon davlatlar manfaatlari atrofida yuzaga kelgan ziddiyatlarni hal yetishda BMTning rolini oshirish imkonini berishi taxmin qilingan edi. [31]

Preventiv diplomatiya konsepsiyasining shakllanishida ishtirok etgan sobiq BMT Bosh kotibi Butros Butros-G‘oliyning klassik versiya bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, a) ishonch choralarini amalga oshirish, b) rasmiy yoki norasmiy bo‘lsa-da, axborot to‘plagan holda ertaroq ogohlantirish, v) preventiv joylashtirish choralari, d) demilitarizatsiyalashgan zonalarni tashkil etish kabi choralar ko‘rilishi lozim. Aslida, Butros-G‘oliy preventiv diplomatiyani faqatgina tinchlikni saqlash shakllaridan biri sifatida emas, balki birinchilardan bo‘lib, preventiv diplomatiyani amalga oshirish shakllarini ko‘rsatib berdi. [32]

Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi davrida preventiv diplomatiyadan foydalanishidan nafaqat mintaqa davlatlari, balki Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham manfaatdordir. Shu maqsadda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi BMTning maxsus siyosiy missiyasi bo‘lib, bu 2007-yilda Markaziy Osiyodagi besh davlatlar hukumatlari tashabbusi bilan tashkil etilgan va shtab kvartirasi Turkmanistonning Ashxobod shahrida joylashgan. Markazning asosiy vazifasi Markaziy Osiyo davlatlariga mintaqada tinchlik va xavfsizlikka mavjud tahdidlarni aniqlash hamda bartaraf etishda ko‘maklashishdan iborat. Bundan tashqari, Markaz Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sheriklik munosabatlarini targ‘ib qiladi.

Mintaqaviy Markazning tashkil etilishiga Birlashgan Millatlar tashkiloti va Markaziy Osiyo hukumatlari o‘rtasida 2007-yilda muvaffaqiyatli yakunlangan bir necha yillik maslahatlashuvlar sabab bo‘ldi. Aynan shu -yilning may oyida esa BMT Bosh kotibi xavfsizlik Kengashini markazni tuzish niyatidan xabardor qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlarining besh hukumati Ashxobodda BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazini (MOPDMM) tuzish bo‘yicha kelishuvga erishganini ta’kidladi. Markaziy Osiyoning besh mamlakatiga ko‘ra, BMTning muzokaralar uchun qulay sharoit yaratishga va mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga oluvchi kelishuvlarga erishishga qodir xolis tashkilot sifatidagi ijobiy qiyofasi bu jarayonda hal qiluvchi omilga aylandi.

MOPDMM rasmiy ochilishi 2007-yilning 10-dekabrida Ashxobodda bo‘lib o‘tdi. Preventiv diplomatiya markazini tashkil etishni taklif qilishda mintaqa hukumatlari Markaziy Osiyo oldida turgan ko‘plab tahdidlarni, jumladan, xalqaro terrorizm va ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va ekologik tanazzulni hisobga oldi. [33]

Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari o‘rtasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va mavjud tahdidlarni bartaraf etishda muloqot qilmoqda; tinchlikparvar sa’y-harakatlar va tashabbuslarni targ‘ib qilishda mintaqada faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan muntazam aloqalarni qo‘llab-quvvatlaydi; nizolarni oldini olish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlar bo‘yicha ma’lumotlarni

muvofiqlashtiradi va almashadi; barqaror rivojlanish va mojarolarni oldini olish sohasida ishlaydigan boshqa BMT agentliklari bilan hamkorlik qiladi.

BMT markazi o‘z faoliyatida xolislik pozitsiyasiga amal qiladi. Muammoni hal qilishning mavjud modellarini qo‘llashni talab qilmaydi, balki Markaziy Osiyo mintaqasining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keluvchi mahalliy modellarni ishlab chiqishga ko‘maklashishga harakat qiladi.

Markaz Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan harakat dasturlari doirasida tinchlik, xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lidagi mintaqaviy muammolarni hal yetishga qaratilgan umumiy tashabbuslarni amalga oshiradi. Markazning oxirgi 2021-2025-yillar uchun harakat dasturi Markaz mandatiga muvofiq beshta asosiy ustuvor yo‘nalishga qaratilgan:

1) Markaziy Osiyo hukumatlari o‘rtasidagi munosabatlarda preventiv diplomatiyani targ‘ib qilish;

2) Mojarolarning oldini olish maqsadida monitoring olib borish va ogohlantirish;

3) Mojarolarni oldini olish uchun hamkorlik o‘rnatish, shu jumladan mintaqaviy va mintaqaviy tashkilotlar bilan;

4) Mintaqada BMTning preventiv faoliyatini mustahkamlash;

5) Markaziy Osiyo davlatlari va Afg‘oniston o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro aloqalarni rag‘batlantirish. [34]

2018-yilning 29-oktabr kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi hamkorligida Markaziy Osiyo ekspertlar forumining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Majlisning O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondan tashrif buyurgan nufuzli ishtirokchilari Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning joriy holati va istiqbollarini muhokama qilish bilan birga, so‘nggi -yillar mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tarixiy va jadal o‘zgarishlar davri bo‘lgani, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda aniq maqsadli strategik sheriklik munosabatlari qaror topganini ta’kidladilar.

Markaziy Osiyo mamlakatlari barqaror kelajak qurishdek mushtarak maqsad yo‘lida dadil intilmoqda, – deydi Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi tashqi siyosat tahlil departamenti boshlig‘i Abdulloh Rahnamo. Bu boradagi imkoniyatlarni birlashtirish, tajriba va fikr almashish, yagona g‘oya atrofida birlashish uchun tomonlarda siyosiy iroda mavjud. O‘z mamlakatining siyosat yo‘lini, integratsiya konsepsiyasini ishlab chiqishda ishtirok etadigan tahlil markazlari, tadqiqot institutlari vakillari bugun umumiy qiziqishlarni

ro‘yobga chiqarish maqsadida jam bo‘ldi. Yangi formatdagi uchrashuv mamlakatlarimiz o‘rtasida doimiy siyosiy maslahatlashuvlarni olib borish, aniq strategiyani ishlab chiqish va uni amalga oshirishda muhim o‘rin tutishiga ishonaman. [35]

Stratfor Worldview saytida e’lon qilingan “Uzbekistan Comes in From the Cold” nomli maqolada “…izolyatsionizm uzoq -yillar davomida O‘zbekistonning tashqi dunyo bilan munosabatlarini belgilab keldi. Biroq Markaziy Osiyoning eng aholisi zich joylashgan mamlakatidagi islohotlar Toshkentdan ancha uzoq joylarda ham akssado bermoqda. O‘zbekiston siyosiy evolyutsiyasi – tadriji natijasi o‘laroq, Markaziy Osiyodagi qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash barobarida Rossiya, Xitoy va Qo‘shma Shtatlarning ham tobora jozibador hamkoriga aylanib bormoqda, chunki ular mintaqaga ta’sir ko‘rsatish yo‘lidagi strategik raqobatlashuv va investitsiyalar kiritishda qatnashmoqda. O‘zbekistonning ochilayotgani unga o‘z mintaqasidagi iqtisodiy va xavfsizlik sohalaridagi faoliyatini kengaytirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi…”. [36]

Nafaqat O‘zbekiston balki, butun dunyoda preventiv diplomatiyaga alohida e’tibor qaratib kelindi. Shu sababli, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan olib borilayotgan preventiv diplomatiyasi o‘zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. 2020-yilning o‘zida qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlarda yaqin qo‘shnichilik, bir-birini tushunish, murosa va muomala qilish kabi preventiv diplomatiya bir necha bor qo‘llanganligini aytish mumkin. Misol uchun, birinchi bo‘lib 2020-yil dunyo davlatlariga kirib kelgan koronavirus pandemiyasi davrida Sh.M.Mirziyoyev mintaqadagi qo‘shni davlatlar rahbarlari bilan muntazam telefon orqali bog‘lanib turganligi, ularga va boshqa davlalarga gumanitar yordamlar jo‘natib, ular ahvolidan xabar olindi (Xitoyga-12.02.2020, Eronga-12.03.2020, Qirg‘izistonga 02.04.2020 va 15.11.2020, Rossiyaga-2020-yil 18, 20 va 23 aprel kunlari, Tojikistonga-30.05.2020 va h.k.). Bunda yaqin qo‘shnichilik tamoyiliga asoslanib diplomatik munosabatga kirishilgan.

Keyin, 2020-yil 1-may kuni kutilmaganda Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuzaga kelgan tabiiy ofat nafaqat Sirdaryo viloyati aholisi, balki qo‘shni Qozog‘iston respublikasi aholisiga ham ancha noqulayliklar keltirib chiqardi. Ikkala davlat rahbarlarining o‘zaro kelishuviga asosan O‘zbekiston hukumati rahbari, Prezident maslahatchisi darhol talafotdan zarar ko‘rgan qo‘shni davlat hududiga bordi. Barcha resurslar jalb etilib, O‘zbekiston tomonidan Qozog‘istonda fuqarolariga imkon qadar yordamlar ko‘rsatildi. Agarda mazkur vaziyatda o‘zaro bir-birini tushunish tamoyili asosidagi diplomatik munosabat bo‘lmaganida, ikkala tomon ham uzoq tortishishlari, shundoq ham tarang bo‘lib turgan vaziyat yanada keskinlashishi mumkin edi.

So‘ngi misol sifatida 2020-yilning 1-iyun kuni O‘zbekistonning Qirg‘izistondagi anklavi, Farg‘ona viloyati So‘x tumanida O‘zbekiston va Qirg‘iziston fuqarolari o‘rtasida yuzaga kelgan janjalni keltirish mumkin. Bu gal ham voqea joyiga hukumat rahbarining zudlik bilan yuborilishi,

Qirg‘iziston hukumati vakillari bilan muzokaralar, ikki mamlakat rahbarlarining telefon orqali muloqoti vaziyat keskinlashishining oldi olindi. Agarda yuzaga kelgan mojaroga e’tiborsizlik qilinganida bu ikki davlatning tinchi yo‘qolishi, o‘zaro hal qilinadigan muammoga boshqa davlat yoki tashkilotlarning aralashishiga to‘g‘ri kelardi. So‘x tumanidagi mojaro shu bilan butunlay barham topdi deyish qiyin, biroq, bu mojaro keskinlashib ketishining oldi olindi. Bu yuqorida aytganimiz murosa va muomala tamoyiliga asoslangan preventiv diplomatiyadir.

Aynan yuqorida keltirilgan misollarda Markaziy Osiyo mintaqasida ham preventiv diplomatiya orqali mintaqada ma’naviy muhit barqarorligi ta’minlab kelinmoqda.

Darvoqe, YEXHTning O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori Jon Makgregor “O‘zbekiston rahbariyati konfliktning oldini olishda eng yaxshi xalqaro amaliyotni qo‘lladi. YEXHT mintaqasi va butun dunyo uchun a’lo darajadagi namuna bo‘ldi”, deb qayd etdi.

BMTning O‘zbekistondagi koordinatori Helena Freyzer esa “O‘zbekiston va Qirg‘iziston rahbariyatining So‘x anklavidagi kechagi og‘riqli insidentga zudlik bilan konstruktiv yondashgani e’tiborga molik. Barqaror tinchlik mana shunday bo‘ladi”, deb ta’kidladi. [37]

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-son Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi”ning II bob (Doktrinaning harbiy-siyosiy jihatlari), 3-bo‘limi (O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosati), 10-bandi so‘ngida “xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga va o‘ziga xos madaniy tamadduniga tayanish”[38] punkti kiritilganligi ham mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan siyosatimizning bosh mezoni nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqa xalqlari uchun ma’naviy barqaror muhitni shakllantirishdan iborat ekanligini ko‘rsatmoqda. Mazkur holat “O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi”da [39] ham alohida qayd etilganligini ko‘rish mumkin.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar o‘zaro munosabatlarga kirishishda, hamkorlik va aloqalarni bog‘lashda birinchi navbatda o‘z davlatining manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshiradi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda mintaqada turli ustuvor yo‘nalishlar, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini yanada rivojlantirish borasidagi yaqin hamkorlikni kuchaytirish, Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish, Markaziy Osiyo davlatlari hududida fuqarolar erkin harakati, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun’iy cheklovlarsiz aylanishiga bosqichma-bosqich erishish, shuningdek, umumiy sayyohlik makonini shakllantirish ishlarini davom ettirish, Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy

tiklanishiga yaqindan ko‘maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shish ishlari alohida e’tiborga olingan. [40]

Barchaga ma’lumki dunyoni manfaatlari boshqaradi, umumiy manfaatlar esa davlatlararo munosabatlarni shakllantiradi va birgalikda harakatga undaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston mintaqaviy muammolarni hal qilishda o‘ziga xos strategik mavqega ega. Bu quyidagi omillar bilan bog‘liq:

– O‘zbekiston geografik jihatdan qulay joyda joylashgan va u mintaqaning geosiyosiy yadrosi hisoblanadi;

– Davlat xom ashyo va energetika jihatdan mustaqil, iste’mol bozori uchun zarur bo‘lgan ko‘plab xom ashyo resurslariga ega;

– O‘zbekiston harbiy siyosiy jihatdan muhim strategik hudud hisoblanadi;

– Butun mintaqaga ta’sir o‘tkazadigan kuchli ma’naviy markazlar mavjudligi;

– Madaniy tarixiy jihatdan katta yutuqlarni qo‘lga kiritganligi va ular mintaqa xalqlarini o‘zaro yaqinlashtirishga xizmat qilishi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlik kafili sifatidagi mavqeyi tobora mustahkamlanib bormoqda. [41]

Markaziy Osiyo mintaqasida barcha davlatlar uchun muhim bo‘lgan ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun tashqi siyosatimizda belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda olib borilayotgan siyosatimizni yanada rivojlantirgan holda, bunga qo‘shni davlatlarning tashqi siyosatining ustuvor vazifalari bo‘lishiga ishontirishimiz lozim bo‘ladi. Ma’naviy jihatdan barqaror shakllanishdan esa mintaqa dalatlari manfaatdor. [42]

Xususan, davlatlar uchun hayotiy muhim bo‘lgan belgilar, chegara daxlsizligi, hududning xavfsiz bo‘lishi, fuqarolar tinchligi, o‘zaro munosabatlarda ishonch va bir-biriga suyanish kabi tamoyillarni mintaqa davlatlari uchun zarur ekanligiga ishontirish lozim. Bu borada mamlakatimiz rahbari tomonidan davlatimiz, mintaqa va xalqaro miqyosda bo‘layotgan tadbirlarda berayotgan taklif va tashabbuslari va uning xalqaro hamjamiyat tomonidan ma’qullanayotganligidan ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan muhim tashabbuslarini o‘rganish maqsadida “Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan 2019 - yilda ekspertlik so‘rovi o‘tkazilib, TOP-10 talik aniqlandi. Tajribali iqtisodchilar, siyosiy sharhlovchilar, yetuk olimlar, madaniyat arboblari, nufuzli jurnalistlar, huquq himoyachilari hamda mustaqil tadqiqotchilardan iborat 100 nafar mahalliy va xorijiy ekspertlar tomonidan aniqlangan 10 ta muhim tashabbusdan 2 tasi mintaqada olib borilayotgan islohot ekanligi quvonarlidir.

Unga ko‘ra, 1-o‘rin. Eng muhim tashabbus deya, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari, chegaralarning ochilishi va nazorat-kiritish punktlarining tashkil etilishi bo‘ldi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha masalalar bo‘yicha konstruktiv muloqot o‘rnatilgani e’tirof etildi — 96 ta ovoz;

10-o‘rin. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlanishi bo‘yicha chora-tadbirlar, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha xalqaro muloqotning kuchaytirilishi — 57 ta ovoz. [43]

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning taklif va tashabbuslaridan shuni anglash mumkinki, har bir taklif va tashabbus butun Markaziy Osiyo mintaqasida preventiv diplomatiya asosida o‘zaro hamkorlik qilishga, o‘zaro hamkorliklarni amalga oshirish uchun qanday boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish kerakligi to‘g‘risida aniq va ravshan ko‘rsatmalardan iboratdir.[44]

Mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro do‘stona munosabatlar, yaxshi kayfiyatdagi hamkorlik aloqalari mintaqadan o‘z manfaatlari yuzasidan foydalanishni ko‘zlab turgan atrofidagi ayrim qudratli davlatlarga unchalik ham ma’qul emas. Buni ko‘rib, his qilib turgan Markaziy Osiydagi davlatlar o‘zlari boshlagan ishlarni, xususan, o‘zaro kelishgan holda muammolarni bartaraf etish, qo‘shni davlatlar manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida boshqa davlatlardan yordam so‘ramasdan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari kabi mintaqaviy yig‘ilishlarda o‘zaro murosa va madora ko‘chasini tanlash orqali mintaqada amalga oshirilayotgan preventiv diplomatiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

XULOSA

Markaziy Osiyo hududida ma’naviyat borasida shakllangan qarashlar va g‘oyalar merosi va qadriyatlarini o‘rganish, chuqur tahlil qilgan holda zamonaviy sharoitga moslashtirish, bu borada zamonaviy uslublarni qo‘llash orqali tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning muhit xavfsizlikni ta’minlovchi ijtimoiy asoslarini yanada mustahkam qilish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo integratsiyasining jamiyat ma’naviy muhiti siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tashabbus mintaqa va uning kelajagi tarixiga hamda ma’naviy barqaror muhitiga qarab birlashadi. Mintaqa integratsiyasi u yerda istiqomat qilayotgan xalqning bir-biriga yaqin bo‘lgan tarixi, an’analari, udumlari va urf-odatlari orqali yanada tezlashadi, taraqqiy etadi va ma’naviy muhitda namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy barqaror muhitni ta’minlash uchun mintaqa davlatlari o‘zaro hamkorlikni tarixiy birlikka, o‘zaro yaqin qo‘shnichilikka, diniy va dunyoviy bag‘rikenglikka asoslansagina istiqboli porloq bo‘ladi. Bu esa Markaziy Osiyoda olib borilayotgan preventiv diplomatiyani rivojlantirish borasida yangicha boshqaruv texnologiyalarini yaratish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Иккинчи нашр. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. – Б. 30.

3. Қаххорова М., Тўйчиева Ҳ., Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит ва унинг асосий индикаторлари. The Light of Islam, 4-сон 2019 йил. Б. 191.

4. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 59.

5. Саидолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари. С.ф.н. диссертация. – Тошкент. 2009. –Б. 79, 85.

6. Тўйчиева С. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессор, ф.ф.д. Марказий Осиё мутафаккирларишахс маънавиятининг шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг аҳамияти ҳақида.

7. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика и ее перспективы в Центральной Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора политических наук. – Москва. 2008. – Б. 11- 12, 45-46.

8. Хайдаралиев Ш.А., Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йй.) Т.ф.н. ... дисс. – Наманган.: 2012. –Б. 166.

9. https://president.uz/oz/lists/view/6941

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Xalqaro jamoatchilik harakatini rivojlantirish jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi Raisi I. Karimovning 1996 yil 21 noyabr kungi 407-son Qarori.

12. Каримов. И.А. Туркистон умумий уйимиз. –Тошкент: Ўзбекистон.1995. – Б. 16.

13. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. – Тошкент: Ўзбекистон. 2004. – Б. 214.

14. Назаров Н.А. Марказий осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. ф.ф.д. (DSc) дисс.. автореферати. – Тошкент. 2019. – Б. 15.

15. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2007. – Б. 59.

16. Саидолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари. Сиёс. фан. ном. дисс. ... – Тошкент. 2009. – Б. 85.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkentda o‘tkazilgan ikkinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha brifingdagi bayonoti. https://president.uz/uz/lists/view/3111

18. Meliboyev A., “Jahon adabiyoti” jurnali bosh muharriri. Mushtarak ma’naviy qadriyatlar va do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan dadil qadam. http://xs.uz/uzkr/post/mushtarak-manavij-qadriyatlar-va-dostlik-rishtalarini-yanada-mustahkamlashga-qaratilgan

19. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.– Б. 101.

20. https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan...

21. Тўйчиева С. Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессор, ф.ф.д. Марказий Осиё мутафаккирлари шахс маънавиятининг шаклланишида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг аҳамияти ҳақида. The Light of Islam, № 2. 2019. https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?artic.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevral kungi PF-4947 son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 may kungi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 15 noyabr kungi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

23. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 may, 85-II-son “Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamda Tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga boshqacha tahdidlarga qarshi kurash yuzasidan hamkorlikdagi harakatlar to‘g‘risidagi Shartnoma ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-2839528

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017

25. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. “Ўзбекистон”, –Тошкент, 1996, -Б. 26.

26. Iymanov J.S. Markaziy Osiyodagi tarixiy va ma’naviy qadriyatlarning O‘zbekistonda ma’naviy barqaror muhitni ta’minlashdagi ro‘li. UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, Volume 2, Issue 11, 13-bet, https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/2756

27. Қаххорова М., Тўйчиева Ҳ., Жамиятда маънавий-ахлоқиймуҳит ва унинг асосийиндикаторлари. The Light of Islam, № 4 2019. - Б. 191.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan. https://president.uz/uz/lists/view/1227

29. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 8.

30. Бутрос Бутрос-Гали. Повестка дня для мира. Превентивная дипломатия, миротворчество и поддержание мира (доклад Генерального секретаря ООН). — 2 июля 1992. — С. 6.

31. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика иее перспективы в Центральной Азии. Автореферат док. Полит. наук. –Москва. 2008. – С. 11- 12.

32. Рахматуллаев Э. Превентивная дипломатия: теория, практика иее перспективы в Центральной Азии. Автореферат док. Полит. наук. – Москва, 2008. – С. 45- 46.

33. https://unrcca.unmissions.org/ru/история-создания-миссии

34. https://unrcca.unmissions.org/ru/программы-действий

35. https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3291/

36. https://worldview.stratfor.com/article/uzbekistan-comes-cold-bri-russia-central-asia-china

37. https://www.xabar.uz/siyosat/preventiv-diplomatiya-qoshnilar-bilan-yaxshi-aloqa

38. https://lex.uz/docs/3495885

39. Uzbekistan 2035.uz › wp-content › uploads› 2019/05›

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 11 sentabr kungi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

41. Хайдаралиев Ш.А., Марказий Осиё минтақасида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда халқаро ташкилотлар ва Ўзбекистоннинг ўрни (1991-2010 йй.) Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган: 2012. –Б. 166.

42. Ийманов Ж.С. Узбекистан и его значение в обеспечении духовной устойчивости в Центральной Азии, Россия. Международная конференция академических наук. 2022/5/25, 24-стр. https://zenodo.org/record/6572781#.YpFmuWhBxPY

43. https://kun.uz/news/2019/07/24/shavkat-mirziyoyevning-10-ta-eng-muhim-tashabbusi-aniqlandi

44. Ийманов Ж.С. Марказий осиёда маънавий барқарор муҳитни таъминлашда превентив дипломатиянинг аҳамияти. ЎзМУ хабарлари, 2022, [1/11], 116-бет, https://science.nuu.uz

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-21 23.00.00 – SIYOSIY FANLAR Pages: 161-168

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



YOUTH POLITICAL CULTURE IN UZBEKISTAN AS THE MAIN FACTOR OF STATE MODERNIZATION

Abdulrashid Anvarov
researcher
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: political culture, modernization, representative democracy, national development, political consciousness, national consciousness, youth political culture.

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: The article describes about the main factors in the development of the political culture of youth in modern Uzbekistan and the role of the political culture of youth in the process of modernization of public administration.

The article discusses the role of the young generation in the society of Uzbekistan, issues of increasing their political activity, and the systemic formation of political immunity to various ideas.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI DAVLAT MODERNIZATSIYASINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Abdulrashid Anvarov
tadqiqotchi
O‘zbekiston Milliy Univertiseti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: siyosiy madaniyat, moderenizatsiya, vakillik demokratiyami, milliy rivojlanish, siyosiy ong, milliy ong, yoshlar siyosiy madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarning siesiy madaniyatini rivojlanishining asosiy omillari va yoshlar siyosiy madaniyatining davlat boshьiaruvini moderenizatsiya jarayonida tutgan o‘rni xaqida so‘z yuritiladi.

Maqolda O‘zbekistonda yeshlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning siyosiy faolligini oshirish masalalari, har hil turdagi yod bulgan g‘oyalarga siyosiy immunitetni tizmiy shakllanishi masallari ko‘rib chiqilgan.

МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В УЗБЕКИСТАНЕ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВА

Абдулрашид Анваров
Исследователь
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан
E-mail: abdurashid.anvarov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическая культура, модернизация, представительная демократия, национальное развитие, политическое сознание, национальное сознание, молодежная политическая культура.

Аннотация: В данной статье говорится об основных факторах развития политической культуры молодежи в современном Узбекистане и роли политической культуры молодежи в процессе модернизации государственного управления.

В статье рассматриваются роль молодого поколения в обществе Узбекистана, вопросы повышения их политической активности, системного формирования политического иммунитета к различным идеям.

KIRISH

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida yoshlar siyosati ustuvorlik kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 18 yoshdagilar soni 40 foizni, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizni tashkil qiladi. Jamiyat hayotining demokratlashuvi, modernizatsiyalash jarayonlari aholining katta ijtimoiy qatlamini tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Mustaqillikka erishilgach, 1991 yilning 20 noyabrida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi – yoshlarning jamiyatga turli xil salbiy oqibatlarsiz kirib kelishini ta’minlash, ularning o‘z huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Siyosiy madaniyat masalalarini tadqiq etgan o‘zbek olimlari O. Otamuratov, I.Ergashev, Sh.Paxrutdinov, N.Jo‘raev, S.Jo‘raev, A. Qodirov, M. Qirg‘izboev, T.Odilkoriev, Sh.G‘oyibnazarov, B.To‘ychiev, T.Alimardonov, O.Jumaev, B. Omonov, G.Sherniyozova, A.Xaydarov, U.Muhammadiev, O.Musaev

Yoshlar muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etgan olimlar G.Gerouks, M.A. Meyls, I.S.Kon, K. Mangeym, A.Lukov, A.Rudakov, P.I.Babochkin, D.Plotnikov, S.A.Bikov, L.A.Juravleva, O.I.Ivanov, I.G.Vasilev, S.N.Ikonnikov, A.I. Kovaleva, V.A.Lukov, V.V.Nexaev.

Siyosi madaniyatining konseptual asoslarini tadqiq etgan olimlar R. Dalton, L. Pay, D.Bolindjer, V.F, Devison, P.Laynbardjer, P.Serio, A. Peshe, P.Anri, R. Bart, E.I.Sheygal, A.P. Chudinov, K.V.Nikitin.

Ilmiy maqola mavzusini yoritishda ob'ektivlik, tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez kabi usullarga tayanilgan

2017 yil 5 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi . Farmonga binoan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyunь sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadi. Yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini yanada oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlovchi, “Yoshlar – kelajak bunyodkori” shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylandi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘z lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan Senat a’zosi hisoblanadi.

Siyosatshunoslarning qayd etishicha, 11 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalarda siyosiy tafakkur paydo bo‘lib, 16 yoshdan 18 yoshgacha u mo‘’tadillashish holatiga keladi . Buning ustiga, bugun fan, texnika va texnologiyaning yuksak taraqqiyoti hamda ommaviylashuvi yoshlarning kuchli siyosiy axloqiy bosim ostida yashashlariga sabab bo‘layotganligini nazardan qochirmaslik lozim. Ayniqsa, internet, mobil telefonlarining yuksak darajada rivojlanganligi, yoshlarning ongi

va qalbini egallashga qaratilgan xarakatlarining kuchayganligi ayrim yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan zaiflashuviga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Manbalarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etadi. Birgina AQSh davlati bir yilda 700 ming qo‘shiq, 6 ming klipni suratga olib tarqatmoqda. Suratga olingan qo‘shiq va kliplarda, asosan, ommaviy madaniyat va hayosiz ko‘rinishdagi illatlar targ‘ib-tashviq qilinmoqda. Bu davlat 15 mingdan ortiq fahsh jihatlarni namoyon qiluvchi internet saytlarini yaratib qo‘ygan. Hozirda global tizim tarkibida buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlaydigan kuchlarning 7000 dan ortiq veb-sahifalari ishlab turibdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi”. Shunday ekan, yoshlar siyosiy madaniyatini izchillik bilan takomillashtirib borishga jamiyatda ehtiyoj oshib boradi. Yoshlarimiz siyosiy jarayonlardan xabardor, yangi islohotlardan ko‘zlangan maqsad va ularning amalga oshish jarayonlari haqida ma’lum qarashlar va tasavvurlarga ega bo‘lishi kerak.

Jamiyatdagi ko‘plab muammolar tahlili milliy o‘zlikni anglash masalasini yana kun tartibiga qo‘ymoqda. Mustaqillik yillarida bu borada birmuncha siljishga erishildi. Urf-odatlar, qadriyat, diniy e’tiqodimiz tiklandi, muqaddas maskanlar, masjid-u madrasalar, tarixiy obidalar qayta ta’mirlanib, xalqimizga qaytarib berildi. Fuqarolarimiz ma’naviy-ruhiy olamida yangilanish, poklanish va yurti uchun g‘ururlanish hissi paydo bo‘ldi. Ta’lim-tarbiya dargohlarida yoshlarning ongiga qadimiy merosimizni bilmasdan turib, o‘zlikni anglash mumkin emasligi tushuntirilmoqda. Zero, milliy o‘zlikni anglash – o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik ekanligi yoshlar ongiga singdirilmoqda .

Bizga ma’lumki, siyosiy madaniyat insonning jamiyatda mavjud bo‘lgan siyosiy tajriba va an’analarni o‘zlashtirish darajasi ham bo‘lib, uni qo‘llash siyosiy hayotdagi vorisiylikni ta’minlay olishi lozim. Jamiyatning har bir a’zosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi, shuningdek, jamiyatda xukmron bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi va umumlashtiradi. Ayni paytda, har bir individ siyosiy madaniyat ifodalovchisi bo‘lib, u siyosiy-madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi, deb qaraladi.

Sobiq Sho‘ro tuzumi davrida shaxs davlat tazyiqi ostida yashagan. Shuning uchun fuqaro boqimandalikka moslashganligi bois, O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan paternalistik siyosiy madaniyatning ta’siri seziladi. Hozirgi O‘zbekistonning o‘ziga xos jihati shundaki, u oyoqqa turmagan yosh davlatdir. Eski tuzumdan meros qolgan sovet mentaliteti hali qisman saqlanib qolgan, ko‘pchilik mahalliychilik va millatchilik aqidalari “tuzog‘i”dan qutulmagan. Davlat tuzilishi, hatto davlat chegaralari masalasida bahslar hamon davom etmoqda. Bularning barchasi fuqarolardan mas’uliyat va

javobgarlik hissini kuchaytirishni talab etadi. Mamlakatimiz milliy rivojlanish yo‘lida vakillik demokratiyasi yo‘lini tutmoqda. Bu borada, bir tomondan davlatchilikni mustahkamlashga qonuniy intilish; ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati funktsiyalarini davlat funktsiyalari hisobiga kengaytirish tamoyili namoyon bo‘lmoqda. G‘arb mamlakatlarida nosiyosiy vositalar va institutlar yo‘li bilan hal qilinuvchi ko‘pgina ziddiyatlar bizda hali siyosiylashgan mazmunini yo‘qotmagan.

Ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, o‘z hayotini mustaqil qurishni xohlagan inson uchta asosiy omil ta’siri ostida rivojlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi;

-o‘zini saqlash, erkin tanlash va o‘zini namoyon qilish qadriyatlariga munosabati dinamikasi;

-siyosiy institutlarning demokratlashuvi yo‘lida dinamik intilishi .

Ana shu omillarning shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, shaxs siyosiy madaniyatiga ta’sir etuvchi omillarning birinchisi, siyosiy ong ekanligi ma’lum bo‘ladi. “Siyosiy ong” tushunchasi va mohiyati masalasi respublikamiz olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. “Politologiya” o‘quv qo‘llanmasida unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Siyosiy ong – muayyan individ, guruh, qatlamlar tomonidan siyosiy sohani anglashi, tasavvurlari, bilimlari, baholashi tizimidir. Siyosiy ong – kishilarning siyosiy tizim va hayot, siyosiy munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlar, tasavvurlar, maslaklar, e’tiqodlar, o‘zlari yashab turgan siyosiy tuzumga baho berishlari yig‘indisidan iboratdir” . Siyosiy ong davlatning paydo bo‘lishi bilan unda yashayotgan shaxslarda shakllana boshlaydi. Buning negizida davlatning manfaatlarini nazarda tutuvchi siyosatni olib borishi yoki olib bormasligi muammosi ko‘ndalang turadi.

Siyosiy madaniyatni rivojlantirish, uni mamlakatdagi barqarorlikning muhim omili darajasiga ko‘tarish uchun birinchidan, siyosiy ongni rivojlantirish, uni umumsiyosiy manfaatlar ruhiyatida shakllantirish zarur bo‘ladi. Siyosiy ong shakllanmagan bo‘lsa, siyosiy madaniyat haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

Yoshlar siyosiy madaniyati shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ikkinchisi, milliy ongdir. Shuni ta’kidlash kerakki, milliy ong alohida muhitda sodir bo‘ladi. Uning shakllanishiga to‘plangan bilimlar, siyosiy va huquqiy g‘oyalar, san’at va madaniyat yutuqlari, axloq, din va ijtimoiy ruhiyat ta’sir ko‘rsatadi. Milliy ong tarixiy tajribani, ajdodlar qoldirgan bilimlar va tafakkur – mantiq usullarini o‘ziga singdirib olgachgina voqelikni o‘zlashtiradi, vazifalarni o‘rtaga qo‘yadi, kelajak loyihalarini tuzadi, millatning butun amaliy faoliyatini belgilaydi. Milliy ong ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllantiriladi, milliy ong ham o‘z navbatida unga bevosita ta’sir o‘tkazadi, uni belgilaydi va tartibga soladi, milliy ongning rivoji millat o‘z orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida tabiatni, jamiyatni va o‘zini o‘zgartiradi .

Yuqoridagi omillarning tahliliga asoslanib, siyosiy madaniyatga ushbu ta’rifni berish mumkin: “Siyosiy madaniyat siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni o‘zida uyg‘unlashtirgan xolda shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar umummanfaatlar va maqsadlar yo‘lida o‘z faoliyatlarida amal qilishining ko‘rsatkichini bildiradi”. Mazkur ta’rifimizdagi muhim g‘oya siyosiy madaniyatning shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning siyosiy beqarorlik yoxud siyosiy mojarolarni hal qilishdagi ijobiy faoliyatining ko‘rsatkichi ekanligini ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi.

Siyosiy madaniyat tizimida, uning takomillashuvida, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishida yoshlarning alohida o‘rni bor. Yosh avlodning siyosatga qiziqishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok qilishga moyilligi milliy rivojlanish va xalqimiz farovonligi uchun amaliy ahamiyatga ega. Uning mamlakat siyosiy hayoti taraqqiyoti darajalaridan orqada qolishi bir tomondan uning siyosiy beqarorligi uchun xavf-xatar bo‘lsa, ikkinchi tomondan yovuz kuchlar va oqimlarning yoshlarni o‘z izmiga solishlari uchun imkoniyatni yaratib berishi mumkin.

Yoshlar siyosiy madaniyati umummadaniyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi va jamiyat hayotida amal qilayotgan siyosiy madaniyat tizimida uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, yoshlar siyosiy madaniyatiga shunday ta’rifni berish mumkin: “Yoshlar siyosiy madaniyati deganda, ularning siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari, ularni idrok etishdagi siyosiy qarashlar, siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyatlarida amal qiladigan madaniyat shakli tushuniladi”. Bu ta’rifdagi asosiy g‘oya yoshlarning siyosiy madaniyatini belgilab beradigan, ularning siyosiy hokimiyatga munosabati, siyosiy jarayonlar rivojiga qarashlari, uni idrok qilishlari va o‘z siyosiy faoliyatlarida ijobiy jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘shishdagi ishtiroki ular siyosiy madaniyatlarining muhim ko‘rsatkichi barometri ekanligini alohida ta’kidlashdan iborat.

Yoshlar jamiyat hayotida yetakchi o‘ringa ega bo‘lgan ijtimoiy guruhdir. Ular mamlakatdagi mehnat resurslarining asosiy qismini tashkil etadi va avlodlarning vorisiylik vazifasini bajaradi. Ammo, murakkab globallashuv sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatini yuqori darajaga ko‘tarish u qadar oson kechmaydi. Sababi, jamiyatda yoshlar ma’naviyati bilan bog‘liq ko‘plab muammolar to‘planib qolgan. Ayniqsa, chetdan kirib kelayotgan yot g‘oyalar, texnologiyalar targ‘ibotiga doir salbiy xolatlarning avj olayotganligi sir bo‘lmay qoldi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishga ehtiyojning oshib borishi quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan, O‘zbekistonda yangi taraqqiyot strategiyasi yo‘nalishlari belgilab olingan bo‘lib, bu murakkab vazifalarni hal qilish ko‘p jihatdan yoshlarimiz siyosiy madaniyatining qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik qadriyatlar namoyon bo‘lishi bilan bir vaqtda, unga muvofiq ravishda fikrlar xilma-xilligi, siyosiy hokimiyat uchun kurashda o‘z mavqeini mustahkamlashga intilayotgan siyosiy partiyalarning o‘z elektoratlari sonini kuchaytirish va sifatini yaxshilash borasidagi faoliyatlarining ortib borayotganligi;

Uchinchidan, mamlakatimiz yoshlari intellektual salohiyatining oshib borishi jarayonida ularning siyosiy boshqaruvga bo‘lgan qiziqishlari paydo bo‘layotganligi siyosiy madaniyatni izchillik bilan rivojlantirishni talab etadi.

To‘rtinchidan, dunyoda kechayotgan siyosiy beqarorlik, ayrim mamlakatlarda yoshlarni jarayonlarga jalb qilishga bo‘lgan harakatlar, jumladan, millatchilik, ayirmachilik g‘oyalariga berilib ketishi holati kuchayotganligi siyosiy sergaklik va siyosiy ogohlikni kuchaytirish zaruriyatini oshirmoqda.

Beshinchidan, Sharq mamlakatlarida missionerlik harakati nihoyatda kuchayib, yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirishda turli uslub va imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Xususan, moddiy jihatdan qiynalgan yoki yetim bo‘lgan yoshlarga moddiy yordam ko‘rsatish, oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalarning kontrakt to‘lovlarini to‘lash, kompьyuter kursida bepul o‘qitish, kompьyuter yoki mobil telefonlar bilan ta’minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish yo‘li orqali ayrim yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirib, ajdodlari e’tiqod qilib kelgan islom dinidan voz kechishga, boshqa dinlarga o‘tish kabi jirkanch maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. “Aslida esa missionerlar hech qachon, hech kimga beg‘araz yordam ko‘rsatmaganliklarini unutmaslik lozim” . Demak, siyosiy madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan ba’zi yoshlarning missionerlar berayotgan choy-chaqaga, moddiy “yordam”ga og‘ib ketishlari yurtimiz uchun xatarli holat hisoblanadi.

XULOSA

Siyosiy madaniyat tizimida, uning takomillashuvida, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishida yoshlarning alohida o‘rni bor. Yosh avlodning siyosatga qiziqishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok qilishga moyilligi milliy rivojlanish va xalqimiz farovonligi uchun amaliy ahamiyatga ega. Uning mamlakat siyosiy hayoti taraqqiyoti darajalaridan orqada qolishi bir tomondan uning siyosiy beqarorligi uchun xavf-xatar bo‘lsa, ikkinchi tomondan yovuz kuchlar va oqimlarning yoshlarni o‘z izmiga solishlari uchun imkoniyatni yaratib berishi mumkin.

Yoshlarning bugungi siyosiy jarayonlardan xabardorligi, ijtimoiy-siyosiy sohadagi islohotlardan ko‘zlangan maqsadlar va ularning amalga oshish jarayonlari haqida ma’lum qarashlar va tasavvurlarga ega bo‘lishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir.

Dunyoda mamlakat taraqqiyoti yer osti zahiralari bilan emas, balki yuksak darajadagi intellektual salohiyatini yuzaga keltirish va ulardan samarali foydalana bilish hisobiga sodir bo‘lmoqda. Xitoy, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, Malayziyaning boy tajribasi O‘zbekiston uchun o‘rnak bo‘larli, desak arziydi. Bunday oqilona yo‘ldan yurishda ijtimoiy-innovatsion

tafakkurga ega yoshlar hisobiga jamiyatimiz ijtimoiy guruhlarining sardori bo‘lgan ziyolilar guruhini tezroq shakllantirish vazifasini yechish zarur bo‘ladi.

Yuqoridagi siyosiy-huquqiy tadbirlar natijasida O‘zbekiston yoshlari ijtimoiy-innovatsion faolligining oshib borishi jarayonida ularning siyosiy boshqaruvga bo‘lgan qiziqishlari ham ortib boradi. Bu, o‘z navbatida, yoshlar siyosiy madaniyatini izchillik bilan rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari // respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2013 yil 22-23 yanvarь. –T.: Ma’naviyat, 2013. – B. 221-222.

2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.

3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent.: G‘. G‘ulom, 2009. B. 406.

4. Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning kontseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 169.

5. Ochildiev A, Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyati, maqsadlari, oqibatlari va oldini olish yo‘llari (yuz savolga – yuz javob). T.: Toshkent Islom universiteti, 2009. 95-b.

6. Shestomolь Ye.B. Lichnostь i politika. – M.: Politika, 1988. – S. 124.

7. Tulьchinskiy G. Politicheskaya kulьtura. Uchebnoe posobie. — M.: Yurayt, 2015. - C. 139.

8. Politologiya. Mualliflar jamoasi. Mas’ul muharrir: s.f.d.mprof. I.Ergashev. Toshkent.: Xalq merosi, 2002. –B.163.

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-22 22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI Pages: 169-173

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

APPLICATION OF A PROGRAM-TARGET APPROACH AND MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM

Abbas G. Gulmuradov
Basic Doctoral Student (PhD)
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: increasing labor efficiency, railway transport activities, sustainable development, management

Received: 28.06.24
Accepted: 30.06.24
Published: 02.07.24

Abstract: The first step, and also an important part of improving the efficiency of railway workers, is to offer interesting solutions to the problem and attract the attention of employees. This is very important for collecting ideas about employees' active participation in work activities and the development of their experience. It is also important to enrich the content of the topic with small elements, for example, encouraging discussion among employees, holding debates on the topic, providing opportunities for comparison between the employee and other employees. This method can be very effective in attracting employees' attention and increasing their interest in the topic.

XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA DASTURIY-MAQSADLI YONDASHUV VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASH

Abbos G. Gulmurodov
Tayanch doktorant (PhD)
O‘zbekiston Milliy Univertiseti
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ish samaradorligini oshirish, temir yo'l transporti faoliyati, barqaror rivojlanish, boshqaruv.

Annotatsiya: Temir yo‘l transporti hodimlarining mehnat samaradorligini oshirishning birinchi qadami, shuningdek, muhim qismi, muammo yuzasidan qiziqarli yechimlarni berish va hodimlarning e’tiborini tortishdir. Bu, hodimlarning mehnat

faoliyatida faol qatnashishga va o’z tajribalarini rivojlantirishiga oid fikrlarni to’plashda juda muhimdir. Shuningdek, mavzu mazmunini kichik elementlar bilan boyitish, masalan, hodimlarning bahs-mulohazalarini rag‘batlantirish, mavzu bo‘yicha debatlar o‘tkazish va xodimni boshqa xodimlar bilan taqqoslash imkoniyatlarini taqdim etish ham muhimdir. Bu usul, hodimlarning e’tiborini tortish va ularni mavzuga qiziqishini oshirishda o’ta samarali bo‘lishi mumkin.

ПРИМЕНЕНИЕ ПРОГРАММНО-ЦЕЛЕВОГО ПОДХОДА И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УПРАВЛЕНИЯ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ

Аббас Г. Гулмурадов
Базовый докторант (PhD)
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: повышение эффективности труда, деятельность железнодорожного транспорта, устойчивое развитие, менеджмент.

Аннотация: Первым шагом, а также важной частью повышения эффективности работы железнодорожников является предложение интересных решений проблемы и привлечение внимания сотрудников. Это очень важно для сбора представлений об активном участии сотрудников в трудовой деятельности и развитии их опыта. Также важно обогащать содержание темы небольшими элементами, например, поощрять обсуждение сотрудниками, проводить дебаты по теме, предоставлять возможности для сравнения сотрудника с другими сотрудниками. Этот метод может оказаться очень эффективным для привлечения внимания сотрудников и повышения их интереса к теме.

INTRODUCTION

In modern conditions, economic systems of various levels are actively improving the process of planning current production and financial activities, establishing a strategy and program for expanding production based on market demand, as well as obtaining high profits, solving operational and technical planning problems. The dissertation states that a program approach to enterprise management is important, it allows you to ensure that the plan is focused on achieving final results in a short period of time, timely identification of problems of socio-economic development, and setting strategic goals and objectives. and their effective solution.

THE MAIN RESULTS AND FINDINGS

Sustainable economic growth is a necessary condition for the economic and social development of any system. On the other hand, sustainable business development is one of the factors in achieving high economic results.

The essence of the concept of process planning comes from the basic economic concepts of organizational management: process management, cost management, stability and sustainable development, cost budgeting, control and situational planning. [1]

The main reason for using process management in an organization is related to the ability to see and control everything that happens in the enterprise, to identify and eliminate production problems and business difficulties. At the same time, the process approach allows you to quickly respond to changes in external conditions and consumer needs. [2]

The technological approach is of great importance for the efficiency of the enterprise, in which input and output processes are control points for correcting the quality of processes, resources are converted into finished products, the technological approach is used to achieve business goals in the field of product quality, and is also the main methodology for the development and operation of the management system quality of enterprises. [3]

When developing approaches to the formation of management decisions taking into account the enterprise as an integral system, it is necessary to take into account modern trends and problems, for example:

1. Strengthen the interaction of vertical and horizontal networks of enterprise managers. This process allows us to solve important problems of coordinating the interests of economic and social development of the enterprise and the country.

2. The full cycle of enterprise management, including preparation, coordination, adoption, communication to managers and control of the implementation of management decisions, is carried out more efficiently through the implementation of programs at the enterprise.

Sometimes it is difficult to determine the direct connection between the results of program activities and the general indicators of enterprise development (gross enterprise product, level of income, sales, etc.).[4]

The patterns of connection and interaction of management decisions at the macro, meso and micro levels have not been fully studied.

The program considers establishing the order, steps and mechanism for managing the process of consistently achieving goals. [5,6]

Software-oriented management can be used at all stages of enterprise management.

The software-oriented approach can be intelligently used for other purposes:

- implementation of a specific program related to the targeted distribution of resources;

- making changes to the strategic development plans of the enterprise;

- improvement of the enterprise economic management system.

The practical value of the program-target approach in enterprise management helps to identify the main problems of socio-economic development, set strategic tasks and goals and solve them in a limited period of time. [7]

It is necessary to formulate a set of program activities, calculate the costs and time for implementing the program, draw up a schedule of activities, clarify the roles of the performers and their relationships.

The main content of the production program consists of information about the state of production volumes, the quantity of products produced and the conditions for supplying products to end consumers. This information serves as the basis for construction plans: material resources, personnel, finances, modernization plan, implementation plan, etc.

Resource support is the main tool of program management, ensuring its functioning, modernization of the material and technical base of the organizational system, effective work of employees, development of intellectual capital, and introduction of innovations. At the same time, the organizational system is provided with a limited number of integrated resources, which are distributed between the stages of operation and development of the system components.

The organization of a program-targeted management process at an enterprise is ineffective without the creation of special program-target structures.[8]

CONCLUSION

Thus, a program-targeted approach to enterprise management is important at the stage of planning the enterprise's production program; it is necessary to ensure that the plan is focused on achieving final results, and to immediately identify problems in the social sphere. -economic development and problem solving, allows you to identify tasks. Cost planning of the production program is directly related to the physical planning of the production program with financial calculations.

REFERENCES

1. Трубилин, И. Т., Говдя, В. В., & Дегальцева, Ж. В. (2009). Учет затрат, калькулирование и бюджетирование в отраслях АПК. - 434 с.

2. Авдеева, И. Л. (2022). Методология стратегического управления изменениями в контексте современных вызовов и возможностей экономики. *Среднерусский вестник общественных наук*, *17*(1), 186.

3. Ружанская, Л. С., Фонова, Н. Г., Бурлакова, И. В., Сторожева, О. С., Пьянков, А. Г., Зубакина, Д. А., ... & Беляева, В. С. (2017). Общий менеджмент: учебное пособие.

4. Гужина, Г. Н., & Жилина, Ж. А. (2023). ПРОЕКТНЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ И БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ. *Управленческий учет*, (9), 293-300.

5. Гараев, О. Р., & Мусаева, Х. М. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА В СУБЪЕКТАХ РФ КАК ИНСТРУМЕНТ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ. *Деловой вестник предпринимателя*, (3 (9)), 42-46.

6. Герасикова, Е. Н., & Соловьева, Н. А. (2021). Проектное управление и акселерационные механизмы как направления развития бизнес-мышления молодых предпринимателей. *Среднерусский вестник общественных наук*, *16*(1), 255-270.

7. Головина, Т. А., & Авдеева, И. Л. (2021). Превентивное стратегическое управление экономическими системами в условиях кризиса. *Деловой вестник предпринимателя*, (2 (4)), 24-28.

8. Парахина, Л. В., Власова, Н. С., & Мусаев, М. М. (2023). РАЗВИТИЕ ПРОГРАММНО-ЦЕЛЕВОГО ПОДХОДА В УПРАВЛЕНИИ СОВРЕМЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ. *Вестник Академии знаний*, (2 (55)), 458-463.

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-23 12.00.00 – YURIDIK FANLAR Pages: 174-180

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

PARTICIPATION OF PROSECUTOR'S OFFICES IN THE FORMATION OF LEGAL KNOWLEDGE AND CULTURE IN SOCIETY

Khushbokova N.G.
Student
Termiz State University
Termiz, Uzbekistan
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal consciousness, prosecutor's office, legal culture, society, democratic state, regulations, administration, etc.

Received: 28. 06. 24
Accepted: 30. 06. 24
Published: 02. 07. 24

Abstract: The formation of legal knowledge and culture in the society is a program for the democratic development of the country in the future. Projects and research in this direction are commendable. This article describes in detail the importance of prosecutor's offices in the formation of legal knowledge of society representatives.

JAMIYATDA HUQUQIY BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PROKURATURA ORGANLARINING ISHTIROKI

Xushboqova N.G‘
Talaba
Termiz Davlat universiteti
Termiz, O‘zbekiston
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, prokuratura, huquqiy madaniyat, jamiyat, demokratik davlat, nizom, mamuriyat va h. k.

Annotatsiya: Jamiyatda huquqiy bilim va madaniyatni shakllanishi kelgusidagi mamlakatning demokratik rivojlanishi uchun dasturilamal hisoblanadi. Bu yo‘nalishda esa qilinayotgan loyihalar va izlanishlar tahsinga sazovor. Ushbu maqolada jamiyat vakillarining huquqiy bilimlarini shakllantirishda prokuratura organlarining ahamiyati haqida atroflicha bayon qilinadi.

УЧАСТИЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ И КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Хушбокова Н.Г.
Студент
Термезский государственный университет
Термез, Узбекистан
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правосознание, прокуратура, правовая культура, общество, демократическое государство, нормативные акты, управление и др.

Аннотация: Формирование правовых знаний и культуры в обществе является программой демократического развития страны в будущем. Проекты и исследования в этом направлении заслуживают похвалы. В данной статье подробно описывается значение органов прокуратуры в формировании правовых знаний представителей общества.

KIRISH

Fuqarolarning huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak darajada bo‘lsagina, ular ijtimoiy hayotda bo‘layotgan o‘zgarishlarga faol munosabatda bo‘lishadi, shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishi mumkin bo‘ladi. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o‘z navbatida, davlat va jamiyat hayotini isloh qilish, amaldagi qonun hujjatlarini tanqidiy tahlildan o‘tkazish, davr talablaridan kelib chiqib, ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, eskirgan va taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan me’yorlarni bekor qilish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5618-son Farmoniga muvofiq, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi”. 2019-yil 13-dekabrdagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4551-son qarori huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan ushbu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Huquqiy ong sub’yektiv ongning shakllaridan biri bo‘lib, u insonlarda huquq talablari yuzasidan ijobiy yoki salbiy munosabatni ishlab chiqishiga ta’sir etadi. Huquqiy ong tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

huquqiy ong bu jamiyatning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadigan ijtimoiy ongning muhim bir tarkibiy qismi bo‘lgan, insonlarning huquq, siyosiy-huquqiy hodisalar, yuridik amaliyot, huquqiy tizim va istalayotgan, kutilayotgan huquq haqidagi fikrlari, o‘ylari, his-tuyg‘ulari, qarashlari, iztirob-kechinmalari hamda baholari va tasavvurlari majmuasidir.

“Har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydigan, qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat ta’limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi”-degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning shiddat bilan o‘sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy- siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo‘lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta’minlab bergan ko‘plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o‘rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi.

ASOSIY QISM

Mashhur fransuz huquqshunosi Rene David prokuratura roman-german huquq tizimida paydo bo‘lganligiga urg‘u bergan. Shuning uchun ham milliy prokuratura Yevropada birinchi bo‘lib Fransiyada vujudga kelgan. Fransiyadagi prokuratura tizimidan dunyodagi aksariyat davlatlar andoza olishgan. Shu tariqa boshqa davlatlarda prokuratura asta-sekin shakllandi. Professor B. X. Po‘latovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshira turib, respublikadagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatlarga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarning ro‘yxatga olinishi, qonunda belgilangan dastlabki tekshirish muddatlari va tartib qoidalariga rioya qilinishi, jinoyatlarga oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi ustidan nazorat qiladi.

Prokuratura organlari, shu jumladan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘liq bajarilishini ta’minlash uchun, avvalo, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, tayinlash, tarbiyalash, ularning kasb mahorati va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy e’tibor xodimlarning o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyatini tubdan o‘zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish, o‘z ishining ustasi bo‘lib shakllanishiga erishishga qaratilmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosariga, o‘rinbosarlariga ega bo‘ladi.

Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvar PF-5618- sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonni qabul qilish zarurati:

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti;

- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

- Aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

“Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillash-tirish to‘g‘risida» gi farmoniga muvofiq “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi’’ ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashdan iborat.

Prokuratura - bu davlat tomononidan o‘rnatilgan konstitutsiyaviy qonunlarga rioya qilinishi ustidan narozat qiluvchi organ xisoblanadi. Jinoiy ishlarni qo‘zg‘atish, ayblovni yoqlash, sud protsessida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi xam xisoblanadi. «Qonun qabul qilish — bu ishning yarmi, xolos. Ularning hayotga to‘la tatbiq qilinishiga erishish darkor. Buning uchun qabul qilingan qonunlarning kundalik turmushimizda amalga oshishini ta’minlovchi ta’sirchan mexanizm yaratish lozim». Bu fikrlari bilan muhtaram birinchi prezidentimiz prokuratura organlarining, jamiyatdagi roli haqida tushuntirib o‘tganlar. Prokuratura xodimlari ishlab chiqilgan qonunlarning amalga tadbiq etilishida roli kata desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak prokuratura organlari mamlakatda qonunlarning amal qilishi ustidan nazorat olib boradigan organ hisoblanadi. Shu o‘rinda alohida takidlab o‘tish joizki, prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tuman va shahar

prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi; O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturalariga bo‘linadi. Qonunchilikka ko‘ra mamlakatimizda Bosh prokuror va uning birinchi o‘rinbosarini respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etadi. Bosh qomusumizning 145-moddasida O‘zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o‘z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o‘zga tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga bo‘ysungan holda amalga oshiradi degan qoida mustahkamlanganligi so‘zimizning isbotidir.

Shu o‘rinda takidlash lozimki, prokuratura organlarining vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a’zolikni to‘xtatib turadilar xamda mazkur organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil etish jarayonida quyidagi xolatlarni takidlab o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari prokuraturasining faoliyat strukturasini xaqida professor Anjela. J. Devies quyidagilarni takidlaydiki. Prokurorlar Amerika jinoiy adliya tizimidagi eng kuchli amaldorlardir. Ular qabul qiladigan qarorlar, ayblov va sud qarorlari tizimning ishlashini nazorat qiladi va ko‘pincha jinoiy ishlarning natijalarini oldindan belgilab beradi.

XULOSA

Yangi O‘zbekiston konstitutsiyasida prokuratura organi xodimlarining vazifalari, xizmat jarayoni va javobgarlik masalalari aniq qilib belgilab berilganligi xaqida alohida takidlash o‘rinlidir. Yana bir muhum masala Konstitutsiyamizning 146-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanishi davlat tomonidan nazoratga olingan. Yangi, tergov va surishtiruv, tezkor-qidiruv organlarinin, xususiylashtirilishiga ruxsat etilmaydi. Biroq AQSH davlatida xususiy tergov firmalari tashkil etish uchun ruxsat etiladi. Shuningdek xususiy tergovchi - bu jismoniy shaxs, agentlik yoki korporatsiya tomonidan boshqa shaxs, tadbirkorlik sub'ekti, odamlar guruhi yoki hatto joylashgan joy haqida ma'lumot to‘plash uchun yollangan shaxs xisoblanadi. Tergovchining faoliyati mahalliy qonunchilik va shtat qonunlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan tergov sub'ektlariga asossiz ta'sir ko‘rsatmasligini ta'minlash uchun tergov mutaxassislari tomonidan ma'lum qoidalar va qoidalarga rioya qilish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki prokuratura organlari mamlakatimizda qonunlarning ijro etilishi va ularga qat’iy amal qilishi ustidan nazorat olib boriladi. Bu haqida Bosh qomusimizda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari «Prokuratura to‘g‘risidagi qonun»da ham prokuratura

xodimlarining xizmat vazifalari, majburiyatlari sifatida qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat, ekanligi belgilangan.

Jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash hamda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro‘yobga chiqarishga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlarning so‘zsiz ijro etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish orqah xalq manfaatlariga xizmat qiiish prokuratura organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi. Birinchidan, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini so‘zsiz bajarishni, amalga oshirilayotgan islohotlarga to‘siq bo‘luvchi omillar va tizimli kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etishni; tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llabquvvatlash hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni; aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ochiq muloqot o‘rnatishni, fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida hal qilishni, aholining huquqiy madaniyatini oshirishni, jamiyatda qonun buzilishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni; profilaktika tadbirlarining, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasidagi tadbirlarning ta’sirchanligini, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etishni; kam ta’minlangan oilalarni manzilli ijtimoiy himoya qilishni, yangi ish o‘rinlari yaratish dasturlarini amalga oshirishni, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lashni; malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni, aholiga arzón dori vositalari yetkazishni, ta’lim jarayonining siíati va ta’lim muassasalarida o‘quvchilar davomatini hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishni; fuqarolarga arzón uy-joy ajratishni, uy-joy sotib olish uchun birinchi navbatda yosh oilalar, yetim bolalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishni, sifatli kommunal xizmat ko‘rsatish va hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirishni; tabiiy resurslar, yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlashga asosiy e’tibor qaratilishi lozimligi mustahkamlab qo‘yildi.

Prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradilar. Prokuratura organlarining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. Prokurorning g‘ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga qanday shaklda bo‘lmasin, biron-bir ta’sir ko‘rsatish yoki faoliyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilish, uning daxlsizligiga tajovuz qilish, shuningdek prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tekshirishlar va dastlabki tergov ma’lumotlarini oshkor etish, prokurorning talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Shu prinsiplarga amal qiiish prokuratura organlariga o‘zining vazifasini aniq bajarishga imkon beradi. Prinsiplarni prokurorlik funksiyalari va yo‘nalishlarini amalga oshirishning tartibi va holati bilan almashtirmaslik kerak, chunki tamoyillar o‘zaro bog‘liq va ajralmas hisoblanadi. Bundan tashqari, prokuror muayyan huquq sohasida nazoratni amalga oshirar ekan, shu sohadagi prinsiplarga amal qilishi lozim. Bunga misol: sudlarda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlaganda adolatlilik, sudyalarning mustaqilligi, tenglik, sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, oshkoralik, erkin fikr, protsessning bevositaligi kabi prinsiplarga amal qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M. M. Inagamova. M. E. Fahriddinov. Konstitutsiya – inson qadri va adolat ustuni / «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» mavzusidagi ilmiy amaliy konfirensiya. – Toshkent. Republican Scientific and Practical Conference. December 1 https://tstu. uz/. Tashkent State Transport University The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. 324-329-b.

2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01. 05. 2023-y. , 03/23/837/0241-son

3. Anjela, J. Davis, “Amerika prokurorining vakolati va ixtiyori” https://journals. openedition. org/droitcultures/1580?lang=en

4. Xususiy tergov xizmatidan foydalanish. Regina Strait tomonidan tahrirlangan, Esq. https://www. peoples-law. org/using-private-investigation-service

5. Xususiy tergovchi qila oladigan va qila olmaydigan narsalar. https://privin. net/what-can-a-private-investigator-do-and-not-do/

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-24 12.00.00 – YURIDIK FANLAR Pages: 181-187

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



THE SUBJECT OF THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE PARTICIPATION AND FOUNDATIONS OF CRIMINAL RESPONSIBILITY

Shokhrukh M. Mirkhalikov
Officer, captain
National Guard of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

Laziz B. Omonov
Officer, senior lieutenant
National Guard of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Criminal law, person, society, retrospective, Supreme state power, principles.

Received: 28. 06. 24
Accepted: 30. 06. 24
Published: 02. 07. 24

Abstract: In this article, the concept, subject, tasks and principles of criminal law in the Republic of Uzbekistan, the concept of crime, its signs and the basis of criminal liability, social relations of criminal law norms with regard to the interests of the individual, society and the state, the tasks of criminal law, the state's fight against crime Information about implementation through the policy in the field is given.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQINING PREDMETI VA JINOIY JAVOBGARLIK ISHTIROKI VA ASOSLARI

Shoxrux M. Mirxalikov
Ofitser, kapitan
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent, O‘zbekiston

Laziz B. Omonov
Ofitser, katta leytenant
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Jinoyat huquqi, shaxs, jamiyat, retrospektiv, Oliy davlat hokimiyati, prinsiplar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston respublikasida jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, vazifalari va prinsiplari, jinoyat tushunchasi uning belgilari

va jinoiy javobgarlik asoslari, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda jinoyat huquqi normalarining ijtimoiy munosabatlari, Jinoyat huquqining vazifalari davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosati orqali amalga oshirilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

ПРЕДМЕТ УГОЛОВНОГО ПРАВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И УЧАСТИЕ И ОСНОВАНИЯ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Шохрух М. Мирхаликов
Офицер, капитан
Национальная гвардия Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

Лазиз Б. Омонов
Офицер, старший лейтенант
Национальная гвардия Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Уголовное право, личность, общество, ретроспектива, высшая государственная власть, принципы.

Аннотация: В данной статье раскрыты понятие, предмет, задачи и принципы уголовного права в Республике Узбекистан, понятие преступления, его признаки и основания уголовной ответственности, общественные отношения норм уголовного права с учетом интересов личность, общество и государство, задачи уголовного права, борьба государства с преступностью. Приводятся сведения о реализации проводимой политики в данной сфере.

KIRISH

Jinoyat huquqi - huquq fanining qaysi qilmishlari sudda jinoiy va jazolanishini belgilovchi sohasi. Jinoyat huquqining vazifalari: shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, mulkini, tabiiy muhitini, jamoat va davlat manfaatlarini hamda butun qonun va tartibni jinoiy xurujlardan himoya qilish, shuningdek, tinchlik va insoniyat xavfsizligini himoya qilishga ko‘maklashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va uning qonunlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash. Jinoyat huquqi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- qonuniylik;
- fuqarolarning jinoyat qonuni oldida tengligi;
- Demokratiya;
- insonparvarlik;
- adolat;

- Aybdor javobgarlik.

ASOSIY QISM

Jinoyat - jazo tahdidi ostida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat, harakatsizlik). Jinoyat, eng avvalo, qilmishning ijtimoiy xavfliligi bilan tavsiflanadi. Uning komissiyasi ijtimoiy munosabatlarga jiddiy zarar yetkazadi. Biroq, jamoat xavfi har xil bo‘lishi mumkin. Mayda bezorilikning bir ijtimoiy xavfi bor, o‘g‘irlik, badanga og‘ir shikast yetkazish va qotillik boshqa. Binobarin, Jinoyat kodeksiga ko‘ra, jinoiy javobgarlikka faqat jinoyat qonunida taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan shaxslargina tortiladi.

"Jinoyat javobgarligi" tushunchasi ikkita jihatni o‘z ichiga oladi: psixologik va huquqiy. Ushbu kontseptsiyaning psixologik jihati shaxsning jinoyat qonuni talablariga qat'iy rioya qilish va u bilan taqiqlangan jinoiy harakatlarni sodir etmaslik bo‘yicha o‘zining fuqarolik burchini anglashida ifodalanadi. O‘zining huquqiy ma'nosida "jinoiy javobgarlik" tushunchasi jinoyat sodir etishning aybdorga nisbatan aybdorlik, jinoiy jazo yoki boshqa ta'sir choralarini qo‘llashda ifodalangan huquqiy oqibatini anglatadi. Bu ta’rifdan kelib chiqadiki, yuridik ma’noda jinoiy javobgarlik shaxs jinoyat sodir etgan taqdirdagina yuzaga keladi. Jinoiy javobgarlik aybdorga nisbatan birinchi navbatda jinoiy jazo shaklida ifodalangan davlat majburlov choralarini qo‘llashni nazarda tutadi.

Ishtirokchilarning vazifalari har xil bo‘lishi mumkin:

- ijro etish,
- tashkil etish,
- qo‘zg‘atish
- va sheriklik.

Jinoyatchi - jinoyatni o‘zi sodir etgan yoki uni sodir etishda boshqa shaxslar bilan birgalikda bevosita ishtirok etgan, shuningdek qonunga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan boshqa shaxslardan foydalangan holda jinoyat sodir etgan shaxs.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish nafaqat shaxs jinoyatni to‘liq sodir etganida, balki u moddada ko‘rsatilgan qilmishning kamida bir qismini sodir etganida ham tan olinadi.

Tashkilotchi - jinoyat sodir etilishini tashkil etgan yoki uni tayyorlash yoki sodir etilishini nazorat qilgan shaxs. Jinoyatni tashkil etish deganda ishtirokchilarni tanlash va tayyorlash, ularni asbob va vositalar bilan ta’minlash, hujum rejasini ishlab chiqish tushuniladi.

Rahbarlik - jinoyat sodir etish jarayonida sheriklar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, ularga ko‘rsatmalar berish.

Qo‘zg‘atuvchi - kimnidir jinoyat sodir etishga undaydigan shaxs. Rag‘batlantirish deganda o‘zganing jinoyat sodir etishga qat'iy qarorini uyg‘otish tushuniladi. Jinoyatning sodir etilishiga maslahat, ko‘rsatma, mablag‘ berish yoki to‘siqlarni bartaraf etish bilan ko‘maklashuvchi,

shuningdek jinoyatchini, jinoyat qurollarini, vositalarini yoki izlarini yashirishni oldindan va'da qilgan shaxs sherikdir. yoki jinoiy yo'l bilan olingan narsalarni sotib olish yoki sotish. Ishtirokchilik oddiy, murakkab, uyushgan guruh va jinoiy jamoaga bo'linadi.

Jinoiy jazo - jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan sud hukmi bilan davlat nomidan qo'llaniladigan, mahkumni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklaridan mahrum qilish yoki cheklashdan iborat bo'lgan majburlov chorasi. Jinoyat kodeksida jazo mahkumlarni tuzatish, shuningdek, mahkumlar tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llanilishi ta'kidlangan. Jazo jismoniy azob yoki inson qadr-qimmatini kamsitish uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasida jinoiy jazoning quyidagi turlari nazarda tutilgan;

- yaxshi;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- axloq tuzatish ishlari;
- xizmat ko'rsatish cheklovlari;
- hibsga olish;
- intizomiy qismga yuborish;
- ozodlikdan mahrum qilish;

Ushbu asosiy jazolardan tashqari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qo'shimcha jazolar ham qo'llanilishi mumkin.

Keng ma 'noda jinoyat huquqining predmeti deganda, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda jinoyat huquqi normalarining ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish tartibi tushuniladi. Jinoyat huquqining predmeti bo'lib, ijtimoiy salbiy (zarar keltiruvchi), ya'ni jinoiy tajovuz vaqtida vujudga keladigan jamiyat manfaatlariga zarar keltiruvchi munosabatlar hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, huquq nazariyasida ikki turdagi:

1. Salbiy (retrospektiv), ya'ni sodir etilgan huquqbuzarlikning oqibati sifatida vujudga keluvchi;
2. Ijobiy (prospektiv), ya'ni ijtimoiy foydali va qonunda ruxsat berilgan xatti-harakat (faoliyat) natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar nazarda tutiladi.

Bunday turdagi har ikki ijtimoiy munosabat ham jinoyat huquqining tartibga solish predmeti bo'lib hisoblanadi. Salbiy ijtimoiy munosabatlar o'zidan o'zi ma'lumki, jinoiy qilmish sodir etilishi bilan yuzaga kelib, jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish va uning qilmishiga yarasha jazo tayinlash bilan bog'liq.

M. Usmonaliyevning fikriga ko‘ra, «... jinoyat huquqining asosiy vazifasi jinoyat uchun jazolash emas, balki ijtimoiy munosabatlami har qanday tajovuzlardan himoya qilishdir». Lekin bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki barcha huquq sohalari kabi jinoyat huquqi ham o‘zining predmeti hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlami tartibga soladi. Jinoyat huquqi tartibga soluvchi predmet hisoblangan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish bilan birga ularni muhofaza qilish funksiyasini ham bajaradi. Jinoyat huquqining vazifalari Jinoyat kodeksida aniq belgilangan bo‘lib, kodeksning 2-moddasiga ko‘ra, jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek, jinoyatlarni oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Jinoyat huquqining vazifalari davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosati orqali amalga oshiriladi. Uning asosiy mazmuni jinoyat qonunining amalda qo‘llanilishi taktikasi va strategiyasini belgilash hamda jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy-huquqiy choralarni ishlab chiqish va amalda qo‘llanishida ifodalanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi siyosatning asosiy qoidasi jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini amalga oshirishidan iboratdir. Bunday siyosat qonun talablariga to‘la va so‘zsiz rioya qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipiga asoslangan holda amalga oshirilishi kerak.


Jinoyat huquqi prinsiplari
Qonuniylik prinsipi (JKning 4-moddasi)
Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi (JKning 5-moddasi)
Demokratizm prinsipi (JKning 6-moddasi)
Insonparvarlik prinsipi (JKning 7-moddasi)
Odillik prinsipi (JKning 8-moddasi)
Ayb uchun javobgarlik prinsipi (JKning 9-moddasi)
Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi (JKning 10-moddasi)

Jinoyat huquqining muhofaza qilish va oldini olish vazifalari faqatgina jinoyat huquqi prinsiplariga qat'iy rioya qilinishi orqali bajarilishi mumkin.

Jinoyat huquqi prinsiplari haqida tola ma'lumot olish uchun quyidagi masalalarga e'tibor berish kerak:

1. Jinoyat huquqi prinsiplari tushunchasi, belgilari va ularning ahamiyati;

2. Prinsiplarning jinoyat huquqida qo‘llanilishi va ularning harakatlanish mexanizmi;

3. Jinoyat huquqi prinsiplari tizimi

Jinoyat huquqi prinsiplari deganda, umuman jinoyat huquqi yoki uning alohida institutlari mazmunini ifodalovchi, jinoyat huquqi normalarida mustahkamlangan boshlang‘ich asos, asosiy g‘oyalar tushuniladi. Prinsiplar jinoyat qonunida mustahkamlangan demokratik davlatning jinoyat-huquqiy siyosati mohiyatini va hozirgi yo‘na-lishlarini ifodalaydigan, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik negizlari, chegaralari va shakllari haqida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy va huquqiy tasawurlarni aks ettiradigan yetakchi g‘oyalar va asosiy qoidalardir.

Jinoyat huquqi prinsiplari — jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida qonun chiqaruvchi, qonunni amalda qo‘llovchi organlar va barcha fuqarolar uchun majburiy bo‘lgan asosiy qoidalar.

Jinoyat huquqi prinsiplari quyidagi:

a) xalqaro va milliy huquq normalariga mos kelishi;

b) jinoyat huquqi prinsiplarining fundamental xususiyatga ega ekanligi;

d) jinoyat huquqi prinsiplarining o‘zaro aloqadorligi kabi belgilarga ega.

Jinoyat kodeksida belgilangan prinsiplar:

a) qilmishning jinoiyligi faqat Jinoyat kodeksi bilan aniq-lanishi;

b) jazo va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanishi;

d) Jinoyat kodeksining jinoyat huquqi uchun yagona manba ekanligi;

e) shaxsning jinoyatni sodir etishdagi aybliligi yoki unga qo‘yilgan aybda aybsizligini faqat sud tomonidan aniqlanishi;

f) jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarining faqat sud tomonidan qo‘llanishi;

g) jinoyatni sodir etishda aybdor, deb hisoblangan shaxsni huquqiy holati faqat qonun bilan belgilanishi;

h) barcha huquqni amalda qo‘llaydigan idoralarning jinoyat qonunining mazmunini o‘z vakolatlari doirasida va Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan aniq matnga muvofiq sharhlash majburdirlar, qoidalaridan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jinoyat huquqi prinsiplari tizimi deganda, jinoyat qonun-chiligidagi qoidalarning normativ asosini belgilab beruvchi jinoyat huquqi prinsiplarining yig‘indisi tushuniladi. Jinoyat huquqi prinsiplarining tizimi Jinoyat kodeksining 3-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: TDYUU, 2018. – 220 bet

2. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiaya. Darslik. – T.: TDYUU, 2018

3. X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.: Adolat, 2018. – 528 bet.

4. Jinoyat-protsessual huquqi (Umumiy qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. https://library.tsul.uz/category/jinoyatprotsessual-huquqi.

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-25 12.00.00 – YURIDIK FANLAR Pages: 188-194

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

REVIEW AND RESOLUTION OF APPEALS OF INDIVIDUALS AND LEGAL ENTITIES BY THE PROSECUTOR'S OFFICE

Nigora G. Khushbokova
Student
Termiz State University
Termiz, Uzbekistan
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

ABOUT ARTICLE

Key words: citizens, appeals, rule of law, prosecutor's office, constitutional law, individuals and legal entities, etc.

Received: 28. 06. 24
Accepted: 30. 06. 24
Published: 02. 07. 24

Abstract: In our country, the scope of measures for citizens to express their opinions freely, to solve their problems and to protect their constitutional rights is expanding. It is in this direction that the issue of reviewing citizens' appeals and providing a satisfactory solution is a programmatic action. This article describes in detail the approach of the prosecutor's office in considering the appeals of physical and legal citizens.

PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARINI KO‘RIB CHIQISH VA HAL QILISH

Nigora G'. Xushboqova
Talaba
Termiz Davlat universiteti
Termiz, O‘zbekiston
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: fuqarolar, murojaatlar, qonun ustuvorligi, prokuratura organlari, konstitutsiyaviy huquq, jismoniy va yuridik shaxslar va h.k.

Annotatsiya: Mamlakatimizda fuqarolarning erkin fikr bildira olishi, muammolarini hal qilish va ularning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Aynan ushbu yo‘nalishda fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish va qoniqarli yechim berish masalasi dasturil amal hisoblanadi. Ushbu maqolada jismoniy va yuridik fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqishda prokuratura organlarini faoliyati

tomonidan yondashuvni atroflicha bayon qilinadi.

РАССМОТРЕНИЕ И РАЗРЕШЕНИЕ ОБРАЩЕНИЙ ФИЗИЧЕСКИХ И ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ ПРОКУРАТУРОЙ

Нигора Г. Хушбокова
Студент
Термезский государственный университет
Термез, Узбекистан
E-mail: Nigora.0303@icloud.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: граждане, обращения, правопорядок, прокуратура, конституционное право, физические и юридические лица и т.д.

Аннотация: В нашей стране расширяется объем мер, позволяющих гражданам свободно выражать свое мнение, решать свои проблемы и защищать свои конституционные права. Именно в этом направлении вопрос рассмотрения обращений граждан и вынесения удовлетворительного решения является программным действием. В данной статье подробно описан подход прокуратуры при рассмотрении обращений физических и юридических граждан.

KIRISH

O‘zbekistonda shaxslarning davlat organlari va muassasalariga murojaat qilish huquqi Konstitutsiyaning 35-moddasida belgilab qo‘yilganidek, konstitutsiyaviy kafolatlangan. Mazkur qoida har bir shaxsga tegishli davlat organlari, vakillar yoki muassasalar bilan bevosita muloqot qilish, ariza, taklif yoki shikoyat bilan murojaat qilish imkonini beradi. Unda davlat organlari va mansabdor shaxslar ushbu xabarlarni ko‘rib chiqishda qonuniy tartib va muddatlarga rioya etishlari shart. Konstitutsiya murojaatlarning ruxsat etilgan turlari doirasini kengaytirib, shaxslarga ushbu huquqdan yakka tartibda yoki birgalikda foydalanish huquqini berdi. Murojaatlarni rasmiy ko‘rib chiqish qonuniy protokollar va muddatlarga rioya qilish uchun talab qilinadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng turli huquqiy hujjatlar, jumladan, sud murojaatlari, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunlar bilan murojaat qilish huquqi tartibga solingan. Mamlakat bunday murojaatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Ta'kidlash joizki, virtual prezidentlik va hukumat lobbilarini tashkil etish kabi tashabbuslar jarayonni modernizatsiya qilish va tartibga solishga qaratilgan. 2017-yilda qayta ko‘rib chiqilgan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi fuqarolar murojaatlariga aniqlik kiritgan muhim voqea bo‘ldi. Ushbu qayta ko‘rib chiqilgunga qadar qonunning 2002 yilgi tahririda yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha aniqlik yo‘q edi va

elektron murojaatlar alohida toifa sifatida ko‘rib chiqilmagan. Mazkur huquqiy islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga murojaat qilish jarayonini zamon talablari bilan muvofiqlashtirish va fuqarolarning qoniqish darajasini oshirishdan iborat.

ASOSIY QISM

Bunday yondashuv, o‘z navbatida, davlat organlarining murojaatlarni ko‘rib chiqish majburiyatini so‘zsiz bajarishni, murojaatlarni berish tartibiga rioya qilishni, sohaviy amaliyotni bugungi kun talablariga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Qonunining har bir normasi zamirida millionlab odamlar taqdiri, ularning haq-huquqlari himoyasi mujassam. Zotan, fuqaroning murojaat etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan, unga ko‘ra har bir shaxs davlat organiga ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari” to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, davlat organlari va muassasalari fuqarolar murojaatlarining qonuniyligini, tezkor va har tomonlama ko‘rib chiqilishini, izchil me’yorlar qo‘llanilishini ta’minlash uchun mas’uldir. Unda ko‘rib chiqish jarayonida byurokratik to‘siqlar va senzuraga yo‘l qo‘ymaslik bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhimligi ta’kidlangan. Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ochiqligi asosiy tamoyil sifatida qayd etilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar kabi har xil turdagi murojaatlar bilan, ularning shakllaridan qat’i nazar, har biriga bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan holda murojaat qilish huquqini saqlab qoladilar. Qonunda murojaatlar uchun alohida talablar belgilab berilgan bo‘lib, alohida murojaat qiluvchilar o‘z shaxsiy ma’lumotlari va yashash joyini ko‘rsatishi, yuridik shaxslar esa tegishli davlat organi yoki mansabdor shaxsning rekvizitlari bilan birga to‘liq ismi-sharifi va manzilini ko‘rsatishi shart. Elektron pochta manzillari va telefon raqamlari kabi aloqa ma'lumotlari ham kiritilishi mumkin. Qonun og‘zaki, yozma va elektron murojaatlarni e'tirof etadi, elektron arizalar elektron imzo bilan tasdiqlangan taqdirda rasmiy e'tirofga sazovor bo‘ladi. Biroq, faqat My.gov.uz portali orqali yuborilgan murojaatlar og‘zaki va yozma murojaatlar bilan bir xil maqomga ega. Davlat organlari murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda, odatda, dastlabki ko‘rib chiqish uchun o‘n besh kunlik muddatda, zarur hollarda esa, bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqishlari shart. Qonunda murojaatlarni e'tiborsiz qoldirishning ma'lum mezonlari, jumladan, anonim murojaatlar, jismoniy yoki yuridik shaxslarning tegishli vakillik qilinmaganligi va qonun hujjatlarining boshqa talablariga javob bermaslik ko‘rsatilgan.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasining “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”ga oid birinchi maqsadining 3-bandida mamlakat fuqarolariga mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish belgilandi. Bundan tashqari, ushbu sohaga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishga qaratilgan xalq bilan ochiq muloqot mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish kabi aniq maqsadlarni amalga oshirish qayd etildi. Bugungi zamonaviy dunyoda shiddat bilan rivojlanib borayotgan masalalarni inobatga olib, davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko‘rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o‘rnatish, aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta’sir qiluvchi masalalar bo‘yicha murojaatlar tezkor va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlashga doir normalarning qabul qilinishi ham mamlakatda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish huquqlarini davlat siyosati darajasida e’tirof etilganligidan dalolat beradi.

Ushbu ma’lumot va murojaatlar asosida prokuror o‘zi rahbarlik qilayotgan hududda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarilishi, ularning buzilgan huquq va erkinliklarini qonuniy asoslarda tiklashi, murojaatlarga doir normativhujjatlar talablarini buzgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rish bo‘yicha ishlarni tizimli va kompleks ravishda yo‘lga qo‘yishi, murojaatlar sonining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ishlab chiqishi, bu sohada prokuror nazoratining aniq strategiyasi va metodikasini ishlab chiqqan holda ishlarni tashkillashtira olishi kerak. Joylardagi prokurorlar keltirilgan murojaatlar bilan ishlashga oid yuqorida ta’kidlangan o‘ziga xos ishlarni amalga oshirish orqali hududlarda murojaatlar bilan ishlash faoliyatining samaradorligiga hamda bu borada ishlarning sifatli amalga oshirilishiga erishishlari mumkin.

Prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash “Prokuratura to‘g‘risida”gi 7-moddasi bilan tartibga solinadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga e’tibor davlat siyosati darajasidagi masala ekanligi hisobga olinsa, Qonunning ushbu moddasini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib hisoblanadi. Qonunning mazkur moddasi bilan bog‘liq prokuratura organlari amaliyotida uchrayotgan muammolardan biri – bu ko‘plab murojaat mualliflari Qonunning mazkur moddasining o‘zbek tilidagi matnini noto‘g‘ri talqin qilib, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha prokuror tomonidan prosessual ko‘rinishdagi qaror qabul qilishi haqida tushunib, prokuratura idoralariga kelib, joylarda murojaatlarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qaror ularga berilmayotganligi haqida shikoyatlar qilishmoqda. Ayrim hollarda, mualliflar murojaatlarini ko‘rib chiqilishi natijalariga ko‘ra qabul qilingan qarorlarni talab qilib, prokuratura idoralari bilan bir qatorda O‘zbekiton Respublikasi Prezidentiga hamda

respublikaning boshqa nufuzli davlat idoralariga murojaat qilishmoqda. Natijada, prokuratura organlarining faoliyati yuzasidan asossiz noroziliklar bilan bog‘liq salbiy fikrlarni shakllanishiga sabayob bo‘lmoqda.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning tahlil qilinayotgan moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning qabullariga oid faoliyatni to‘liq qamrab olmaganligini bilan ham xarakterlanadi. Ya’ni, prokurorlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning sayyor va ommaviy qabullari, shu jumladan videokonferensaloqa vositasi yordamida qabullar o‘tkazilishi to‘g‘risida normalar mavjud emas. 7-moddaning nomlanishi ham “Fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish” deb belgilangan. «Fuqarolar» degan atama zamirida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini, chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni tushunish kerakligi to‘g‘risidagi qoidalar Qonunning 56-moddasida keltirib o‘tilgan. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasini quyidagi tartibda bayon etish bo‘yicha o‘z taklifimizni ilgari suramiz: “7-modda. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish.

Prokuratura organlari, boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilib, yurtda yoki mamlakatda huquqni saqlash, qonunlarni tegishli holda qonun o‘zgartirish, jamiyatning amniyat va tartibini saqlash, hamda shaxsiy va umumiy huquqni muhofaza qilish masalalarida munosib javobgarlik ko‘ldiradigan davlat organlaridir. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari, yozma qonunlarni ijro qilish, keng ko‘rib chiqish va huquqiy masalalarda yordam ko‘rsatishga bog‘liq. Prokuratura organlarining tuziluvi va faoliyatini ham kengaytirish mumkin. Bundan tashqari, har bir davlatda yozma tizimi va huquqiy jamiyat yozilishiga ko‘ra prokuratura organlarining manzili va vazifalariga moslik bo‘lib o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari, ular huquqiy bo‘lish va shahsiy va umumiy huquqni saqlash masalalarida davlat organlariga maslahat berish, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy reformalarga qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini ta’minlash hamda sud huquqning adolatligini ta’minlashda ko‘p tomonlama ishonch qilish masalalarida ham muhim hizmatlarni amalga oshiradi.

XULOSA

Prokuratura organlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choratadbirlarini ko‘radilar. Prokuror jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi, sayyor va ommaviy qabullar o‘tkazadi, shu jumladan videokonferensaloqa vositasida qabulni amalga oshiradi. Prokuror o‘ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha

materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega.

Prokuratura organlariga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yo‘llangan murojaatlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, prokuratura organlariga va prokurorlar sektorlariga yuborilayotgan murojaatlar mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qilmoqda. Masalan, sektorlarga, asosan, ish bilan ta’minlash va mehnatga doir, iqtisodiy va ijtimoiy yordam masalalari, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritish, yo‘llarni ta’mirlash, qurilish, aloqa tarmoqlari, kommunal sohaga oid va shu kabi maishiy ahamiyatga molik murojaatlar tashkil qiladi. Prokurorlar sektorlariga yo‘llanayotgan murojaatlar bevosita prokuratura organlariga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yuborilgan murojaatlarning umumiy statistikasiga qo‘shib boriladi. Birgina 2021 yilning o‘zida respublika bo‘yicha prokuror sektorlariga 80 mingdan ortiq murojaatlar yo‘llangan11. Bu esa, yildan yilga prokuratura organlarida murojaatlar statistikasining yildan yilga oshib borishiga olib keladi. Fikrimizcha, sektorlarga qilinayotgan murojaatlarning mazmuniga ko‘ra ajralib turishini hisobga olgan holda, prokuratura organlariga yo‘llangan murojaatlar va prokuror sektorlariga qilingan murojaatlar alohida statistik raqamlarda hisoblanishi zarur bo‘lib hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son Qarori10 asosida mamlakatimizning barcha hududlarida yo‘lga qo‘yilgan sektorlar faoliyati davlat organlarini aholi bilan bevosita yaqinlashtirish, xalq bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishda muhim omillardan biri bo‘lmoqda. Bugungi kunda prokurorlar sektorlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash alohida o‘ringa ega bo‘lib, ushbu organga yuklatilgan ustuvor vazifalardan hisoblanmoqda.

Yuqorida keltirilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, prokuratura organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyada mustahkamlangan murojaat qilish bo‘yicha huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularni himoya qilish eng asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Nafaqat prokuratura organlari, balki barcha davlat organlari, tashkilotlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga yo‘llanayotgan murojaatlarda insonlarning dardi, ularni bevosita qiynayotgan muammolar, o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan masalalar bayon etilgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Б.Х.Пўлатов. Прокурор назорати. Дарслик. “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2009. – Б.97-101.

2. Рахимов Ф.Х. “Прокуратура органлари инсон ҳуқуқлари ҳимояси йўлида. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ахборотномаси. №16, 2008, 36-38 б.

3. Ибрагимов З.С. Мустақиллик ва Ўзбекистон Ресупбликаси прокуратураси (истиқлол йилларидаги ҳуқуқий мақоми ривожланишининг қиуосий таҳлили) / З.С.Ибрагимов. – Т.: “Noshir” 2011. – Б.266-279.

4. О.М. Мадалиев. Прокурор назорати. Дарслик. Умумий қисм. -Т.: ТДЮИ нашриуоти, 2009. – Б.125-129

5. Ш.И.Зокиров. Прокуратура органларида мурожаатлар билан ишлаш институтини такомиллаштириш масалалари // дисс. ... ю.ф.ф.д., Т.:2022.

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-04-26 12.00.00 – YURIDIK FANLAR Pages: 195-204

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES TO PREVENT AND EXPOSE THEFT FROM HOUSING

Odilbek L. Urinov
lecturer, independent researcher, captain
Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: preventive measures, operational-search measures, operational units.

Received: 28. 06. 24
Accepted: 30. 06. 24
Published: 02. 07. 24

Abstract: The article explores the experience of the United Kingdom, Germany, Turkey, China, Ukraine, Kazakhstan, Russia, Kyrgyzstan, Tajikistan, Belarus in preventing and exposing the crime of theft from housing, and develops substantiated proposals and recommendations.

УЙ-ЖОЙДАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЎҒИРЛИКНИ ОЛДИНИ ВА ФОШ ЭТИШНИНГ АЙРИМ ЧЕТ ЭЛ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Одилбек Л. Ўринов
ўқитувчи, мустақил тадқиқотчи, капитан
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
Тошкент, Ўзбекистон

МАҚОЛА ҲАҚИДА

Калит сўзлар: профилактик чора-тадбирлар, тезкор-қидирув тадбирлари, тезкор бўлинмалар.

Аннотация: Мақолада уй-жойдан содир этиладиган ўғрилик жиноятини олдини олиш ва фош этишнинг Буюк Британия, Германия, Туркия, Хитой, Украина, Қозоғистон, Россия, Қирғизистон, Тожикистон, Беларусь каби давлатларининг тажрибаси ўрганилиб, асослантирилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

ОПЫТ ОТДЕЛЬНЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ И РАСКРЫТИЮ КРАЖ, СОВЕРШЕННЫХ ИЗ ЖИЛОГО ПОМЕЩЕНИЯ

Одилбек Л. Уринов
преподаватель, независимый исследователь, капитан
Академия МВД Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: профилактические мероприятия, оперативно-розыскные мероприятия, оперативные подразделения.

Аннотация: В статье изучен опыт таких стран, как Великобритания, Германия, Турция, Китай, Украина, Казахстан, Россия, Кыргызстан, Таджикистан, Беларусь по предупреждению и раскрытию преступлений, связанных с кражей со взломом жилья, и разработаны обоснованные предложения и рекомендации.

КИРИШ

Ички ишлар органлари тезкор бўлинмаларининг уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини олиш ва фош этиш фаолиятини яхшилашда хориж тажрибасини ўрганиш ҳам зарур ҳисобланади.

Уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини ва фош этишда бошқа давлатларнинг полиция (ички ишлар) органлари, давлатнинг бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари, жамоатчилик тузилмалари билан самарали ҳамкорлик ўрнатиш талаб этилади. Боиси, бугун дунёда уй-жойдан содир этиладиган ўғирлик жисмоний ва юридик шахсларнинг шахсий (хусусий) мол-мулкига қаратилган энг хавфли қилмишлардан бирига айланмоқда.

АСОСИЙ ҚИСМ

Буюк Британияда йилига умумий жиноятларнинг қарийб 70 фоизини (1 млн. 200 минг) мулкий турдаги жиноятларни ташкил этиб, шундан ўртача 550-590 мингга яқини уй-жойлардан содир этиладиган ўғирлик жиноятининг улушига тўғри келади. Ушбу жиноятларнинг фош этиш кўрсаткичи ҳар йили 15-20 фоизни ташкил этади[19]. 2022 йилда Буюк Британия дўконларидаги (*сариёғ, пишлоқ, кир ювиш кукуни*) ўғирликлар сони йил давомида 18 фоизга ошган. Бунга энергетика инқирозининг кучайиши оқибатида фуқароларнинг турмуш даражасининг пасайиши, шунингдек, мамлакатда инфляциянинг ўсиши сабаб бўлган[20].

Мазкур жиноятларнинг олдини олишда бирлашган қиролликнинг ҳукумати томонидан жисмоний ва юридик шахслар ўз мол-мулкининг хавфсизлигини таъминлаш юзасидан тарғибот ва ташвиқот ишлари (масалан, жисмоний ва юридик шахслар шахсий маблағи ҳисобидан ховлилар, кўп қаватли уйлар, корхоналар, ташкилотларнинг кириш жойини тунда ёритиш, кузатув камерасини ўрнатиш, манфаатли иш ўринлари ярмаркасини ташкил этиш, аҳолининг ҳуқуқий маданиятини ошириш ва бошқ.)[1] амалга оширилади.

Буюк Британияда тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи Лондон полицияси (Skotland-Yard); Миллий жиноятчиликка қарши курашиш бошқармаси; Шотландия жиноятчиликка қарши курашиш бошқармасининг тезкор бўлинмалари томонидан

2000 йилда қабул қилинган “Қидирув ваколатларини тартибга солиниши тўғрисида”ги Акт, шунингдек, тезкор бўлинмаларнинг фаолиятини тартибга солувчи махсус ҳуқуқий ҳужжатларга биноан уй-жойдан ўғирлик жиноятини содир этган шахсларга нисбатан *кузатув; аудио ва видеоёзувларини назорат қилиш; текшириш учун харид қилиш; жиноий муҳитга тезкор киритиш; маълумотлар тўплаш* тезкор-қидирув тадбирлари ўтказилиб, айбдорнинг қилмиши иш учун аҳамиятли бўлган далилий ашёларни тўплаш орқали исботланади[14].

Германияда йилига ўртача 2,7 – 3 млн. жиноятлар қайд этилиб, шундан ўртача 2,11 млн.ни мулкий турдаги *(асосан ўғирлик ва талончилик)* жиноятларининг хиссасига тўғри келади.

Мазкур жиноятларнинг олдини олишда Германия ҳукумати томонидан жисмоний ва юридик шахслар ўз мол-мулкининг хавфсизлигини таъминлаш юзасидан ҳуқуқий тарғибот, ташвиқот ишлари амалга оширилиб, тезкор-қидирув фаолиятини амалга ошириш ваколатига эга бўлган Германия Ички ишлар вазирлигининг Федерал жиноий полиция бошқармаси ва унинг ҳудудий бўлинмалари томонидан 1987 йил 7 апрель кунидаги “Жиноят-процессуал кодекси”га биноан уй-жойдан содир этилган ўғирлик жиноятини содир этган шахсларга нисбатан тезкор-қидирув тадбирлари амалга оширилади.

Фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларини чеклайдиган тезкор-қидирув тадбирлари ўтказилиши лозим бўлганида ваколати суднинг санкциясини олиш, кечиктириб бўлмайдиган вазиятларда тезкор-қидирув тадбирлари ўтказиш зарурати юзага келганда прокурорнинг рухсати асосида тадбир ўтказилиб, белгиланган муддат ичида суддан санкция олиниши [12] талаб этилади.

Европа мамлакатларида уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини ва фош этишда маҳаллий полиция таянч пунктларида хизмат қилаётган ходимлар ва кўнгилли фуқаролар билан биргаликда тунги вақтларда муайян йўналишлар бўйича патруллик хизматини амалга ошириш; барча маъмурий ҳудудларда тунги ёритиш чироқлари ҳамда кузатув мосламаларини етарлича миқдорда ўрнатиш; уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини ва фош этишда ҳукумат томонидан ишлаб чиқилган дастур асосида аҳоли орасида тарғибот тадбирларини, шу жумладан аҳолига мол-мулкини эҳтиёт қилиш мазмунидаги эслатма ва буклетлар тарқатиш кабиларни мисол келтириш мумкин[2; 15; 18].

Туркия Республикасида уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини олишда маҳаллаларда аксиялар уюштирилиб, аҳолига мазкур салбий иллатга самарали қарши курашиш усуллари ўргатилади.

Ушбу тадбирда иштирок этган шахслар кейинчалик ўрганган усулини оила аъзоларига тарғибот-ташвиқот қилиш орқали уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни

барвақт олди олиниб, ҳудудларнинг барча нуқталарида ўрнатилган кузатув камераларни мониторинг қилиш асосида мазкур жиноятлар фош этилади[13].

Хитой Халқ Республикасида уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини олишда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи давлат органлари ва Полиция ходимлари билан ҳамкорлидка умумий ва махсус профилактик тадбирлар амалга оширилиб[21], мазкур жиноятни “иссиқ изи”дан фош этишда жамоат хавфсизлиги хизматлари ходимлари томонидан тезкор-қидирув тадбирлари ўтказилиб, асосан ҳудуддаги криминоген ва ижтимоий вазиятни доимий равишда назорат қилувчи барча кузатув камераларни мониторинг қилиш тизими асосида, шунингдек, гувоҳларнинг аниқ кўрсатмаси ҳамда ашёлар, нарсалар ва шахсга оид маълумотларнинг базасидан фойдаланиб, уй-жойдан содир этиладиган ўғирлик самарали фош этилади.

Мустақил давлатлар ҳамдўстлигига аъзо бўлган айрим давлатларнинг ҳудудида содир этиладиган уй-жойдан ўғирликнинг олдини ва фош этиш фаолияти ўрганилганда, жумладан, Қозоғистон, Россия, Қирғизистон, Тожикистон, Беларусь каби давлатларнинг ички ишлар (полиция), жамоат хавфсизлиги, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, тезкор хизмат ходимлари томонидан биринчи навбатда умумий, махсус тезкор-қидирув профилактик тадбирларни; тезкор-қидирув тадбирларини самарали ташкил этиш, ўтказишга; зарур тергов ҳаракатларини ўтказишга; тезкор-қидирув фаолиятига кўмаклашувчи шахс сифатида жалб этилган махфий манбалардан олинган агентура маълумотларни синчковлик билан текширишга; жамоат жойлари ва бошқа жойларда ўрнатилган юқори мегапикселли видеокузатув мосламаларнинг тезкор хотирасида мавжуд аудио видеоёзувлардан унули фойдаланишга; уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни содир этилиш вақтида шоҳид ёки гувоҳ бўлиб қолган шахсларни аниқлаш орқали уларнинг муҳим кўрсатмаларидан фойдаланишга; Ички ишлар (полиция), Жамоат хавфсизлиги тизимида фаолият кўрсатаёган бошқа хизматлардан олинган тезкор маълумотлардан фойдаланиб, мазкур жиноят ўз вақтида, “иссиқ изи”да самарали фош этилишга катта эътибор берилиши ўрганишлар жараёнида аниқланди[22; 23].

Украина Республикасида уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини олишда полиция тизимининг соҳавий хизматлари ва профилактик ишларни амалга оширувчи ваколатли бошқа субъектлар томонидан умумий ва махсус (комплекс дастурлар асосида), якка тартибдаги профилактик тадбирлар амалга оширилиб, мазкур жиноятни фош этишда полиция органларининг тезкор бўлинма ходимлари томонидан Украина Республикаси “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида” қонунида назарда тутилган сўров; ноқонуний хатти-ҳаракатлар фактларини аниқлаш ва ҳужжатлаштириш учун мулкчилик шаклидан қатъи

назар, жисмоний ва юридик шахслардан эркин муомаласи тақиқланган товарлар, предметлар ва ашёларни назорат остида ва тезкор харид қилиш; жиноий ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларни қўлга олиш; Украина Жиноят-процессуал кодекси қоидаларига мувофиқ шахсни аудио ва видео назоратини ўтказиш, электрон алоқа тармоқлари, электрон ахборот тармоқларидан маълумотлар олиш; Украина ЖПКга биноан шахсни, нарсани, жойни кузатиш, шунингдек, жойни видеокузатиш; юридик ва жисмоний шахслардан, жиноий ҳуқуқбузарликлар, шу жумладан жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдид тўғрисида бепул ёки пуллик маълумот олиш"[10] каби тезкор-қидирув тадбирлари ўтказилиб мазкур жиноятлар фош этилади.

Қозоғистон Республикасида уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни олдини олишда полиция хизмати, билан миллий гвардия ходимлари, шунингдек ҳокимият органи билан ҳамкорлигида кенг қамровли комплекс равишда умумий профилактик тадбирлари, профилактика инспекторлари томонидан эса уй-жойдан содир этиладиган ўғирликни содир этишга мойил бўлган шахслар билан якка тартибда[7] профилактик чора-тадбирлар амалга оширилиб, тезкор қизиқиш уйғотувчи шахс билан Қозоғистон Республикаси "Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида"ги қонунига биноан *умумий тезкор-қидирув тадбирлари:* шахсни сўров қилиш; тезкор-қидирув фаолиятида фойдаланишда фуқаролар билан ошкора ва ноошкора муносабат ўрнатиш; киритиш; жиноят фаолиятга тақлид қилувчи хулқ-атвор моделини қўллаш; телефон суҳбатини текшириш; маълумотлар тўплаш; намуна олиш; тезкор харид; қидирув итларидан фойдаланиш; шахснинг белгилари бўйича излаш ва шахсини аниқлаш; ахборот тўпловчи ноқонуний қурилмани излаш; ҳуқуққа хилоф ҳаракат изини ноошкора олиш, қайд этиш, уларни дастлабки ўрганиш; жиноятга тайёрланаётган, содир этаётган ёки содир этган шахсни таъқиб қилиш ва уни ҳибсга олиш; гувоҳлар иштирокида ҳибсга олинган шахсни шахсий тинтув қилиш ва улардан жиноий фаолият билан боғлиқ бўлиши мумкин бўлган нарса ва ҳужжатларни олиб қўйиш, шунингдек турар-жой бинолари, иш жойлари, бошқа жойларни, транспорт воситаларини текшириш; қуролланган жиноятчиларни қўлга олиш бўйича операцияларни ўтказиш; кузатиш; *махсус тезкор-қидирув тадбирлари:* ноошкора шахсни ёки жойни аудио ёки видео назорат қилиш; ноошкора усулда электр (телекоммуникация) алоқа тармоқлари орқали узатиладиган маълумотларни ушлаб қолиш ва назорат қилиш; абонентлар ва (ёки) абонент қурилмалари ўртасида боғланишлар ҳақида ахборот олиш; ноошкора жойларга кириш ёки кўздан кечириш[6] каби тезкор-қидирув тадбирлари амалга оширилади.

